

# **GIDROMETRIYA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**F. Xikmatov, G.X. Yunusov, N.Z. Sagdelyev,  
D.M. Turgunov, R.R. Ziyayev**

## **GIDROMETRIYA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan 5141100 – Gidrologiya yo'nalishi bo'yicha  
derslik sisatida tavsiya etilgan*

«Sano-standart»  
Toshkent – 2014

**UO'K:** 627.133 (075)

**KBK:** 26.222

G-45

Ushbu "Gidrometriya" darsligida daryolar, ko'llar, suv omborlarida bajariladigan suv o'lhash ishlari, jumladan, suv sathini kuzatish va natijalarni qayta ishlash, chuqurliklarni aniqlash, daryo o'zamining ko'ndalang va bo'ylama profillarini tuzish, morfometrik ko'rsatkichlarini hisoblash, daryo oqimi tezligini gidrometrik parraklar va boshqa usullarda o'lhash, o'lchan gan tezliklar asosida suv sarfini hisoblash, suv sathi bilan suv sarfi orasidagi bog'lanish grafigini chizish, gidrologik yilnomani tuzish va daryo oqimini hisoblash kabi mavzular yoritilgan.

Darslik 5140700-Gidrometeorologiya, 5141100-Gidrologiya (*quruqlik gidrologiyasi*) va boshqa turdosh bakalaviatura yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

### **Taqrizchilar:**

Glazirin G.E. – geografiya fanlari doktori,  
O'zMU Quruqlik hidrologiyasi kafedrasi professori;  
Shohidov A.F. – texnika fanlari doktori,  
Toshkent Avtomobil yo'llari instituti professori.

**Hikmatov F.**

**Gidrometriya / darslik.** F. Xikmatov va boshqalar. –  
Toshkent: «Sano-standart», 2014. – 208 b.

**UO'K:** 627.133 (075)

**KBK:** 26.222

## **SO‘Z BOSHI**

Ma'lumki, mamlakatimizda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarni ko‘zda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yil 20-maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yuqorida qayd etilgan rasmiy me’yoriy hujjatlarning mantiqiy davomidir. Ularda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida respublikamizda oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining klassifikatori yangilandi. Uning asosida esa har bir yo‘nalish va mutaxassisliklar uchun takomillashtirilgan davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalarini va namunaviy fan dasturlari ishlab chiqildi. Bu jarayonlarning barchasi gidrometeorologiya va gidrologiya ta’lim yo‘nalishlari va ular negizida tayyorlanadigan magistratura mutaxassisliklariga ham tegishlidir.

Ayni paytda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayoni o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda. Chunki mafkuraviy hamda mazmunan eskirgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari Respublikamizda mustaqillik yillarda joriy etilgan yangi ta’lim tiziminining talab va ehtiyojarigaga javob berolmay qoldi.

Gidrometriya fani gidrometeorologiya, gidrologiya va boshqa turdosh ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejasiga kiritilgan asosiy umumkasbiy fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fanni o‘rganish natijasida bo‘lajak bakalavrilar suv obyektlarida suv o‘lchash postlarini tashkil etish, suv sathini kuzatish, chuqurliklar va suvning oqish tezligini o‘lchash, daryolardagi suv va loyqa oqiziqlar sarflarini hisoblash, davlat suv kadastrini yuritish usullarini o‘rganadi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini tushunib etadilar. Bu esa talabalarga yuqori kurslarda o‘qitiladigan “Umumiylidagi gidrologiya”, “Gidrologik hisoblashlar”, “Gidrologik proqnozlar” kabi ixtisoslik fanlarini o‘rganishga zamin tayyorlaydi. Shuningdek, mazkur fanning bo‘lg‘usi mutaxassislarining ishlab chiqarish, ilmiy-

tadqiqot va tashkiliy-boshqaruv faoliyatlarida ham ahamiyati katta.

Darslikning 1- va 2- boblari F.H. Hikmatov va G‘.X. Yunusov, 3- va 4- boblari G‘.X. Yunusov va D.M. Turg‘unov, 5- va 6-boblari N.Z. Sagdeyev va R.R.Ziyayev, 7-bobi F.H. Hikmatov va D.M. Turg‘unov, 8- va 9-boblari G‘.X.Yunusov va N.Z. Sagdeyevlar hammullifligida tayyorlandi. Darslikning umumiy tahriri professor F.H. Hikmatov tomonidan amalga oshirildi.

Darslik mualliflarning shu sohadagi ilk tajribasi natijasi bo‘lib, uning ayrim kamchiliklardan xoli emasligi tabiiydir. Mualliflar ushbu kitobning mazmuni va tuzilishini yaxshilash maqsadida bildirilgan barcha fikr-mulohazalarни mammuniyat bilan qabul qiladilar.

## KIRISH

Ushbu “Gidrometriya” darsligi respublikamizdagi mavjud uzlucksiz ta’lim tizimi va kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblangan bakalaviatura bosqichi, aniqroq qilib aytganda, 5140700—Gidrometeorologiya, 5141100—Gidrologiya (tarmoqlar bo‘yicha) va boshqa turdosh yo‘nalishlar talabalariga mo‘ljallangan.

Yuqorida qayd etilgan ta’lim yo‘nalishlarining Davlat ta’lim standartlari va ularda o‘qitilishi ko‘zda tutilgan “Gidrometriya” fanining namunaviy o‘quv dasturiga mos keladigan darslik yaratish maqsadida mualliflar tomonidan ma’lum ishlar amalga oshirildi. Jumladan, respublikamiz, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari va uzoq chet ellarda “Gidrometriya” fani sohasida shu kungacha erishilgan natijalar, ularning hozirgi holati baholandi. Shuningdek, ular o‘z ixtiyoridagi manbalarni o‘zaro qiyosiy solish-tirdilar, ularda mavjud bo‘lgan ijobjiy tajribalardan keng foydalandilar. Bu ish jarayonida gidrometriyaning kelgusidagi rivojlanish tendensiyalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Gidrometriya fanini o‘qitishdan asosiy maqsad, bo‘lajak bakkalavrarda daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlarida gidrologik kuzatish tarmoqlarini tashkil etish, ularda suv rejimi elementlarining miqdoriy ko‘rsatkichlarini qayd etib borish, to‘plangan gidrometrik ma’lumotlarni qayta ishlash, umumlash-tirish hamda davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha bilim va malaka hosil qilishdan iboratdir. Ayni paytda, talabalar ushbu fanni o‘rganish natijasida suv o‘lchash ishlarida qo‘llaniladigan zamonaviy qurilmalar, asbob-uskunalar bilan ishlay olish, suv o‘lchash va kuzatish ishlarida foydalaniladigan usullar va uslublarni amaliyotda qo‘llay olish tajribalari, ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishlari lozim.

Yuqorida qayd etilganlar yanada aniqroq bayon etiladigan bo‘lsa, “Gidrometriya” fanini o‘zlashtirish jarayoni doirasida bakalavr:

- gidrometriyaning asosiy tushunchalari, atamalari, ta’riflari va tadqiqot usullarini; daryolar, ko‘llar va suv omborlarining o‘lcham

ko'rsatkichlarini aniqlashni; ularda suv o'lhash ishlarini tashkil etishni; daryolarning suv va oqiziqlar sarfini o'lhash hamda hisoblashning zamonaviy usullarini va ulardan foydalana olishni ***bilishi kerak***;

- suv obyektlari rejimini o'rganishda suv o'lhash ishlarini amalga oshirish; daryo oqimi elementlarini o'lhashning zamonaviy usullarini amalda qo'llash; gidrologik postlar va stansiyalarni tashkil etish va ularni jihozlash; daryolar, kanallarning suv va muallaq oqiziqlari oqimini miqdoriy baholash, gidrometrik axborotlarni toplash, birlamchi qayta ishslash va bir tizimga sola olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;

- ko'llar va suv omborlarining batimetrik xaritalarini tuzish; daryolar, ko'llar va suv omborlari suv resurslarini miqdor va sifat jihatdan baholash; suv sarfi egri chizig'i grafigini chizish hamda gidrologik yilnomani tuzish; gidrometrik ma'lumotlar bankini yaratish; davlat suv kadastrini olib borish; suv o'lhash asboblari va qurilmalaridan amalda foydalana olish ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.

Talabalarning "Gidrometriya" o'quv fanini o'zlashtirish jarayoni ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, fan bo'yicha mustaqil ta'lim va kurs ishini bajarish hamda suv obyektlarida o'quv-dala amaliyotini o'tishlari shakllarida tashkil etiladi. Ma'ruza mashg'ulotlari, ularning mazmuni fan dasturida mantiqiy ketma-ketlikda keltirilgan.

Talabalar, amaliy mashg'ulotlarni bajarishga kirishishlaridan oldin, dastlab ishning maqsadi va mavzuga oid nazariy bilimlarni egallashlari lozim. So'ng ishni bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va qo'yilgan maqsadni amalga oshirishda talab qilingan vazifalarni aniq bilishlari zarur. Har bir amaliy ishni bajarish tartibi esa, ishning maqsadiga mos holda, belgilangan vazifalar ketma-ketligiga asoslanadi. Barcha amaliy mashg'ulotlar ularni bajarish jarayonida olingan natijalarning tahlili bilan yakunlanadi.

Fan bo'yicha kurs ishining maqsadi talabalarning mustaqil ishslash qobiliyatini rivojlantirish, ularda fanni o'rganish natijasida olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos texnik

yechimlar qabul qilish va zamonaviy suv o'lchanash texnikasi hamda texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir. Kurs ishi mavzulari bevosita gidrometeorologiya xizmati, qishloq va suv xo'jaligi, boshqa sohalardagi ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan jarayonlarga bog'liq holda tanlanib, aniq bir daryo, ko'l yoki suv ombori misolida, ularga tegishli bo'lgan gidrometeorologik ma'lumotlar negizida bajariladi.

Talabalarga, fan bo'yicha mustaqil ta'limni amalga oshirishda, uning quyidagi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga nazariy jihatdan tayyorgarlik ko'rish;
- kurs ishini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni bajarish;
- darslik va o'quv qo'llanmalaridan tegishli mavzularni o'rghanish;
- maxsus adabiyotlardan foydalangan holda, fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- yangi gidrometrik texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rghanish;
- fanning talabanining o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'limlarini va mavzularini chuqur o'rghanish;
- avtomatlashirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash, internet saytlaridan foydalanish;
- masofaviy (distansion) ta'limdan foydalanish va boshqalar.

Yuqorida qayd etilganlardan ko'rinish turibdiki, "Gidrometriya" fani matematika, fizika, informatika va axborot texnologiyalari, mutaxassislikka – gidrometeorologiyaga kirish, geodeziya, geologiya, geomorfologiya, geofizika kabi fanlar bilan bog'liqdir. Ushbu fanlardan yetarli bilim to'plagan gidrometeorologiya, hidrologiya va boshqa turdosh yo'nalishlarning bo'lajak bakalavrulariga gidrometriyani talab darajasida, qiziqib o'rghanishlariga tilakdoshmiz.

# **1-BOB. GIDROMETRIYA FANI, UNING VAZIFALARI VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI**

Mazkur bobda gidrometriya fani, uning maqsadi, vazifalari, predmeti va tadqiqot obyekti, fanning shakllanishi va rivojlanishining qisqacha tarixi, gidrometriyada qo'llaniladigan tadqiqot usullari va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati kabi masalalar bayon etiladi.

## **1.1. Gidrometriya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari**

Gidrologiya fani, o'zining tadqiqot obyekti va usullariga bog'liq holda, bir qancha qismlarga bo'linadi. Gidrologiyaning suv obyektlarida suv rejimi elementlarini o'lhash va kuzatish, shuningdek, ushbu o'lhash va kuzatish ishlari usullarini ishlab chiqadigan hamda ularni amaliyatga tatbiq etish bilan shug'ullanadigan qismi "Gidrometriya" deb nomlanadi.

«Gidrometriya» ikkita grek so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan, ya'ni «gidro» - suv, «metriya» - o'lhash ma'nolarini bildiradi. Bir so'z bilan aytganda, gidrometriya "suvni o'lhash" demakdir. Amalda esa gidrometriya fani faqatgina suvni o'lhash ishlari bilan emas, balki kompleks suv o'lhash va kuzatish ishlarini bajarish bilan ham shug'ullanadi.

«Gidrometriya» fanining **asosiy maqsadi** talabalarga suv obyektlarida bajariladigan kuzatish, o'lhash ishlari hamda ana shu ishlarni amalga oshirish jarayonida to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish va hisoblash usullarini o'rgatishdan iboratdir. Suv obyektlariga daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar va boshqa suv havzalari kiradi.

Yuqorida qayd etilgan maqsad bilan bog'liq holda, gidrometriyaning ikkita asosiy **vazifikasi** mavjud:

1) suv obyektlari hidrologik rejimi elementlarini kuzatish va miqdoriy baholash usullarini ishlab chiqish va bu jarayonda qo'llaniladigan asbob-uskunalar hamda qurilmalarni yaratish;

2) suv obyektlarining suv sathi, suv va oqiziqlari oqimi, kimyoviy tarkibi, harorati, muzlash hodisalari kabi hidrologik

rejimi elementlarining ko‘p yillik ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida ularni muntazam o‘rganib borish.

Suv obyektlari gidrologik rejimi elementlarini kuzatish va o‘lchash hamda bu ishlarning natijalari aks etgan ma’lumotlarni to‘plash, birlamchi qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, bir so‘z bilan aytganda, ularni o‘rganish juda zarurdir. Bu ma’lumotlardan gidrotexnik inshootlarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishda, shuningdek, bu jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan hidrologik hamda suv xo‘jaligi hisoblashlarini bajarishda keng foydalaniladi.

Gidrologik stansiyalar va postlarni tashkil etish, ularni tegishlicha kuzatish hamda o‘lchov asboblari, uskunalar va qurilmalar bilan jihozlash, shuningdek, kuzatishlarni amalga oshirish usullari hamda suv o‘lchash asbob-uskunalarini ishlab chiqish, takomillashtirish masalalari ham gidrometriyaning vazifasi hisoblanadi.

Gidrometriya o‘rganadigan suv obyektlarining turiga bog‘liq holda quyidagi qismlarga bo‘linadi:

- 1. Atmosfera suvlari gidrometriyasi;*
- 2. Yer usti suvlari gidrometriyasi;*
- 3. Yer osti suvlari gidrometriyasi.*

Atmosfera suvlari gidrometriyasi atmosfera fizikasi yoki meteorologiyaga tegishlidir.

Yer usti suvlari gidrometriyasini, o‘z navbatida, quyidagi ikki qismga ajratish mumkin:

- 1) okeanlar va dengizlar gidrometriyasi;*
- 2) quruqlik suvlari* (daryolar, ko‘llar, suv omborlari va boshqalar) *gidrometriyasi;*

Yer osti suvlari gidrometriyasi yer osti suvlari hidrologiyasi yoki hidrogeologiyaga tegishlidir.

Hozirgi kunda gidrometriyaning yuqorida qayd etilgan qismlari orasida okeanlar va dengizlar gidrometriyasi, qisqacha, dengizlar gidrometriyasi hamda quruqlik suvlari gidrometriyasi, qisqacha, daryolar gidrometriyasi ancha mukammalashgan bo‘lib, ular gidrometriyaning alohida vazifalarga ega bo‘lgan bo‘limlari sifatida shakllangan.

Suv obyektlarida ma'lum maqsad va vazifalarni ko'zlab bajariladigan ***asosiy gidrometrik ishlar*** tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) daryolar, ko'lllar, suv omborlari, kanallar va boshqa suv obyektlarida gidrologik stansiyalar va postlarni qurish, ularni jihozlash;
- 2) gidrologik stansiya va postlarda suv sathini muntazam kuzatish ishlarini tashkil etish;
- 3) suv obyektlarida suv yuzasi nishabligini o'rganish;
- 4) ma'lum maqsadlarni ko'zlab, chuqurlik o'lchash ishlarini bajarish;
- 5) suvning harorati va muzlash hodisalarini o'rganish;
- 6) daryolar, kanallarda suvning oqish tezligini o'lchash va oqim yo'nalishini aniqlash;
- 7) daryolarning suv va loyqa oqiziqlari oqimini o'rganish;
- 8) daryolar loyqa oqiziqlarining mexanik tarkibini o'rganish;
- 9) suvning rangi, tiniqligi va boshqa tabiiy xususiyatlarini o'rganish;
- 10) suvning sho'rliги, minerallashuv darajasi, kimyoviy tarkibi va boshqa gidrokimyoviy xususiyatlarini o'rganish.

Ma'lumki, daryolar va soylarda, ba'zan, sel toshqinlari kuzatilishi, ularda eng katta suv sarflari hosil bo'lishi, ko'lllar va suv omborlarida esa suv sathining keskin ko'tarilishi yoki boshqa turdag'i favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda aniq maqsad va vazifalarga bog'liq holda tayyorlangan dastur asosida bajariladigan maxsus suv o'lchash va kuzatish ishlarini amalga oshirish ham gidrometriyaning vazifasiga kiradi.

## 1.2. Gidrometriyaning shakllanish va rivojlanish tarixi

Insonning hayot faoliyati qadimdan tabiiy suv obyektlari – buloqlar, soylar, daryolar, ko'llar bilan bog'liqdir. Ulardan odamlar o'zlarining turli-tuman ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalan-ganlar. Birinchi navbatda bu ehtiyoj suv obyektlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ulardan ekin maydonlarini sug'orishda, baliq ovlashda, shuningdek, suv yo'li sifatida foydalanganlar.

Bu jarayonda odamlar buloqlardagi suv miqdorini aniqlashga, daryoda suvning oqish tezligini, daryo yoki ko'llarda suv sathi o'zgarishlarini bilishga harakat qilgan. Masalan, ingliz olimi A.K.Bisvas ma'lumotiga ko'ra, Shimoliy Afrikaning qadimgi Gadames vohasidagi Ain al-Fras bulog'i suvini iste'molchilarga taqsimlash inshooti 3000 yil ilgari mavjud bo'lib, shu kungacha undan o'zgarishsiz foydalanilmoqda. Ushbu buloq hozirgi kunda 1 soatda 180 metr kub (50 l/s) suv beradi. Bu suv yuqoridagi inshoot yordamida bosh kanalga va uning ikkita tarmog'igaadolatlitiqsimlanadi. Bu inshoot yordamida buloq suvini taqsimlash usuli oddiy bo'lishiga qaramasdan, vaqt sinovidan samarali o'tganligi uchun, undan hozirgacha foydalanilmoqda.

Shunga o'xhash misollarni mamlakatimiz misolida ham keltirish mumkin. Masalan, o'sha davrlarga xos bo'lgan turli xil suv o'lhash qurilmalaridan daryolar, soylar va qadimgi irrigatsiya tizimlari, ya'ni kanallar suvini taqsimlashda foydalanilgan. Shu holat Amudaryoning quyi oqimida, aniqrog'i Xorazmda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Toshkent vohalarida qo'llanilgan. Bu haqidagi ma'lumotlar arab sayyoh olimlaridan al-Yoqubiy (IX asr), ibn Fadlon Ahmad (X asr), al-Muqaddasi (X asr), Ibn Batutta (1304-1370) va boshqalarining asarlarida keltirilgan.

**Nilometr – eng qadimgi suv o'lhash inshooti.** Mamlakatimizda qadimdan qo'llanilgan suv o'lhash usullari dunyo amaliyotida tatbiq etilgan. Qadimgi Nil daryosida buyuk alloma Ahmad al-Farg'oniy (797-861-yillar) rahbarligida qurilgan nilometr fikrimizning yorqin dalilidir. Bu haqda H.H.Hasanov shunday yozadi: "...Farg'oniy Bag'dod xalifasi al-Mutavakkilning buyrug'i bilan Nil daryosida suv sathini o'lchaydigan asbobni tuzatish va o'rnatish uchun 861-yilda Fustot (Qohira) shahriga borgan". Sharq manbalarida u "Miqyos an-Nil" deb tilga olinadi.

Ahmad Farg'oniy "Miqyos an-Nil" ni qurish uchun Nil daryosi o'zanidagi Ravzo orolining Qohira shahri yaqinidagi janubiy chekkasini tanlagan. Bu joy, nafaqat o'sha davr, hatto hozirgi kun talablari bo'yicha ham suv o'lhash ishlarini amalga oshirish uchun nihoyatda qulaydir.

Hozirgi kunda, "Gidrometriya" faniga oid o'quv adabiyotlarida

bayon qilinishicha, suv o'lhash ishlarini bajarish uchun tanlangan joy quyidagi ***talablarga*** javob berishi shart:


- 1) tanlangan joy suv rejimi elementlarining shu daryoga xos bo'lgan asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettirishi;
- 2) unda daryo yo'nalishi to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lishi;
- 3) shu joyda daryo uzunligi bo'yicha suv yuzasi nishabligi sezilarli darajada o'zgarmasligi;
- 4) tanlangan qism uzunligi bo'yicha chuqurlikning kam o'zgarishi;
- 5) daryo qirg'oqlari va o'zani barqaror, ya'ni ular o'pirilish, qulash, loyqa bosish, yemirilish kabi holatlardan xoli bo'lishi;
- 6) daryo o'zani suv o'tlari, tosh uymulari va boshqa to'siqlardan xoli bo'lishi;
- 7) daryoning shu qismi irmoqsiz bo'lishi;
- 8) tanlangan joyda suv o'lhash va kuzatish ishlarini katta aniqlikda amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim va boshqalar.

Yuqoridagi talablarning bajarilishi suv o'lhash qurilmasining uzoq yillar uzlusiz ishlashiga imkon beradi. "Miqyos an-Nil"ni quish uchun Ahmad Farg'oniy tomonidan tanlangan joy ana shu talablarning hammasiga javob bergan. Shu tufayli inshoot vaqt sinovlaridan muvaffaqiyatlari o'tgan. Unda XX asrning o'rtalarigacha, ya'ni oxirgi ta'mirlash amalga oshirilgan 50 – yillargacha, qariyb 1100 yil davomida suv sathi kuzatishlari tinimsiz amalga oshirilgan.

Afsuski, hozirgi kunda Nilga nisbatan bir necha marta kichik bo'lgan daryolar, hatto, soylarda qurilgan suv o'lhash inshootlari toshqinlar yoki boshqa sabablar tufayli tez fursatda ishga yaroqsiz holga kelib qoladi. Ahmad Farg'oniy qurgan "Miqyos an-Nil" ish faoliyatining davomliligi bo'yicha dunyoda yagona suv o'lhash qurilmasi hisoblanadi. Shu sohaga tegishli maxsus adabiyotlarda "Miqyos an-Nil" dek uzoq faoliyat ko'rsatgan suv o'lhash qurilmasi qayd etilmagan.

Buyuk britaniyalik gidrolog-olim A.K.Bisvas ma'lumotiga ko'ra, "Miqyos an-Nil" kvadrat shaklidagi quduq ko'rinishida bo'lib, Nil daryosi bilan uchta yer osti suv yo'llari orqali tutashgan. Quduq o'rtasida oq marmar bilan qoplangan sakkiz qirrali ustun

o'rnatilgan. Shu ustunda suv sathini o'lchashga imkon beradigan yirik darajali bo'laklar, ular esa, o'z navbatida, mayda bo'laklarga ajratilgan. Yirik bo'laklar arab tirsak birligiga, ya'ni 54 smga, maydalari esa uning 1/24 qismiga - qirotga yoki 2,25 sm ga teng bo'lgan (1.1-rasm).



1.1-rasm. Nilometrning yuqoridan (a) va yon tomonidan ko'rinishi (b).

Daryolarda suv o'lchash inshootlarini qurishdan oldin ulardagi **suv sathi tebranishlarini**, ya'ni suv sathining mumkin bo'lgan eng yuqori ko'tarilishi hamda eng quyi pasayishlarini aniq hisobga olish zarur. Nil daryosida suv sarfinining yil davomida fasllar bo'yicha o'zgarib turishi natijasida, uning Qohira yaqinidagi suv sathining tebranish amplitudasi qariyb 8-10 metr balandlikdagi ora-liqda o'zgarib turgan. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, "Miqyos an-Nil" ning o'lchov ustunidagi belgilar (katta va kichik bo'laklar) Nil daryosi suvi sathining ana shu o'zgarishlarini hisobga olgan.

Inshootning asosiy qismi bo'lgan quduq Nil daryosi bilan *yer osti* suv yo'llari orqali tutashtirilgan. Ularning soni turli manbalarda turlicha ko'rsatilgan. Masalan, rus olimi A.Muranov ularning soni ikkita, desa, ingliz olimlari – A.Bisvas uchta, G.Xerst esa sonini ko'rsatmay, "suv yo'llari" deb keltiradi.

Yer osti suv yo'llari soni nechta bo'lishidan qat'i nazar, Ahmad Farg'oniy "Miqyos an-Nil" tizimida ulardan foydalanish natijasida suv sathini aniq o'lhashga imkoniyat yaratish bilan bog'liq bo'lgan muhim muammolarni hal etgan. Ulardan birinchisi, inshootni daryo o'zanidan ma'lum masofada qurib, uni qirg'oqlardagi o'pirilish, yemirilishlardan saqlab, uzoq yillar ishlashini ta'minlashdir. Suv yo'llari yordamida alloma tomonidan hal etilgan ikkinchi va shu bilan birga eng asosiy muammo, bu daryodagi suv sathini o'lhashda katta aniqlikka erishishdir.

Har ikki muammo, fikrimizcha, inshoot qudug'ini daryo bilan tutashtiruvchi suv yo'llari uchta bo'lgandagina ijobjiy hal etiladi. Gidrodinamika qonunlariga amal qilinadigan bo'lsa, ularning birinchisi, daryo oqimi yo'nalihsida, qolgan ikkitasi esa unga perpendikulyar holatda ikki yondan keltirilgan bo'lishi kerak. Shu shartga rioya qilinsa, oqim yo'nalihsida bo'yicha keltirilgan yer osti suv yo'lidagi gidrodinamik bosim ( $P_1$ ) qolgan ikkinchi ( $P_2$ ) va uchinchi ( $P_3$ ) yer osti suv yo'llaridagi gidrodinamik bosimlar yig'indisi bilan muvozanatlashadi, ya'ni  $P_1 = P_2 + P_3$  tengligi bajariladi. Natijada quduqdagi suv yuzasi tekis va gorizontal holatda bo'lib, daryodagi suv sathining haqiqiy qiymatini hisobga olishga imkon beradi.

Inshoot tizimidagi yer osti suv yo'llaridan foydalanishning yana bir xosiyati bor. Bilamizki, har qanday suv havzasi - ko'llar, dengizlarda shamol ta'sirida to'lqinlar hosil bo'ladi. Bu jarayon Nil kabi yirik daryolarda ham sezilarli darajada kuzatilib, suv sathini aniq o'lhashga imkon bermaydi. Demak, inshootda bu muammo ham yer osti suv yo'llari yordamida o'z yechimini topgan, boshqacha qilib aytganda, daryodagi suv sathini aniq o'lhashda shamol ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirga butunlay barham berilgan.

Ahmad Farg'oniy yuqorida bayon etilgan holatlarni, ya'ni "Miqyos an-Nil" tizimidagi quduq, uni daryo bilan tutashtiruvchi yer osti suv yo'llari, *o'lchov ustuni* hamda uni santimetrik anqlikdagi bo'laklarga bo'lish bilan Nil daryosida suv sathini juda katta anqlikda o'lhash masalasini ijobjiy hal etgan.

Bundan, qariyb, 1150 yil muqaddam qurilgan inshootning suv

sathini o'lhash aniqligi hozirgi kunda shu soha mutaxassislarini ham lol qoldirmoqda. Masalan, angliyalik gidrolog-olim A.K.Bisvas "Miqyos an-Nil" ning suv sathini o'lhash aniqligiga tan berib, "Bu qurilma Nil daryosi suvi sathini o'ta aniq o'lchagan", deb yozadi.

Hozirgi kunga kelib, suv sathini Ahmad Farg'oniy taklif etgan **santimetr aniqlikdagi o'lhash usuli** dunyo miqyosida keng qo'llaniladi. Jahon Meteorologiya Tashkiloti (JMT) ga a'zo bo'lgan barcha davlatlarda daryolar, ko'llar, suv omborlari, hatto, dengizlar va okeanlarning suv sathlari ham shu aniqlikda o'lchanadi. Jahon suv o'lhash amaliyotida qo'llanilayotgan maxsus o'lchov qurilmalarining barchasi "Miqyos an-Nil"dagi kabi santimetr aniqlikdagi bo'laklarga bo'lingan (2.2-rasm).

O'rni kelganda shuni ham ta'kidlash lozimki, daryolardagi suv sathini aniq o'lhashda buyuk alloma – Ahmad Farg'oniy taklif etgan yer osti suv yo'llaridan foydalanish usuli ham hozirgi kunda jahon suv o'lhash amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Masalan, daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallarda suv sathini o'zi o'lchab, yozib boradigan "Valday" yoki okean va dengizlar suv sathlarini o'lhashga mo'ljallangan "Rordansa" tipidagi qurilmalar "Miqyos an-Nil"dan andoza olgan va u kabi ishlaydi. Faqat hozirgi zamon qurilmalarida yer osti suv yo'llari yagona bo'lib, ular daryolar, kanallarda oqim yo'nalishiga perpendikulyar holatda o'tkaziladi.

**Suv o'lhash ishlari tarixiga oid qo'shimcha ma'lumotlar.** Suv obyektlarini kuzatish, ularni miqdoriy baholash masalalariga oid ma'lumotlar al-Xorazmiy (783-850), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Nosir Xisrav (XI asrning birinchi yarmi), Mahmud Qoshg'ariy (XI asrning ikkinchi yarmi), Muhammad Najib Bakron (XII asrning ikkinchi yarmi) – XIII asrning boshlari), Hofizi Abru (1362-1431), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530), Muhammad Haydar Mirzo (1499 yilda tug'ilgan), Said Muhammad Tohir (XVII), Abulg'oziyxon (XVII), Munis Xorazmiy (1778-1829), Ahmad Donish (1827-1897) kabilarning asarlarida ko'plab uchraydi.

O'rta Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston daryolarida doimiy gidrometrik kuzatishlar XIX asrning oxirlarida boshlangan.

Masalan, Qoradaryoda, Kuyganyor ko‘prigida 1883-yildan, Sirdaryoda, Xo‘jand yaqinida 1895-yildan, Norin daryosida, Uchqo‘rg‘on yaqinida 1896-yildan, Chirchiq daryosida, Chimboyliq yaqinida 1900-yildan, Chinoz yaqinida 1902-yildan boshlangan.

Mamlakatimiz hududida 20-asrning boshlarida daryolar, ko‘llarda amalga oshirilgan suv o‘lhash ishlari 1910-yilda tashkil etilgan Turkiston Yer holatini yaxshilash bo‘limi tarkibidagi Gidrometrik qism faoliyati bilan bog‘liqdir.

Turkiston o‘lkasida 1916-yilga kelib, Gidrometrik qismga qarashli 14 ta doimiy va 3 ta vaqtinchalik gidrologik stansiya, 110 ta gidrometrik post faoliyat ko‘rsatgan. Gidrometrik postlarning 47 tasida suv sarfi o‘lhab borilgan. Ma’lum tarixiy voqealar (oktabr to‘ntarishi) bilan bog‘liq holda, 1919-1923-yillarda ularning soni 55 tagacha kamaydi, suv sarfi esa ularning 16 tasida o‘lhab borildi.

Gidrometrik tarmoqlar 1923-yildan boshlab yana jadal sur’atlarda rivojlana boshladi. Oradan 10-15 yil o‘tib, aniqrog‘i 1936-yilda O‘rta Osiyo respublikalari hududida 460 ta gidrometrik postlar faoliyat ko‘rsatgan. Ularning 339 tasida suv sarflari o‘lchangan. Gidrometrik postlar soni II jahon urushi (1941-1945) yillarda yana kamaygan. Urushdan keyingi 1950-1985-yillarda suv o‘lhash postlari soni ortib borgan (1.1-jadval).

**Suv o‘lhash tarmoqlari mustaqillik yillarda.** Respublikamiz mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda gidrometeorologiya xizmati faoliyatini yaxshilashga alohida e’tibor qaratildi. Uni takomillashtirish bo‘yicha Respublika hukumatining maxsus qarorlari qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Ittifoq ahamiyatidagi davlat korxonalari, muassasalarini va tashkilotlarini O‘zbekiston Respublikasi yurisdekteysiaga o‘tkazish haqida” 1991-yil 22-iyulda qabul qilgan qarori bu boradagi birinchi rasmiy hujjat hisoblanadi. Uning mantiqiy davomi sifatida, respublika xalq xo‘jaligini gidrometeorologik ta’minlashni yaxshilash maqsadida, 1992-yil 9-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston Respublikasida Gidrometeorologiya xizmati haqida” №110-sonli qaror qabul qildi. Unga

muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya boshqarmasi (O'zgidromet) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya Bosh Boshqarmasi (Boshgidromet)ga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida Gidrometeorologiya xizmatini takomillashtirish haqida" gi №183-sonli qarori 2004-yil 14-aprelda qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 2004-yil 20-apreldan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya Bosh Boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet) deb nomlanadigan bo'ldi. Uning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatning Gidrometeorologiya boshqarmalari faoliyat ko'rsatadi. O'zgidromet tarkibidagi suv kadastri va meteorologik o'lchovlar boshqarmasi respublika hududida joylashgan gidrometrik stansiyalar va postlar faoliyatini boshqaradi.

Sobiq Ittifoqda boshlangan "qayta qurish" jarayonlari O'zbekiston hududidagi gidrometeorologik kuzatishlarga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Oqibatda gidrometrik postlar soni 1995-yilga kelib, 119 taga tushib qoldi. Mustaqillik yillarda, tezda ko'rilgan chora tadbirlar natijasida, ularning soni, nafaqat barqarorlashdi, balki orta boshladi. Bu jarayonni qo'shni davlatlar bilan solishtirsak, ijobiy holatni, ya'ni mamlakatimizda postlar soni orta boshlaganligining guvohi bo'lamiz (1.1-jadval).

### **1.1-jadval**

O'zbekistonda daryo gidrometrik postlari sonining yillar bo'yicha o'zgarishi (V.E.Chub ma'lumotlari bo'yicha, 2007)

Ma'muriy hududlar	Yillarga mos keladigan kuzatish punktlari soni			
	1975-y.	1985-y.	1995-y.	2005-y
O'zbekiston	145	155	119	130
O'rta Osiyo respublikalari	455	559	399	277

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda gidrologik postlarni zamonaviy qurilmalar bilan jihozlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Masalan, Shvetsariyaning Gidrologiya va Geologiya xizmati ishtirokida 1998-2000-yillarda respublikamizdagi 3 ta gidrologik postda suv sathi va haroratini o‘lchab, sun’iy yo‘ldoshlarga uzatadigan, kuzatish ma’lumotlarini yozib boradigan qurilmalar o‘rnatildi. Shuningdek, ushbu tashkilot tomonidan Germaniyaning “SEBA” firmasida tayyorlangan gidrometrik parrak va gidrometrik lebyodka O‘zgidromet ixtiyoriga topshirildi. Sirdaryoning Chinoz shahri yaqinidagi gidrologik postda esa suv sathini ultratovush usulida o‘lchaydigan qurilma hamda suv sifatini aniqlash stansiyasi o‘rnatildi.

**Gidrometriyaga oid o‘quv adabiyotlari haqida.** Suv o‘lchash ishlari tajribalarini umumlashtirish, tizimlashtirish va shu asosda talabalar uchun gidrometriyadan o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bu borada o‘tgan XX asrning birinchi choragida S.I.Kolupaylo (Moskva, 1918), A.I.Krilov (Qozon, 1918), V.N.Vladichanskiy (Toshkent, 1924) kabilar tomonidan yaratilgan o‘quv adabiyotlari diqqatga sazovordir. Ulardan biroz keyinroq chop etilgan gidrometriyaga oid o‘quv qo‘llanmalari B.A.Appolov va M.A.Lukashin (Tiflis, 1932), O.S.Shestopal (Moskva, 1933), M.M.Basin (Moskva, 1936), N.A.Girillovich (Moskva, 1937), A.V.Ogiyevskiy (Moskva, 1937), E.I.Ioganson va V.E.Ioganson (Moskva-Leningrad, 1947), V.D.Bikov (Leningrad, 1949), N.A.Solomensev (Leningrad, 1957) va boshqalar tomonidan tayyorlangan.

O‘quv adabiyotlari orasida A.A.Luchsheva (Leningrad, 1954, 1972), tomonidan tayyorlangan darslik talabalarning gidrometriyadan amaliy mashg‘ulotlarni bajarishlarida, V.V.Lebedevning (Leningrad, 1955) o‘quv qo‘llanmasi gidrometriyadan masalalar yechishlarida, A.R.Rasulovning “Gidrometriyadan metodik ko‘rsatmalar”i (Toshkent, 1980) esa shu fan bo‘yicha kurs ishlarini bajarishlarida katta qulaylik yaratadi. Shuningdek, 70-yillardan boshlab, V.D.Bikov va A.V.Vasilyev (Leningrad, 1972, 1977), G.V.Jeleznyakov (Leningrad, 1976,), I.F.Karasev (Leningrad, 1980), I.F.Karasev va

I.G.Shumkov (Leningrad, 1985), I.F.Karasev, A.V.Vasilyev, E.S.Subbotina (Leningrad, 1991) va boshqalarning gidrometriyadan takomillashgan o‘quv qo‘llanmalarini, darsliklari chop etildi. Shu yillarda gidrometriyaning yangi sohalari, jumladan, irrigatsiya tizimlari gidrometriyasi (I.B.Xamadov va M.V.Butirin, Moskva, 1972), daryolar aerogidrometriyasiga (I.G.Shumkov, Leningrad, 1982) bag‘ishlangan o‘quv adabiyotlari ham chop etildi.

Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan, gidrometriyadan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘zbek tilida ilk bor yaratilgan o‘quv adabiyotlari orasida F.H.Hikmatov, G‘.X.Yunusovning “Gidrometriya. Ma’ruzalar matni” (Toshkent, 2000), G‘.X.Yunusovning “Gidrometriyadan amaliy mashg‘ulotlar” (Toshkent, 2002), A.Akbarov, D.Nazaraliyev, F.Hikmatovning “Gidrometriya” (Toshkent, 2008) kabi o‘quv qo‘llanmalarini qayd etib o‘tish o‘rinlidir. Respublikamizdagi o‘rta-maxsus kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun F.H.Hikmatov, D.P.Aytbayev va G‘.X.Yunusovlar tomonidan “Gidrologiya va gidrometriya” (Toshkent, 2006) o‘quv qo‘llanmasi yaratildi.

Hozirgi kunda respublikamizda Toshkent Gidrometeorologiya kasb-hunar kolleji, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida gidrometeorologiya va hidrologiya yo‘nalishlari, Toshkent Irrigatsiya va melioratsiya institutida hidrologiya va unga turdosh yo‘nalishlar, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti hamda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universitetlarida gidrometeorologiya bakalavrлari tayyorlanmoqda. Ushbu yo‘nalishlarning barchasida “Gidrometriya” alohida fan sifatida o‘qitiladi.

Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida “Gidrometeorologiya (faoliyat turi bo‘yicha)”, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universitetida esa “Hidrologiya (o‘rganish obyektlari bo‘yicha)” magistratura mutaxassisliklari faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur magistratura mutaxassisliklarida, Davlat ta’lim standartlari va Namunaviy o‘quv rejalariiga muvofiq, “Nazariy va amaliy hidrometriya” fani o‘qitiladi.

### **1.3. Gidrometriyaning tadqiqot usullari**

Daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv havzalarida suv o'lhash hamda kuzatish ishlarini amalga oshirishda gidrometriyada quyidagi uchta tadqiqot usulidan foydalaniladi:

- ***muntazam kuzatish usuli, ya'ni statsionar usul;***
- ***qisqa muddatli dala tadqiqotlari, ya'ni ekspeditsiya usuli;***
- ***tajriba-laboratoriya usuli.***

Gidrometriyada qo'llaniladigan ***muntazam kuzatish, ya'ni statsionar usulda*** daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar kabi suv obyektlarining gidrologik rejimi elementlari ko'p yillar davomida kunning ma'lum belgilangan soatlarda muntazam ravishda kuzatib, o'lchab boriladi.

Suv obyektlarining gidrologik rejimi tabiiy geografik omillar, birinchi navbatda, iqlimi omillar ta'sirida bo'lib, suv sathi, suv sarfi, harorati, ulardagi muzlash hodisalari, erigan moddalar hamda loyqa oqiziqlar oqimi va boshqa elementlarning kunlik, mavsumiy, yillik va ko'p yillik o'zgarishlarida namoyon bo'ladi.

Suv obyektlarida statsionar usulda amalga oshiriladigan kuzatish va o'lhash ishlari gidrologiya turkumidagi fanlar nazariyasi va amaliyoti ehtiyojlarini hisobga olib, mutaxassislar tomonidan maxsus ishlab chiqilgan yagona dastur asosida, tegishli ko'rsatmalar va qo'llanmalarga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Mamlakatimiz sarhadlaridagi daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar va boshqa suv obyektlarida bunday ishlarni amalga oshirish, asosan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi – O'zgidromet zimmasiga yuklatilgan. Shu maqsadda O'zgidromet tizimida maxsus gidrologik postlar va stansiyalar faoliyat ko'rsatadi.

Bu usuldagisi, ya'ni suv rejimi elementlarini muntazam kuzatish ishlari, ba'zan, tegishli vazirliklar, masalan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va boshqa tarmoq muassasalariga qarashli gidrologik postlarda ham bajarilishi mumkin.

Ma'lum bir sharoitlarda, nisbatan kam o'r ganilgan yoki umuman o'r ganilmagan soylar, kichik daryolar, ko'llar va boshqa

suv obyektlari, to‘g‘ridan to‘g‘ri dala sharoitida, aniq bir maqsadni ko‘zlab, *ekspeditsiya usulida* o‘rganiladi. Bu usulda bajarilishi zarur bo‘lgan suv o‘lhash va kuzatish ishlari majmui, ekspeditsiya oldiga qo‘yiladigan vazifalarga bog‘liq holda, oldindan tuzilgan dasturda batafsil qayd etilgan bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, ekspeditsiya usulida hudud bo‘yicha keng miqyosda o‘zgaruvchi, lekin ma’lum vaqt davomida kam o‘zgaradigan gidrologik hodisa va jarayonlar tadqiq qilinadi.

Ekspeditsiya usulida o‘rganilayotgan suv obyektida o‘lhash va kuzatish ishlari nisbatan qisqa muddat, aniqrog‘i, bir necha oydan to bir-ikki va, ba’zan, undan ham ko‘p yillar davomida olib boriladi. Shu maqsadda vaqtinchalik faoliyat ko‘rsatadigan suv o‘lhash postlari tashkil etiladi. Bunday tadbirlar o‘rganilayotgan suv obyekti haqida zarur gidrologik ma’lumotlarni to‘plashga imkon beradi.

Respublikamizda har yili o‘zining ma’lum maqsadi va vazifalariga ega bo‘lgan maxsus ekspeditsiyalar tashkil etiladi. Ularning aksariyat qismi O‘zgidromet, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Fanlar Akademiyasi va suv resurslaridan foydalanuvchi boshqa tashkilotlar hamda muassasalar tasarrufida faoliyat ko‘rsatadi.

*Tajriba-laboratoriya usuli* suv rejimining tabiiy va kimyoiy xususiyatlarini aniqlash, ularda kechadigan hidrodinamik jarayonlar va boshqa hodisalarini modellashtirish sharoitida o‘rganish imkonini beradi. Shu maqsaddagi tajribalar loyihalash va boshqa turdagи ilmiy tadqiqot institutlarida, maxsus o‘lchov-kuzatuv uskunalarini va qurilmalari bilan jihozlangan laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Suv rejimi elementlarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan bu usul suv obyektlarida qurilishi rejalashtirilayotgan gidroelektrostansiyalar, to‘g‘onlar, suv omborlari, kanallar va boshqa turdagи hidrotexnik inshootlarni loyihalashda keng qo‘llaniladi. Mazkur inshootlarni ekspluatatsiya qilish, ya’ni ularni ishlatishda kerak bo‘ladigan suv rejimi ko‘rsatkichlarini aniqlashda va bu sharoitda kechishi mumkin bo‘lgan hidrologik hodisalarini oldindan baholashda ham tajriba-laboratoriya usuli qo‘l keladi.

## **1.4. Gidrometriyaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati**

Avvalgi mavzulardan ma’lum bo‘ldiki, gidrometriyaning asosiy vazifasi suv obyektlarida kuzatish va o‘lchash ishlarni tashkil etish, shu ishlarni amalga oshirish jarayonida to‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlash, umumlashtirish hamda bu jarayonlarni uslubiy ta’minlash va ular bilan bog‘liq bo‘lgan hisoblash usullarini takomillashtirishdan iboratdir.

Suv obyektlarida qurilgan gidrometrik stansiyalar va postlarda amalga oshirilgan suv o‘lchash va kuzatish ishlari natijasida to‘plangan ma’lumotlar gidrologiya fanining oltin fondi hisoblanadi. O‘z navbatida, ular nazariy va amaliy gidrometriya, muhandislik gidrologiyasi (gidrologik hisoblashlar va prognozlar) kabi fanlarning rivojlanishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, gidrometrik, ya’ni suv o‘lchash ma’lumotlarisiz biron bir gidrotexnik yoki suv xo‘jaligi inshootlarini loyihalash, qurish, ulardan oqilona foydalanish ishlarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham gidrologiya sohasi mutaxassislari o‘zlarining ish faoliyatida suv obyektlarida uzoq yillar davomida amalga oshirilgan suv sathi, suv sarfi, harorat rejimi, muzlash hodisalari, loyqa oqiziqlar oqimi va o‘zan jarayonlaridagi o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlarni to‘playdilar. To‘plangan suv o‘lchash ma’lumotlari bazasini birlamchi qayta ishlab, tahlil qiladi va amaliyot uchun tegishli xulosalar chiqaradi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda suv obyektlarida o‘lchash va kuzatish ishlarni amalga oshirish, ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, umumlashtirish va zarur bo‘lganda ularni iste’molchilarga yetkazib berish jarayoni to‘laligacha komp’yuter texnologiyalarini qo’llashga asoslangan. Bu tartibdagisi faoliyat bosqichlari mamlakatimizda suv o‘lchash va kuzatish ishlariga mas’ul bo‘lgan O‘zgidrometga ham tegishlidir.

Gidrometriya juda qadim zamонлардан бoshlab, to shu kunga qadar insoniyat xizmatida bo‘lib, uning talablari bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Bu haqda ingliz olimi A.K.Bisvasning “Человек и вода. Из истории гидрологии” (Leningrad, 1975), o‘zbek olimlari Ya.G‘.G‘ulomovning “История орошения

Хорезма с древнейших времен до наших дней” (Toshkent, 1957), Н.Н.Hasanovning “Sayyoh olimlar” (Toshkent, 1981), A.R.Muhammadjonovning “Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi” (Toshkent, 1972) va “O‘zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari” (Toshkent, 1997), F.H.Hikmatov, Sh.Sh.Shojalilov, D.P.Aytbaev va B.E.Adenbayevlarning “O‘rta Osiyo suv ilmi tarixidan” (Toshkent, 2008), A.Nizomovning “O‘zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasi” (Toshkent, 2008), rus olimlari B.D.Zaykovning “Очерки гидрологических исследований...” (Ленинград, 1973), O.A.Spenglerning “Слово о воде” (Ленинград, 1980) каби асарларida aniq ma’lumotlarni uchratamiz.

Yuqorida sanab o‘tilgan manbalarda o‘lkamizda qadimdan daryolarda suv sathini o‘lhash ishlari bajarilganligi haqida ko‘plab ma’lumotlar keltiriladi. Ulardan biri X asrning ikkinchi yarmida yashagan arab olimi va sayyohi Abu Abdulloh Muhammad al-Muqaddasiyning 985-yilda yozib tugallagan "Iqlimlarni o‘rganishda eng yaxshi qo‘llanma" asarida qayd etilgan. Olim ushbu asarida, o‘zining Movarounnahr bo‘ylab sayohati davomida, Murg‘ob daryosiga qurilgan to‘g‘on yaqinida suv sathini o‘lhash maqsadida o‘rnatilgan yog‘och taxtadan yasalgan qurilmani ko‘rganligini yozadi va unga quyidagicha tavsif beradi. Qurilmaning asosiy suv o‘lchagich qismi hisoblanmish tik o‘rnatilgan taxta aniq bo‘laklarga bo‘lingan bo‘lib, har birining qiymati hozirgi o‘lchov birligida 2,0-2,5 sm ga yaqin bo‘lgan.

Shu bilan birga, al-Muqaddasiy o‘z asarida daryoda suv sathini o‘lchab borishning amaliy ahamiyati haqida ham to‘xtaladi. Uning yozishicha, o‘lchov qurilmasidan foydalanuvchilar sug‘oriladigan yerlardagi ekinlar hosildorligi bilan daryodagi suv sathining o‘lchov taxtasidagi ko‘tarilishlari orasida bog‘lanish mavjudligini bilganlar. Masalan, to‘lin suv davrida daryodagi suv sathi o‘lchov taxtachasida 60 darajotga ko‘tarilsa, hosil mo‘l bo‘lishini, 6 darajotgacha ko‘tarilganda esa, aksincha, daryoda suv kam bo‘lib, hosildorlik ham past bo‘lishi va shu tufayli ocharchilik xavf solishi kutilgan.

Shu narsa aniqki, yuqoridagi kabi suv o‘lhash ishlari al-Muqaddasiyining Movarounnahrga sayohati davridan, ya’ni X asrdan bir necha yuz yillar oldin boshlangan. Demak, ushbu dalillar ajdodlarimizning o‘sha davrlardayoq daryolardagi suv miqdorini aniqlash va shunga bog‘liq holda bo‘lajak hosilni bashorat qilish maqsadida maxsus suv o‘lhash ishlarini amalga oshirganliklaridan dalolat beradi. Bu fikrlarimizni Ahmad Farg‘oniyning oldingi mavzuda bayon etilgan “Nilometr”ni barpo etish bilan bog‘liq faoliyati ham isbotlaydi.

Ta’kidlash lozimki, Ahmad Farg‘oniy daryolar suvidan oqilona foydalanishda ulardagi suv sathini o‘lchab borish ko‘plab hayotiy muammolarni hal etishga imkon berishini to‘la tasavvur etgan. Shu tufayli alloma “Nilometr”ni bunyod etish bilan cheklanib qolmagan. Ahmad Farg‘oniy, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Nil daryosi suvi sathini o‘lchaydigan bu noyob inshootdan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun maxsus qo‘llanma – "Miqyosi jadid"ni ishlab chiqqan.

Ahmad Farg‘oniy "Miqyosi jadid" yordamida hal etib bergen, asosiy va o‘ta hayotiy muammolardan yana biri Nil daryosida suv sathining o‘zgarishi, ya’ni "Nilometr - Miqyos an-Nil" dan olingen hisob bilan hosildorlik orasidagi bog‘lanishni aniqlaganligidir. Shu yerda arab sayyoh-olimi al-Muqaddasiyining yuqorida keltirilgan, ya’ni uning Turonzaminga sayohati davrida bu yerdagi daryolarda bajarilayotgan suv o‘lhash ishlari haqidagi taassurotlarini eslash kifoya. Demak, qadimdan yurtimizda qo‘llangan suv o‘lhash usuli endi Nil daryosida, aniqrog‘i Misrda Ahmad Farg‘oniy tomonidan tatbiq etilgan.

Ahmad Farg‘oniy o‘z hisobiga ko‘ra Nil daryosida suv sathi 16 tirsakkacha ko‘tarilganda hosil mo‘l-ko‘l, 15 tirsakkacha - yaxshi, 14 tirsakkacha - o‘rtacha, 13 tirsakda - yomon va, nihoyat, 12 tirsakda daryoda suv kam bo‘lishini va bu holat, Misr xalqiga ocharchilik xavf solishi mumkinligini aniqlagan.

Nil daryosida suv sathi ko‘tarilishining ham chegarasi bo‘lgan. Masalan, "Miqyos an-Nil"ning o‘lchov ustunida suv sathining 17 tirsak - hozirgi hisob bo‘yicha 9 metrdan yuqori bo‘lishi, Nil daryosi sohillaridagi ko‘p joylarni suv bosishiga olib kelishi, oqibatda bu holat hosildorlikka ham o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatishi hisobga olingen.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, "Miqyos an-Nil" qurilgunga qadar Misr soliq tizimida nohaqliklar hukm surib kelgan. Ahmad Farg'onyi esa Nil daryosining "Miqyos an-Nil" bo'yicha aniqlangan suv sathi bilan ekinlar hosildorligi orasidagi bog'lanishni obyektiv baholab, misrlik dehqonlardan olinadiganadolatli soliq tizimini ishlab chiqqan va bu sohadagi nohaqliklarga barham bergen. Shu tufayli, misrlik olimlar "Ahmad Farg'onyi "Miqyos an-Nil" ni qurish bilan XII asrdan buyon faoliyat ko'rsatayotganadolat tarozusini o'rnatib ketgan", degan fikrni minnatdorlik tuyg'usi bilan izhor etadi.

Yuqorida keltirilgan misollar gidrometriya tarixida juda muhim hisoblanib, qadimdan daryolar, ko'llar va suv omborlarida amalga oshirilgan suv o'lhash ishlarining inson hayotida muhim bo'lganligining guvohidir.

Hozirgi kunda gidrometriyaning inson hayot faoliyatidagi ahamiyati yanada ortgan. Insoniyatning hozirgi rivojlanish bosqichida xalq xo'jaligining suv o'lhash ishlari bilan bog'liq bo'lman sohasining o'zi yo'q. Fikrimizning isboti sifatida xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari bo'lgan qishloq xo'jaligi, unda amalga oshiriladigan irrigatsiya va melioratsiya tadbirdi, gidroenergetika, suv transporti (kemalar qatnovi, yog'och oqizish), yo'1 qurilishi va ko'priksozlik, ichimlik suv ta'minoti, kimyo, metallurgiya va yengil sanoat korxonalar, baliqchilik hamda boshqa ko'plab sohalarni misol qilib keltirish mumkin.

Qishloq xo'jaligi va sanoatda suvning o'rmini hech narsa bosa olmaydi. Masalan, bug'doydan olinadigan hosilning har bir tonnasi uchun 1500 tonna, 1 t sholi uchun 4000 t, 1 t paxta tolasini yetishtirish uchun 10000 tonnagacha suv talab etiladi. Metallurgiya sanoatida 1 t po'lat ishlab chiqarish uchun 250-300 t, kimyo sanoatida 1 t sintetik tola ishlab chiqarish jarayonida 4000 t gacha suv talab etiladi. Yoki to'qimachilik sanoatida 1 t ip gazlama tayyorlash uchun 10 t suv sarflansa, ba'zi sintetik tolalardan 1 t gazlama tayyorlash uchun 3000 t suv talab etiladi.

Xalq xo'jaligining yuqorida qayd etilgan sohalarida suvga bo'lgan ehtiyojni talab darajasida qondirish masalalari gidrometriya fani usullari asosida o'z yechimini topadi. Ayni

paytda suv resurslarini boshqarish, ulardan samarli foydalanishni ko‘zda tutadigan suv o‘lchash va kuzatish ishlari ham shu fan yutuqlari zaminida yanada takomillashib boradi. Bularning barchasi gidrometriya fanining inson hayotidagi va xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

### *Sinov savollari va topshiriqlar:*

1. *Gidrometriya fanining maqsadi va vazifalarini bilasizmi?*
2. *Gidrometriya fanining tadqiqot obyekti va predmetini eslang.*
3. *Gidrometriya fani o‘zi o‘rganadigan suv obyektlariga bog‘liq holda qanday qismlarga bo‘linadi?*
4. *Gidrometriyaning shakllanish va rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?*
5. *Qadimgi suv o‘lchash inshootlari qayerlarda qurilgan?*
6. *Nilometrni kim qurgan?*
7. *Nilometrning o‘lchash aniqligini bilasizmi?*
8. *Hozirgi zamон gidrometriyasida qo‘llaniladigan suv o‘lchash qurilmalarining qaysilari nilometrdan andoza olgan?*
9. *Gidrometriyaning tadqiqot usullarini aytib bering.*
10. *Doimiy-statsionar kuzatish usuli qachon qo‘llaniladi?*
11. *Qisqa muddatli dala-tadqiqot (ekspeditsiya) usulini qo‘llash sharoitlarini bilasizmi?*
12. *Tajriba-laboratoriya usulining mohiyatini eslang.*
13. *Suv o‘lchash ishlarining asosiy tarkibiy qismlarini eslang.*
14. *Gidrometrik ma'lumotlarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatiga misollar keltiring.*
15. *O‘zbekiston sharoitida suv o‘lchash ishlari qanday ahamiyatga ega?*

## **2-BOB. SUV O'LCHASH POSTLARINI TASHKIL ETISH, ULARDA KUZATISHLARNI AMALGA OSHIRISH**


Mazkur bobdag'i mavzularda gidrometriyaning quyidagi masalalari yoritiladi: gidrometeorologik stansiyalar va postlar, gidrometeorologik stansiyalar va postlar tarmog'ini tashkil etish (2.1-rasm), gidrologik kuzatish tarmoqlari tizimi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi (O'zgidromet) va uning asosiy vazifalari, gidrometeorologik stansiyalar va postlar tarmog'ini joylashtirishning asosiy prinsiplari, gidrometeorologik tarmoqlar tasnifi, suv sathi va uni kuzatish, suv sathini kuzatishning mohiyati, suv sathi rejimi haqida umumiy ma'lumotlar, suv sathini kuzatish postlari tuzilishining asosiy prinsiplari va ulardagi balandlik hamda hisob tizimlari, suv o'lhash postlarining turlari, ularning tuzilishi, oddiy va uzatma suv o'lhash postlari, suv o'lhash postlarida maksimal (eng baland) va minimal (eng past) suv sathlarini kuzatish, ularning aniqligini oshirishga mo'ljallangan asbob-uskunalar va qurilmalar, o'ziyozar suv o'lhash postlari, «Valday» tipidagi o'ziyozar qurilmalarning tuzilishi va ishlash tamoyili, o'ziyozar suv o'lhash postlarini o'rnatish usullari, masofaga uzatuvchi (distantsion) suv o'lhash postlari, nishablik postlari va boshqalar.

### **2.1. Suv o'lhash postlarining turlari**

Suv sathining o'zgarishi har bir daryo, kanal, ko'l va suv omborida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Shunga mos ravishda suv o'lhash postlari ham turlichadir. Suv o'lhash postlari, konstruksiyasiga bog'liq holda, quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) oddiy suv o'lhash postlari;*
- 2) uzatma suv o'lhash postlari;*
- 3) o'zi yozib boruvchi suv o'lhash postlari;*
- 4) nishablik suv o'lhash postlari;*
- 5) uzoq masofaga uzatib beruvchi suv o'lhash postlari.*

Quyida ularning har biri ustida alohida to'xtalib o'tamiz.



2.1-rasm. Gidrometeorologik stansiyalar va postlarning faoliyat sohasi bo'yicha turlari va bo'limishi (gidrometeorologik tarmoqlar tasnifi).


### **2.1.1. Oddiy suv o'lhash postlari**

Oddiy suv o'lhash postlari eng ko'p tarqalgan postlardan hisoblanadi. Bu tipdagi postlarda kuzatishlarni amalga oshirish ancha qulay va iqtisodiy nuqtayi nazardan tejamlidir. Ularni suv sathining tebranishi keskin bo'lmasa suv obyektlarida qurish tavsiya etiladi.


Oddiy suv o'lhash postlarining quyidagi turlari mavjud (2.2-rasm):

- *reykali suv o'lhash postlari;*
- *qoziqli suv o'lhash postlari;*
- *aralash suv o'lhash postlari.*

**Reykali suv o'lhash postlari.** Suv sathining yillik tebranish amplitudasi 2-3 metrdan katta bo'lmasa, reykali suv o'lhash postlarini o'rnatish qulaydir (2.2-rasm). Reykali postlar uchun qurilmalarni tayyorlashda yog'och, metall yoki temir-beton materiallaridan foydalilaniladi. Reykalarning uzunligi 1; 1,5; 2 m, eni 16 sm, qalinligi 3-8 sm bo'ladi. Reykali postlarda reykalar vertikal holda yoki qiya burchak ostida o'rnatilishi mumkin.




2.2-rasm. Suv o'lhash taxtachalari (reykalari): a) yog'ochdan; b) metalldan; c) cho'yandan, d) standart ko'chma suv o'lhash reykasi.



2.3-rasm. Muz bilan qoplangan va qiya burchak ostida o'matilgan reykali suv o'lhash posti sxemasi: 1-toshli poydevor; 2-metall qotirgichlar; 3-suv o'lhash taxtachasi; 4-shag'al qoplama; 5-beton qoplama.

**Qoziqli suv o'lhash postlari.** Agar suv sathining yillik tebranish amplitudasi nisbatan katta, ya'ni 8-10 metr oralig'ida bo'lsa, qoziqli suv o'lhash postlarini qurish tavsiya etiladi (2.4-rasm). Bunday postlar nishabligi kam bo'lgan daryolarda, ko'llarda va suv omborlarida keng tarqalgan. Har bir postdagi qoziqlar soni shunday tanlanadiki, ular orasidagi balandlik farqi 80 sm dan oshmasligi kerak. Ular orasidagi masofa esa kuzatish olib borish qulayligini hisobga olib belgilanadi.



2.4-rasm. Qoziqli suv o'lhash postining sxemasi: YuSS – yugori (maksimal) suv sathi; IS - ishchi suv sathi; QSS – quyi (minimal) suv sathi.

Hozirgi kunda qoziqli suv o'lhash postlarida standart tipdagi suv o'lhash reykalaridan foydalanib kelinmoqda. Reykaning umumiy uzunligi 115 sm bo'lib, shundan 15 sm uzunlikdagi qismi reykaning dastasi hisoblanadi (diametr – 1,0 sm.). Qolgan 1 metrli qismi asosiy bo'lib, qoziq ustiga o'rnatiladi, sanoq olishga mo'ljallangan bo'ladi (2.2-rasm (d)).

**Aralash suv o'lhash postlari.** Ba'zi hollarda shunday sharoitlar bo'ladiki, bunda bir vaqtning o'zida ham reykali, ham qoziqli postlarni tashkil etishga to'g'ri keladi. Bunday postlar aralash suv o'lhash postlari deb ataladi. Aralash suv o'lhash postlari daryo uchastkasida qirg'oqlari qiyalikning keskin o'zgargan qismida o'rnatilishi mumkin. Bunda keskin qiya qirg'oqda reykadan, nisbatan to'g'ri qismida esa qoziqlardan foydalaniladi.



2.5-rasm. Ugom daryosidagi suv o'lhash posti.

### **2.1.2. Uzatma suv o'lhash postlari**

Uzatma suv o'lhash postlari daryo qirg'og'i murakkab relyefli va shu tufayli oddiy suv o'lhash postlarini qurish mumkin bo'limgan hollarda tashkil etiladi.

Uzatma suv o'lhash postlari quyidagi ikki turga bo'linadi:


- *ko'priklı suv o'lhash postlari;*
- *trosli suv o'lhash postlari.*

**Ko‘prikli suv o‘lchash postlari** – daryo uchastkasining ko‘prikli joyida tashkil etiladi. Ko‘prikda doimiy boshlang‘ich nuqta (DBN) belgilanib, u “0” kuzatish tekisligi sifatida mahkamlanadi. Uning balandligi ko‘prikka yaqin reperga nisbatan nivelirlash natijalari orqali aniqlanadi. Suv sathini aniqlash uchun g‘altakka o‘ralgan tros yoki temir lentadan foydalaniladi. Ko‘prikli suv o‘lchash postlarida suv sathining o‘zgarishi tanlangan “0” kuzatish tekisligi va undan pastda joylashgan suv yuzasi sathi orasidagi balandliklar farqiga nisbatan baholanadi.


Bunday postlarni qurish va ularda kuzatish ishlarini olib borish juda qulay va iqtisodiy jihatdan tejamlidir.

**Trosli suv o‘lchash postlari** – daryoning qirg‘og‘i juda tik va daryo uchastkasida gidrotexnik inshootlar (ko‘prik) bo‘lmagan tog‘ daryolarida quriladi (2.6-rasm).


Trosli suv o‘lchash postining asosiy qismi bo‘lgan o‘q – “0” kuzatish tekisligi vazifasini bajaradi. U yog‘ochdan (dub, sosna) yoki quvurdan (truba) yasalgan bo‘ladi. O‘q qirg‘oqqa qoziqlar yordamida mahkamlanib, unga qirg‘oqda 1 metr uzunlikdagi suv o‘lchash reyksi gorizontal holatda o‘rnataliladi. Reykaning “0” sanog‘i o‘q tomonida joylashadi. Postda tros g‘altakka o‘ralib, reykaning oxiriga o‘rnataladi. Uning uchiga og‘irligi 2-5 kg bo‘lgan yuk osiladi. Reykadan olingan sanoqdan suv sathini topish uchun postda olingan natijalar tarirovka qilinadi.



2.6-rasm. Trosli uzatma suv o‘lchash postining sxemasi:  
1-qoziq; 2-reyka; 3-uzatma; 4-blok; 5-tros; 6-yuk; 7-aylantirgich.



2.7-rasm. Qirg'oq tipidagi uzoq masofaga uzatib beruvchi suv o'lhash posti, chapda – o'rnatilish sxemasi, o'ngdagi – fotosuratlari.



2.8-rasm. Orol tipidagi uzoq masofaga uzatib beruvchi suv o'lhash posti.

### 2.1.3. O'ziyozar suv o'lhash postlari

O'ziyozar suv o'lhash postlari – samopisetslar daryo suvi sathining kunlik tebranishi keskin va katta bo'lgan hollarda o'rnatiladi. Ulardan kuzatish ishlarini amalga oshirish qiyin bo'lgan joylarda foydalanish ham maqbuldir.

O'ziyozar suv o'lhash postlarida suv sathining tebranishi maxsus lentalarga yozib boriladi. Lentalar 12 yoki 24 soatga, bazuhan 16 sutkaga, 1 oyga va 3 oygacha yozishsga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bunday postlarda asosiy asbob samopisets – o'zi-

yozardir. Uning turlari ko‘p bo‘lib, asosan, «Valday» tipidagi o‘ziyozar qurilmalar keng tarqalgan (2.9-rasm).

O‘ziyozar qurilma ikki ishchi qismidan iborat bo‘ladi:

- 1) suv sathi tebranishini qabul qiluvchi qurilma;
- 2) yozish qurilmasi.

*Suv sathi tebranishini qabul qiluvchi qurilma* monometr yoki qalqima tamoyiliga asoslangan bo‘lishi mumkin. Eng ko‘p tarqalgani – qalqima tipidagi qurilmadir.

*Yozish qurilmasi*, asosan, quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi:


- baraban;
- soat mexanizmi;
- yo‘naltiruvchi sterjen;
- peroli karetka;
- harakatdagi markaz;
- yukcha.

O‘ziyozar qurilma suv sathi tebranishini to‘rt xil masshtabda, ya’ni 1:1; 1:2; 1:5; 1:10 qiymatlarda yozishi mumkin.

O‘ziyozar qurilmani ikki xil usul bilan o‘rnatish mumkin:


- 1) orol tipida;
- 2) qirg‘oq tipida.

Ularning qaysi birini tanlashda daryo uchastkasining tegishli shart-sharoitlari hisobga olinadi.




2.9-rasm. “Valday” tipidagi suv sathini o‘lchash qurilmasi:

1 – inshoot binosi; 2 – yer osti suv yo‘li (quvur); 3 – quduq;  
4 – o‘lchov taxtachasi; 5 – o‘lchov uskunasi; suv sathini  
o‘lchash qurilmasini o‘rnatishning orolcha tipi.




2.10-rasm. "Valday" tipidagi suv sathini o'lchash qurilmasi va uning qismlari: 1 – metall qoplama; 2 – qalqimaning yuki; 3 – yumshoq tros; 4 – muvozanatni saqllovchi yuk; 5 – mahkamlagich; 6 – tros g'altagi; 7 – yozish qog'ozni o'rnatiladigan baraban; 8 – g'altak va baraban o'qi; 9 – yordamchi o'q; 10 – trubkacha; 11 – tishli g'altak; 12 – soat mexanizmi; 13 – peroli karetka; 14 – soatni quvvatlashtirish mexanizmi; 15 – yukcha.



2.11- rasm. O'ziyozar pufakli suv o'lchash posti:  
 1 – energiya manbai; 2 – bosim reduktori; 3 – raqamli ko'rsatkich;  
 4 – yozish qurilmasi; 5 – yozish lentasi; 6 – motor; 7 – klapan;  
 8 – muvozanatlovchi qurilma; 9 – manometr; 10 – xonacha;  
 11 – gaz idishi; 12 – poydevor; 13 – rezina quvur.

## 2.1.4. Nishablik suv o'lchash postlari

Har bir gidrologik kuzatish postida suv sathini kuzatish bilan birga suv yuzasining nishabligi ham o'lchab boriladi. Nishablik postlari asosiy kuzatish posti hududida joylashgan bo'lib, yuqori va quyi suv o'lchash reykalaridan iborat bo'ladi (2.12-rasm).



2.12-rasm. Suv yuzasi nishabligini aniqlash.

Nishablik postlarini tashkil etish uchun dastlab daryo uchastkasi ma'lum masofada ko'zdan kechiriladi va bir xil nishablikdagi uchastka tanlab olinadi.

Yuqori va quyi nishablik postlari orasidagi masofa asosan ular orasida suv sathining pasayish balandligi –  $\Delta h$  ga bog'liq holda belgilanadi.

Tekislik daryolarida  $\Delta h = 10-20$  sm dan, tog' daryolarida esa 25-50 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Nishablik (I) quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$I = \frac{\Delta h}{L},$$

bu yerda:  $\Delta h$  - suv sathining pasayish balandligi, m; L - har ikki nishablik postlari orasidagi masofa, m.

## 2.2. Suv sathini aniq o'lchaydigan asboblar va qurilmalar

Ma'lumki, suv o'lhash postlarida daryolar, kanallar, ko'llar va suv omborlarining suv sathi, belgilangan muddatlarda, bir kunda bir yoki ikki marta o'lchanadi. Ushbu muddatlar orasida suv sathining eng katta ko'tarilishlari yoki eng kichik qiymatlardagi pasayishlari bo'lishi mumkin. Suv sathining bunday qiymatlarini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Masalan, daryolarning eng katta suv sathlariga bog'liq holda suv inshootlarining loyiha hujjatlari tayyorlansa, eng kichik suv sathlari esa ichimlik va sug'oriladigan yerlar suv ta'minotida muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shu tufayli suv sathining eng katta, ya'ni **maksimal** va eng kichik – **minimal** qiymatlarini aniq qayd etib borish maqsadida maxsus suv o'lhash reykalarini va qurilmalari yaratilgan. Quyida ana shunday o'lchov asboblari haqida to'xtalamiz.


**Maksimal va minimal suv sathlarini o'lchaydigan asboblar.** Maksimal va minimal suv sathlarini o'lchaydigan maxsus reykalar mavjud bo'lib, ular sobiq Ittifoqning Gidrometeorologiya xizmati Bosh boshqarmasi mutaxassislari tomonidan ixtiro qilingan (2.13-rasm).

Maksimal va minimal suv sathlarini o'lchaydigan maxsus reykalar uzunligi 2 m, diametri 5 sm ga teng quvur bo'lib, qoziqqa mustahkam o'rnatiladi. Suv almashinishini ta'minlash maqsadida quvurlar maxsus tirkishli bo'ladi.

Maksimal suv sathini o'lhash uchun quvurning yuqorisidan 1 sm diametrli sterjen tushiriladi. Sterjen quvurda tutilishi uchun maxsus tutqichi bor. Tekshirishdan oldin sterjen ohakli suvgaga botiriladi. Uning yuvilishiga qarab maksimal qiymatni aniqlaymiz.

Frolov reykalarini ham maksimal, ham minimal suv sathlarini o'lhashga imkon beradi. U dub taxtasidan ishlanadi. Uzunligi 2 metr, eni 13 sm, qalinligi 2 sm bo'lib, standart holda ishlab chiqiladi. Bu qurilmadan ekspeditsiya sharoitida foydalanish qulaydir (2.13-rasm, c; d).

Yuqorida qayd etilganlardan tashqari maksimal va minimal suv sathlarini o'lhashga imkon beradigan Proskov reykalarini ham mavjud. Ular qoziqqa o'rnatilishi yoki burama qoziqqa mustahkamlangan temir quvurli bo'lishi mumkin.



2.13-rasm. Maksimal (a, d) va minimal (b, c) suv sathini o'lhash qurilmalari: 1 – qalpoqcha; 2 – ko'rsatkich tayoqcha; 3 – quvur; 4 – band, halqa; 5 – qotirgich; 6 – tirqish; 7 – tishli suv o'lhash taxtachasi; 8 – qisqichli qalgima.

### **2.3. Suv o'lhash postlarini tashkil etish, ularda kuzatishlarni amalga oshirish**

#### ***2.3.1. Stansiya va post tarmoqlari, ularning turlari***

Mamlakatimizda gidrometeorologiya xizmati umum davlat xizmati hisoblanib, uning vazifasi xalq xo'jaligini gidrometeorologik ma'lumotlar bilan ta'minlashdir.

Vatanimizda barcha gidrometeorologik ishlar ustidan rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuri-dagi Gidrometeorologiya xizmati markazi – O'zgidromet olib bora-di. O'zgidrometning asosiy vazifasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini va mamlakat mudofaa tizimini meteorologik, klimato-logik, aerologik, agrometeorologik, hidrologik va dengiz gidrome-torologik ma'lumotlari bilan ta'minlashdir (2.14-rasm).

Mamlakatimizda gidrometeorologik stansiyalar va postlarning asosiy qismi O'zgidrometga qarashlidir. Lekin, ularning ma'lum qismi ayrim vazirliklar, idoralar yoki korxonalarga tegishli bo'lishi mumkin.

Davlat Gidrometeorologiya xizmati –  
O'zgidromet tizimidagi

Vazirliliklar, idoralar,  
korxonalarga qarashli

Gidrometeorologik stansiyalar va  
postlar tarmog'i

Asosiy yoki tayanch gidrometeorologik  
stansiyalar va postlar

Maxsus gidrometeorologik  
stansiyalar va postlar

Rejimi gidrometeorologik  
stansiyalar va postlar

Tezkor (operativ)  
gidrometeorologik stansiyalar  
va postlar

Maxsus hidrologik  
stansiyalar va postlar

Maxsus meteorologik  
stansiyalar va postlar

Rejimi hidrologik  
stansiyalar va postlar

Rejimi meteorologik  
stansiyalar va postlar

Tezkor hidrologik  
stansiyalar va postlar

Tezkor meteorologik  
stansiyalar va postlar

Maxsus hidrologik  
stansiyalar

Maxsus hidrologik  
postlar

Maxsus meteorologik  
stansiyalar

Maxsus meteorologik  
postlar

2.14-rasm. O'zbekistonda gidrometeorologik stansiyalar va  
postlar tarmog'ining tashkiliy tuzilmasi.

Gidrometriya xizmati gidrometeorologiya xizmatining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Dunyo miqyosida gidrometriya xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) dengiz va okeanlarning gidrologik rejimini o'rganish;
- 2) xalq xo'jaligi tarmoqlarini, mudofaa tizimini, meteorologiya hamda gidrologiya xizmati va boshqa sohalarni kerakli gidrometrik ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- 3) gidrometriya sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;
- 4) kuzatish va tadqiqot ishlari natijalarini alohida yilnomalar va ma'lumotnomalar ko'rinishida chop ettirish.

Gidrologiya va gidrometriya sohalari bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy uslubiy ishlarga O'zgidrometning maxsus bo'limlari rahbarlik qiladi. Har bir mamlakatda o'zining gidrometriya xizmati boshqarmasi mavjud bo'lib, bu boshqarma o'z hududidagi barcha gidrometrik ishlarning talab darajasida bajarilishiga mas'ul hisoblanadi.

Mamlakatimizdagagi suv obyektlari rejimi elementlarini kuzatish va o'rganish har bir suv obyektida muntazam yoki vaqtinchalik postlar – kuzatish joylarini tashkil qilish yoki ekspeditsiya uyushtirish asosida olib boriladi.

Stansiya va post tarmoqlari operativ kuzatish stansiyalari va post tarmoqlariga bo'linadi.

*Kuzatish postlarining vazifasi* quyidagilardan iborat:

- 1) suv obyektlarining gidrometeorologik rejimini o'rganish maqsadida muntazam ravishda kuzatishlar olib borish;
- 2) turli manfaatdor muassasalar, tashkilotlar va idoralarni zarur gidrometeorologik kuzatish ma'lumotlari bilan ta'minlash, ularni xavfli gidrologik hodisalardan ogohlantirish;
- 3) kuzatish postlariga qarashli hududda sistematik ravishda kuzatish ishlarini amalga oshirish;
- 4) mahalliy aholi orasida gidrometrik bilimlarni va gidrometrik xizmat faoliyatini ommalashtirish.

*Operativ stansiyalarning vazifasi* xalq xo'jaligiga operativ gidrometeorologik xizmat ko'rsatishdir. Operativ gidrometrik stansiya va postlarning soni va joylashishi ilmiy va xo'jalik tashkilotlarining talablariga bog'liq holda tashkil etiladi.

Gidrologik stansiya deganda ma'lum xodimlar shtatiga ega bo'lgan davlat tashkiloti tushuniladi.

Gidrologik post deganda esa ma'lum talablarni hisobga olib, daryo yoki boshqa bir suv obyektining tegishli qismida kuzatish va o'lhash ishlarini amalga oshirish maqsadida tanlangan, maxsus qurilmalar bilan jihozlangan joy tushuniladi. Bu joyda gidrologik ishlarni bajarishga mo'ljallab stvor yoki kesma o'tkaziladi. Gidrologik postda faqatgina kuzatuvchi bo'ladi.

Mamlakatimizda gidrometeorologiya xizmati tomonidan tashkil etilgan stansiya va postlar ma'lum guruhlarga ajratilgan. Ana shu ajratish prinsipi, birinchidan, bajariladigan ishning hajmiga, ikkinchidan, ularda bajariladigan ishning turiga asoslangan.

Stansiya va postlar bajaradigan ish turlariga qarab meteoroologik, aerologik, gidrologik hamda dengiz gidrometeorologik stansiya va postlariga ajratiladi.

Gidrologik stansiya va postlar ularda bajariladigan ishlar turi va hajmiga qarab razryadlarga ajratiladi. Masalan, gidrologik stansiyalar ikkita razryadga, gidrologik postlar esa uchta razryadga bo'linadi (2.1-rasm).

I razryadli gidrologik stansiyalar suv obyektlarining gidrologik rejimi elementlarini to'la o'rghanadi. Shu bilan birga II razryadli stansiyalarda amalga oshiriladigan suv o'lhash va kuzatish ishlarini nazorat qilib boradi, ularga rahbarlik qiladi.

II razryadli gidrologik stansiyalar suv obyektlarida to'g'ridan-to'g'ri o'lhash va kuzatish ishlarini amalga oshiradi, to'plangan gidrometrik ma'lumotlarni birlamchi qayta ishlaydi. Shu bilan birga II razryadli gidrologik stansiyalar o'ziga biriktirilgan gidrologik postlarga mas'ul hisoblanadi.

I razryadli gidrologik postlarda suv rejimining hamma elementlari bo'yicha kuzatish, o'lhash ishlari olib boriladi. Shu bilan birga, ularda meteorologik kuzatishlar ham olib boriladi.

II razryadli gidrologik postlar ham I razryadli gidrologik postlar kabi ish olib boradi. Ularda faqatgina suv va oqiziqlar sarfi o'lchanmaydi.

III razryadli gidrologik postlarda suv sathi, muzlash hodisalari, suvning harorati belgilangan muddatlarda muntazam ravishda kuzatib boriladi.

### **2.3.2. Daryolarning suv sathi rejimi va uni kuzatish**

Gidrometriyada daryo va boshqa suv obyektlarining suv sathini kuzatishga, aniq o'lhashga alohida e'tibor beriladi. Bu mavzuda asosiy e'tibor suv sathining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va uning tebranish xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

Daryolar va boshqa suv ob'eklaridagi suv miqdori vaqt mobaynida o'zgarib turadi. Natijada suv sathi ham tebranib turadi. Mana shu o'zgarish jarayonini kuzatish, uning o'ziga xos qonuniyatlarini ochish, o'zgarishga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Suv sathining tebranish xarakteri va qiymatlari bir qancha tabiiy geografik omillarga bog'liqdir. Vaqt nuqtayi nazaridan suv sathining tebranishini quyidagi muddatlarga bo'lib o'rganish ancha qulaylik keltirib chiqaradi:

- 1) suv sathining ko'p yillik tebranishi;*
- 2) suv sathining yillik tebranishi;*
- 3) suv sathining fasliy tebranishi;*
- 4) suv sathining kunlik tebranishi.*

*Suv sathining ko'p yillik tebranishi* asosan iqlimning atmosfera sirkulyatsiyasi ta'sirida ko'p yillik tsiklli tebranishiga bog'liq holda kechadi. Atmosfera yog'lnlari ko'p yoqqan yillarda deyarli barcha suv obyektlarida suv sathi ham ko'tariladi. Bundan tashqari suv sathining ko'p yillik tebranishi geologik, tektonik jarayonlarga ham bog'liqdir. Muzlik suvlari hisobiga to'yinadigan daryolarda esa havo harorati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Daryolarda *suv sathining yillik tebranishi* asosan shu yilning meteorologik sharoitiga bog'liq bo'ladi. Agar o'rganilayotgan yilda atmosfera yog'lnlari miqdori ko'p bo'lib, namlik katta bo'lsa, suv sathining tebranish amplitudasi ham katta bo'ladi.

*Suv sathining fasliy tebranishi* daryo havzasining tabiiy - geografik sharoitiga bog'liq bo'ladi. Bunda daryoning joylashish o'rni, balandligi muhim rol o'ynaydi. Daryolar suv sathining fasliy tebranishiga yoz oylarida suv o'simliklari, qish oylarida esa muzlash hodisalari ta'sir ko'rsatishi mumkin.

*Suv sathining kunlik tebranishi*, ko'proq, daryolarning

dengizga quyilish joylarida (shamol ta'sirida) va muzliklardan boshlanadigan kichik soylarda kuzatiladi.

Daryolar suv sathini kuzatishdan asosiy maqsad gidrotexnik inshootlarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni olishdir. Daryolar, soylardagi suv sathining o'zgarish qonuniyatlarini bilmasdan turib, ularda bironqa ko'priq, to'g'on, kanal kabi suv inshootlarini loyihalash va qurish mumkin emas.

Suv sathini kuzatish barcha gidrometrik ishlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Gidrometriyada suv sathini kuzatish ma'lumotlaridan daryolardagi oqim miqdorini aniqlashda ham foydalilanadi. Buning uchun suv sathi bilan suv sarfi orasidagi bog'lanish, ya'ni suv sarfi egri chizig'i grafigi chiziladi.

#### **2.4. Suv o'lhash postlarini tashkil etish tamoyillari, ulardagagi balandlik va hisob sistemasi**

Oldingi mavzulardan ma'lum bo'ldiki, suv obyektlarida suv o'lhash va kuzatish ishlari maxsus gidrometeorologik stansiya va postlarda olib boriladi. Ushbu mavzuda suv o'lhash postlarini qurish tamoyillari, kuzatishlarni amalga oshirishda asos bo'ladigan «0» grafik tekisligi, uni tanlash qoidalari va orttirmalar haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Suv o'lhash tizimlarini tashkil etishda (qurishda) quyidagi ikki tamoyilga asoslanish kerak:

1) ma'lum bir suv o'lhash postida yillar davomida olib borilayotgan kuzatish ma'lumotlarini bir-biri bilan solishtirish mumkin bo'lsin;

2) bir suv obyektida tashkil etilgan bir qancha suv o'lhash postlarining ma'lumotlarini o'zaro solishtirish imkonini bo'lsin.

Suv o'lhash postlarida yagona kuzatish tizimi va metodikasi bo'lgandagina yuqorida qayd etilgan har ikki qoidaga amal qilish imkoniyati yaratiladi.

Har qanday suv o'lhash posti quyidagilar bilan jihozlangan bo'lishi shart:

1) balandlik belgisi (reper);

2) suv o'lhash qurilmasi (reykali, qoziqli yoki o'ziyozar qurilma) bo'lishi lozim (2.15-rasm).

Suv sathini o'lhash ishlari shartli ravishda qabul qilingan mavhum tekislik – "0" grafik tekisligiga nisbatan olib boriladi. Bu tekislik daryoning tarixiy minimal suv sathidan, kamida, 0,5-1 m pastda tanlab olinadi. Suv sathini kuzatish ishlarining "0" grafik tekislikka nisbatan olib borilishidan ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

1) kuzatishlarning bir xilligini ta'minlash;

2) ularning musbat qiymatlarda bo'lishini ta'minlash.

Har qanday suv o'lhash postida "0" grafik tekisligining balandligi uning ish faoliyati davomida o'zgarmaydigan qilib tanlanadi. Agarda biron bir daryoda bir-biridan uncha uzoq bo'limgan masofada joylashgan suv o'lhash postlari bo'lsa, ular uchun bitta umumiy "0" grafik tekisligi balandligi tanlanishi mumkin.

Ko'llar va suv omborlaridagi suv o'lhash postlarida ham bitta umumiy "0" grafik tekisligi balandligi belgilanadi. Ayrim ho'llarda, quyidagi sabablarga ko'ra, "0" grafik tekisligining balandligini o'zgartirishga to'g'ri keladi:

1) "0" grafik tekisligining balandligi noto'g'ri tanlanganda;

2) suv o'lhash posti katta masofaga ko'chirilganda;

3) daryoning suv sathi rejimi keskin o'zgarganda.


**Suv o'lhash posti o'rnatiladigan daryo uchastkasi va joyni tanlashda bajariladigan ishlar.** Bunda dastlab, ya'ni dala sharoitida bajariladigan ishlarni boshlashdan oldin, o'rganilayotgan daryo yoki boshqa suv obyekti haqida ma'lumotlar keltirilgan adabiyotlar, arxiv ma'lumotlari va boshqa manbalar bilan tanishib chiqish lozim. Shundan so'ng dala sharoitida quyidagi ishlar bajariladi:

1) daryo uchastkasini umumiy ko'zdan kechirish, ya'ni uning holati va gidrologik rejimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

2) daryo uchastkasida turli sabablar (to'g'onlar, muzlash hodisalari, o'zan deformatsiyasi, uni o'simliklar qoplashi va boshqa ta'sirlar) natijasida kelib chiqadigan o'zgaruvchan dimlanishning mavjudligi yoki bu jarayonning umuman kuzatilmasligini aniqlash;

3) daryo uchastkasini syomka qilish va tezliklarni aniqlash;

4) daryoning o'ziga xos suv rejimi haqida mahalliy aholidan qo'shimcha ma'lumotlar to'plash va boshqalar.



2.15-rasm. Qoziqli suv o'lchash posti balandliklari va ulardan sanoq olish sxemasi.

Suv o'lhash postida "0" grafik tekisligidan tashqari yana bir "0" kuzatish tekisligi mavjud. "0" kuzatish tekisligi haqiqiy tekislik bo'lib, u qoziqli postlarda qoziqning yuzasidan, reykali postlarda esa reykaning "0" belgisidan o'tadi. "0" kuzatish tekisligining balandligi reperga nisbatan nivelirlash yordamida topiladi.

Suv sathini kuzatishni osonlashtirish maqsadida har bir suv o'lhash qurilmasi (reykali yoki qoziqli) uchun *orttirma* hisoblab topiladi.

*Orttirma* deb, "0" kuzatish tekisligi balandligi bilan "0" grafik tekisligi balandligi orasidagi farqqa aytildi.

## **2.5. Suv o'lhash postlarini qurish uchun joy tanlash va unda bajariladigan ishlar**

Ushbu mavzuda suv o'lhash postlarini qurish uchun joy tanlashda nimalarga e'tibor berish kerakligi, bajariladigan ishlar tartibi, postni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish vaqtida amalga oshiriladigan ishlar yoritilgan.

Suv o'lhash postini tashkil etish uchun joy tanlash mas'uliyatlari va shu bilan birga murakkab vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda joy tanlash vaqtida qo'yidagilarni e'tiborga olish zarur:

- 1) daryoning ikkala qirg'og'i bir-biriga simmetrik bo'lib, o'rtacha qiyalikda bo'lishi kerak;
- 2) daryo ma'lum masofada to'g'ri chiziqli yo'nalishdagi o'zanda oqishi lozim;
- 3) daryo o'zanining relyefi murakkab bo'lmasligi kerak;
- 4) tanlangan joy atrofida plyajlar, daryo o'zanidan qum, shag'al oladigan karyerlar bo'lmasligi lozim;
- 5) daryoga oqava suvlar qo'shilmasligi va suv sathiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar bo'lmasligi kerak;
- 6) post aholi yashash joyiga yaqin bo'lishi kerak;
- 7) pochta, telegraf va internet aloqalari yaqin bo'lishi lozim.

Birinchi holat shundan iboratki, suv o'lhash postini qurish uchun tanlangan daryo uchastkasida shu daryoga xos bo'lgan xususiyatlar mujassam bo'lishi lozim.

Ikkinchi holatni e'tiborga olish tanlangan daryo uchastkasida

o'lhash va kuzatish ishlarini olib borishni osonlashtiradi. Bu esa o'lhash ishlarini yuqori aniqlikda bajarishga imkon beradi. Ko'rsatilgan holatlarni e'tiborga olish tog' daryolarida ancha murakkabdir. Shuning uchun qayd etilgan talablar joyning o'zida e'tiborga olinishi zarur.

Agar biz daryo uchastkasini noto'g'ri tanlasak, yuqoridagi talablarni e'tiborga olmay suv o'lhash postini tashkil qilsak, bu holat keyinchalik o'lhash, kuzatish ishlarining aniqligi va sifatiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun ham suv o'lhash postini tashkil qilish maqsadida joy tanlash vazifasi tajribali mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Shu maqsadga suv o'lhash postini tashkil etayotgan tashkilot tomonidan maxsus guruh tuzilib, ushbu guruhdagi muhandis - texniklar dala sharoitida quyidagi ishlarni bajaradilar:

- 1) daryoning suv o'lhash posti qurilishi mo'ljallangan uchastkasini umumiyo ko'zdan kechirib chiqish;
- 2) bu uchastkada tezoqar yoki dimlanish bor-yo'qligini aniqlash;
- 3) maxsus topografik ishlarni bajarish.

Yuqoridagi ishlarni bajarishda guruh a'zolari daryoning suv rejimi haqidagi arxiv ma'lumotlarini hamda mahalliy aholining fikr-mulohazalarini ham inobatga oladi. Umuman olganda, shunday joyni tanlash kerakki, daryoning tabiiy holatiga ta'sir qiluvchi omillar mumkin qadar kam bo'lsin. Suv o'lhash postini qurish vaqtida dimlanish hodisasiga juda katta e'tibor beriladi. Dimlanishning tarqalish uzunligi quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$L = a \cdot \left( \frac{h_0 + z}{i} \right), \text{m};$$

bu yerda: L – dimlanishning tarqalish uzunligi;  $h_0$  – to'g'on yo'q paytdagi chuqurlik; z – dimlanish balandligi; a – koeffisiyent bo'lib, uning qiymati  $a = f\left(\frac{h_0}{z}\right)$  funksiyaga bog'liq holda, maxsus jadvaldan aniqlanadi;  $h_0 + z$  – loyiha ma'lumotlaridan olinadi.

Topografik ishlar turi tashkil etilayotgan postning razryadiga va faoliyat davrining davomiyligiga bog'liq. Agarda post vaqtincha suv o'lhash ishlarini olib borishga mo'ljallangan bo'lsa, tanlangan daryo uchastkasida yarim instrumental syomka ishlari olib boriladi.

Bunda quyidagi ishlar bajariladi:

- 1) joyning plan va balandlik asosini tuzish;
- 2) tanlangan profillarda chuqurlik o'lhash ishlarini bajarish;
- 3) atrof manzarani ko'z bilan chamlab, syomka qilish.

Syomka qilish chegarasi daryoning uzunligi bo'yicha uning kengligiga nisbatan 5 marta uzun uchastkada olib boriladi. Masalan, daryoning kengligi 100 m bo'lsa, 500 m masofada syomka qilinishi kerak. Bunda syomka qilish ishlari daryoda maksimal suv sathi ko'tariladigan joydan 0,5-1 m yuqorida amalga oshiriladi.

Agar qurilishi rejalashtirilgan suv o'lhash posti doimiy kuzatishlar olib borish uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda tanlangan daryo uchastkasida, yuqoridaq ishlari bilan bir qatorda, qo'shimcha, menzula yoki teodolit yordamida to'la instrumental syomka o'tkazilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan dala ishlari tugagandan so'ng daryo uchastkasining tavsifiy bayonnomasi tuziladi. Bu bayonnomada daryoning nomi, postning joylashgan o'rni, daryoning suv rejimi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar, toshqin davri, qanday amaliy maqsadlar uchun foydalanishi, kuzatilgan va kuzatilishi mumkin bo'lgan hodisalar va hokazolar aks ettirilishi lozim. Agar daryo havzasasi va o'zanining morfometrik elementlari hamda joyning tabiiy-geografik sharoiti to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ular ham shu bayonnomada beriladi.

Dala ishlari yordamida to'plangan ma'lumotlar, daryo uchastkasining plani va bayonnomasi birgalikda ushbu suv o'lhash postining pastporti hisoblanadi.

## **2.6. Suv o'lhash postini bir joydan ikkinci joyga ko'chirish**

Umuman olganda, suv o'lhash postini bir joydan boshqa joyga ko'chirish tavsiya etilmaydi. Chunki bunda suv rejimi

elementlarini kuzatish qatorlarida uzilish sodir bo‘ladi. Bu esa suv rejimi elementlarining o‘rtacha ko‘p yillik miqdorlarini to‘g‘ri aniqlashni qiyinlashtiradi.

Lekin, ba’zi hollarda, masalan, postdan quyida to‘g‘on qurilib, u dimlanish zonasiga tushib qolsa yoki daryoning suv o‘lchash posti joylashgan qismi o‘zanida yuvilish yoki deformatsiya hodisalari qayd etilsa, kuzatish ishlarini amalga oshirish qiyinlashadi. Mana shunday holatda suv o‘lchash postini boshqa qulayroq joyga ko‘chirishga to‘g‘ri keladi.

Postni boshqa joyga ko‘chirish lozim bo‘lganda, iloji boricha, yaqinroq masofani tanlash kerak. Shunday qilinganda har ikki post uchun umumiy bo‘lgan "0" grafik tekisligini belgilash mumkin bo‘ladi. Bu esa eski va yangi postlardagi kuzatishlarni bir-biri bilan bog‘lash imkonini beradi.

Shu maqsadda eski postda kuzatishlar to‘xtatilmay turib, yangi postda kuzatishlarni, kamida, yarim yil davomida, suv rejimining har xil fazalarida, olib borish kerak. So‘ng parallel kuzatishlar ma’lumotlari asosida bog‘lanish grafigi chiziladi. Agarda bog‘lanish to‘g‘ri chizig‘i va 45 gradus burchak ostida o‘tsa, bu bog‘lanish funksional bog‘lanishga yaqin deb hisoblanib, yangi kuzatish ma’lumotlari eski kuzatishlarning bevosita davomi sifatida qabul qilinadi. Natijada eski kuzatish qatorining bir jinsliliqi saqlanib qoladi.

Bog‘lanish chizig‘i 45 gradus burchak ostida o‘tmagan hollarda ikkala post kuzatishlari bir-biri bilan korrelyativ bog‘langan hisoblanadi. Lekin, bunda yangi postdagи kuzatishlar eski postda to‘plangan ma’lumotlarning davomi hisoblanmaydi. Ushbu bog‘lanish grafigidan foydalanib, eski postdagи kuzatishlarni tiklash mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari shunday bog‘lanishlardan foydalanib, yangi postning "0" grafik tekisligi balandligini  $\Delta h$  qiymatga o‘zgartirish imkoniyati ham vujudga keladi.

Ba’zan bog‘lanish grafigida nuqtalar tarqoq joylashgan bo‘lishi mumkin. U holda har ikkala post o‘zaro bog‘lanmagan hisoblanadi.

## **2.7. O'ziyozar suv o'lhash qurilmasi lentasini qayta ishlash**

O'ziyozar suv o'lhash postlarida o'ziyozar qurilmadan tashqari reykali yoki qoziqli suv o'lhash posti ham bo'lishi lozim. Oddiy suv o'lhash posti o'ziyozar qurilma o'rnatilgan quduqning devoriga yopishtirilgan reyka holida bo'lishi mumkin. Ba'zan esa shu postning yonida reykali yoki qoziqli qurilma ko'rinishida bo'ladi.

Reykali suv o'lhash postini o'rnatishdan asosiy maqsad o'ziyozar qurilma lentasiga yozilgan suv sathlari balandliklarini "0" grafik tekisligiga keltirishdir.

Kuzatuvchi kuzatish olib borish uchun postga kelganda, birinchi navbatda, reykadan hisob oladi. Uni "0" grafik tekisligiga keltirib, o'ziyozar qurilma lentasiga belgi qo'yadi va lentani barabandan oladi. Keyin belgi yoniga vaqtini yozib qo'yadi.

So'ngra barabanga yangi lentani o'raydi va o'ziyozar qurilmaga o'rnatadi. Shundan so'ng soat mexanizmini burab, peroni tozalab, idishga siyoh quyib qo'yadi. Kuzatish vaqtiga qarab, karetkani lentadagi tegishli joyga to'g'rilaydi. Keyin diskni harakatlantirgan holda lentaga belgi qo'yadi va shu belgi yoniga kuzatish soati, minuti va "0" grafikka nisbatan balandlikni yozib qo'yadi.

Suv o'lhash postlarida bajariladigan ishlarning ko'lami shu post oldiga qo'yilgan vazifalarga bog'liq bo'ladi. Bajariladigan ish hajmi suv o'lhash postining razryadiga ham bog'liq.

Suv o'lhash postlarining hammasida bajariladigan ishlarning asosiy tarkibi quyidagicha:

- a) *suv sathi balandligini o'lhash;*
- b) *suvening haroratini o'lhash;*
- v) *muz qoplaming qalinligini o'lhash;*
- g) *muz qoplami ustidagi qorning qalinligini o'lhash.*

Agar meteorologik stansiya uzoq masofada joylashgan bo'lsa (50 km dan uzoqda), suv o'lhash postlarida, yuqoridagilardan tashqari, birinchi razryadli meteorologik post dasturi bo'yicha ham kuzatishlar olib boriladi.

I razryadli suv o'lhash postida suv sathi, suvning loyqaligidan namuna olish, ko'l yoki suv omborlarida to'lqin elementlarini o'lhab borish, yog'in miqdorini o'lhash, qorning qalinligini va zichligini aniqlab borish, tuproqning muzlash holatini kuzatish ishlari bajariladi.

II razryadli postlarda esa faqat suvning loyqaligidan namuna olinmaydi.

Suv sathi o'zi yozib boruvchi suv o'lhash postlarida kuniga 1 marta (ertalab soat 8 da), oddiy suv o'lhash postlarida esa 2 marta, ya'ni ertalab soat 8 da va kechqurun 20 da kuzatiladi. Bu kuzatishlar daryoning suv rejimiga qarab ko'paytirilishi ham mumkin. Masalan, har 2 soatda, 4 soatda va hokazo. Kuzatishlar natijalari standart tipdag'i maxsus KG-1 daftarchasiga yozib boriladi.

**Suvning haroratini kuzatish muddatlari.** Suvning harorati kuniga 2 marta (8, 20) kuzatiladi, ya'ni suv sathiga mos ravishda olib boriladi. Suvning haroratini o'lhash uchun suv o'lhash posti qurilgan joyda alohida o'rin ajratiladi. U qirg'oqdan 1,5 m ichkarida va suv yuzasidan 30 sm chuqurlikda o'rnatiladi.

Daryo kengligi 10 m va undan kichik bo'lsa, suvning harorati daryoning o'rtasida o'lchanadi. Suv o'lhash postlari vaqtinchalik bo'lган daryolarda suvning harorati o'lchanmaydi.

Kuzatish daftarchasi bir oyga mo'ljallangan bo'ladi. Daftarchaga kuzatuvchi suv sathini, havo haroratini, muzlash hodisalarini qayd etib boradi. Bunda kuzatishlar "0" grafik tekisligiga keltiriladi. Daftarchada suv sathining o'rtacha kunlik qiymatlari chiqariladi. Oy tamom bo'lgandan so'ng kuzatuvchi kuzatish daftarchasini gidrologik stansiyaga ikki nusxada olib kelib topshiradi. Stansiyaning shu postga biriktirilgan texnik xodimi daftarchani tekshirib, uni birlamchi qayta ishlaydi. Bunda u quyidagi ishlarni bajaradi:

- 1) daftarchani tanqidiy nuqtayi nazardan tekshirish;
- 2) reykalar yoki qoziqlarning orttirmalarini aniq belgilash;
- 3) suv sathini "0" grafikka keltirish;
- 4) kuzatish ma'lumotlari asosida o'rtacha kunli, o'rtacha 10 kunlik, o'rtacha oylik suv sathlarini hisoblash;

5) bir oy davomidagi maksimal va minimal suv sathlarini aniqlash;

6) gidrometeorologik elementlarning (suv sathi – H, suvning harorati –  $t_{suv}$ , havoning harorati –  $t_{havo}$ , atmosfera yog‘inlari – X) bir oy davomida tebranishi va o‘zgarishini ifodalovchi kompleks grafikni chizish.

Kompleks grafikni chizish kuzatishlarning to‘g‘ri olib borilganligini nazorat qilib borish imkonini beradi.

## **2.8. Suv sathini kuzatish ma’lumotlarini maxsus qayta ishlash**

Ma’lumki, daryolarda suv sathi vaqt davomida, ayniqsa toshqin davrida keskin o‘zgarib turadi. Uni bilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Ushbu mavzu daryolarda kuzatilgan suv sathini maxsus qayta ishlash usullarini bayon etishga, xarakterli suv sathlari va moslashgan suv sathlarini aniqlashga, ular orasidagi bog‘lanishlarni grafikda ifodalash usullarini yoritishga hamda ularning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini ko‘rsatib berishga bag‘ishlanadi.


Odatda, O‘zgidromet ko‘rsatmasiga asosan gidrologik stansiyalarga qo‘srimcha vazifa topshiriladi. Bu daryolarda kuzatilgan suv sathini maxsus qayta ishlab chiqish vazifasidir. Bu vazifani bajarishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- 1) suv sathining yillik o‘zgarish grafigini chizish;
- 2) grafikda xarakterli suv sathlarini belgilash;
- 3) suv sathining takrorlanish va ta’milanish grafigini chizish (2.16-rasm);
- 4) moslashgan suv sathlarini aniqlash;
- 5) moslashgan suv sathlari orasidagi bog‘lanish grafigini chizish (2.18-rasm).

Yuqorida qayd etilgan ishlarni bajarishda suv o‘lchash postlarida amalga oshirilgan kuzatishlar natijalari asosida tuzilgan kundalik suv sathlari yillik jadvalining ko‘p yillik ma’lumotlaridan foydalilaniladi. Bunda asosiy e’tibor xarakterli suv sathlarini aniqlashga qaratiladi.

Xarakterli suv sathlariga o‘rtacha o‘n kunlik, o‘rtacha oylik, o‘rtacha yillik suv sathlari, ularning maksimal va minimal qiymatlari, daryoda muzlash hodisalari kuzatilgan davrdagi yoki daryo muzdan xalos bo‘lgandagi suv sathlari, daryoda kema qatnovini yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘lgan suv sathlari va hokazolar kiradi.

**Suv sathining takrorlanish va ta’minlanish grafigi.** Suv sathining takrorlanish va ta’minlanish grafigi amaliy maqsadlarni ko‘zlab chiziladi. Undan o‘rganilayotgan daryo suvidan xalq xo‘jaligining ko‘pgina ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladi. Masalan, kanallarga chiqariladigan suvning me’yori va vaqtini belgilashda, kema qatnovini va yog‘och oqizish ishlarini tashkil etishda va hokazo.




2.16 – rasm. Suv sathlarining takrorlanish va ta’minlanish grafigi.

## 2.9. Moslashgan suv sathlarining bog‘lanish grafigi

**Moslashgan suv sathlari.** Agar bir daryoda bir nechta suv o‘lchash posti bo‘lsa, ularda qayd etilgan suv sathlarining

tebranishi bir-biriga o'xshash, ya'ni moslashgan bo'ladi. Bunday holatni bir xil tabiiy geografik sharoitda, o'zaro yaqin masofada joylashgan daryolardagi postlarda qayd etilgan suv sathlarining o'zgarishida ham ko'rish mumkin. Mana shu o'xshashlik va moslikni o'rganish maqsadida tegishli postlardagi kuzatishlar natijalari asosida suv sathlarining yil ichida tebranish grafiklari birgalikda chiziladi (2.17-rasm).



2.17-rasm. Moslashgan suv sathlarini aniqlash chizmasi.

Suv sathlarining davriy o'zgarish grafiklari maxsus tahlil qilinib, ulardagi moslashgan suv sathlari belgilab olinadi.

*Moslashgan suv sathlari deb, suv sathi rejimining o'zgarishi bir xil fazalarda kuzatiluvchi suv sathlariga aytildi.*

Grafikdan suv rejimining turli davrlariga mos keladigan 25-30 ta moslashgan suv sathlari belgilanib, ularning qiymatlari va kuzatilgan kunlari maxsus jadvalda qayd etiladi (2.1-jadval).

**2.1-jadval**

**Moslashgan suv sathlari va ular qayd etilgan kunlar**


Nuqtalar	Yuqori post		Quyi post	
	H, sm	Kun	H, sm	Kun
1	244	3.04	546	6.04
2	242	5.04	542	7.04
3	297	14.04	577	14.04
4	274	22.04	562	22.04
5	276	26.04	563	27.04
6	398	5.05	620	5.05
7	336	11.05	599	13.05
8	326	18.05	590	19.05
9	316	24.05	589	24.05
10	420	13.06	634	14.06
11	415	21.06	648	20.06
12	440	29.06	662	28.06
13	314	4.07	578	4.07
14	436	19.07	657	19.07
15	352	25.07	592	25.07
16	412	31.07	643	31.07
17	396	7.08	613	5.08
18	416	8.08	633	8.08
19	402	13.08	619	13.08
20	417	22.08	625	22.08
21	300	31.08	563	31.08
22	371	4.09	624	3.09
23	263	13.11	561	13.11
24	251	29.11	543	2.12
25	248	15.12	540	19.12

\* Yuqorida keltirilgan jadvaldagagi juft suv sathlarining qiymatlari asosida moslashgan suv sathlarining bog'lanish grafigi chiziladi. Agar moslashgan suv sathlari orasida bog'lanish mavjud bo'lsa, nuqtalar bir xil yo'nalishda, zinch joylashgan bo'ladi va ular asosida bog'lanish chizig'i o'tkaziladi (2.18-rasm).

$H_{yu}$ , sm

$$y = 0,9934x + 150$$

$$R^2 = 0,9133$$



2.18-rasm. Moslashgan suv sathlarining bog‘lanish grafigi.

Moslashgan suv sathlari orasidagi bog‘lanish grafigidan bir necha amaliy maqsadlarda foydalananish mumkin. Masalan, quyi postdagi suv sathini oldindan prognoz qilishda, u yoki bu postdagi kuzatilmay qolgan suv sathlarini tiklashda va boshqa maqsadlarda bu grafik juda katta amaliy yordam beradi.

#### *Sinov savollari va topshiriqlar:*

1. Suv o‘lchash postlarini qurishda qanday tamoyillarga asoslaniladi?
2. «0» grafik tekisligi deganda nimani tushunasiz?
3. «0» grafik tekisligi qanday tanlanadi?
4. Kuzatishlarni «0» grafik tekisligidan olib borishdan asosiy maqsad nima?
5. Orttirma qanday hisoblanadi?
6. Suv o‘lchash postini tashkil etish uchun joy tanlashda nimalar e’tiborga olinadi?
7. Suv o‘lchash postini tashkil etish maqsadida tuzilgan guruh dala sharoitida qanday ishlarni bajaradi?

8. Vaqtincha suv o'lhash ishlarini olib borishga mo'ljal-langan postlarni qurishda tanlangan daryo uchastkasida qanday topografik ishlar bajariladi?

9. Doimiy suv o'lhash ishlarini olib borishga mo'ljallangan postlarni qurishda qo'shimcha bajariladigan ishlarni eslang.

10. Suv o'lhash postining pastportida nimalar aks etadi?

11. O'zgidrometning asosiy vazifasi nimalardan iborat?

12. Gidrometriya xizmatining asosiy vazifalarini aytib bering.

13. Stansiya va post tarmoqlarining vazifalari nimalardan iborat?

14. Gidrologik stansiyada qanday ishlar amalga oshiriladi?

15. Gidrologik post deb nimaga aytildi?

16. Gidrologik stansiya va postlar nechta razryadga bo'linadi?

17. Suv o'lhash postlari qanday sharoitda bir joydan ikkinchi joyga ko'chiriladi?

18. Suv o'lhash postlarini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda nimalarga e'tibor berish lozim?

19. Yangi suv o'lhash postining "0" grafik tekisligi balandligiga o'zgartirish qanday kiritiladi?

20. Yangi va eski suv o'lhash postlarida to'plangan ma'lumotlar qatorining bir jinsliligi qanday aniqlanadi?

21. Yangi postdagi ma'lumotlarning to'g'riligini qanday aniqlash mumkin?

22. Suv sathini kuzatishdan asosiy maqsad nima?

23. Suv sathining tebranishi qanday muddatlar uchun o'rganiladi?

24. Suv sathining ko'p yillik tebranishi nimalarga bog'liq?

25. Suv sathining yillik tebranishiga qanday omillar ta'sir etadi?

26. Suv sathining fasliy va kunlik tebranishlari nimalarga bog'liq?

27. Suv o'lhash postlari konstruksiyasiga bog'liq holda qanday turlarga bo'linadi?

28. Oddiy suv o'lhash postlarining afzalligi nimada?

29. Uzatma suv o'lhash postlari qayerlarda quriladi?

30. O'zi yozib boruvchi suv o'lhash postlarining ishslash tamoyilini eslang.

31. *Uzoq masofaga uzatib beruvchi suv o'lhash postlarining turlarini bilasizmi?*
32. *Maksimal va minimal suv sathlarini o'lchaydigan asboblardan qanday holatlarda foydalaniadi?*
33. *Nishablik suv o'lhash postlari nima maqsadda quriladi?*
34. *O'ziyozar suv o'lhash postlari va ulardag'i kuzatish natijalari qanday qayta ishlanadi?*
35. *Suv o'lhash postlarida to'plangan kuzatish ma'lumotlari qanday qilib qayta ishlanadi?*
36. *Suv sathi qanday muddatlarda kuzatiladi?*
37. *Suvning harorati qanday vaqtarda kuzatiladi?*
38. *Stansiyada faoliyat ko'rsatadigan texnik xodim qanday ishlarni bajaradi?*
39. *Suv sathini maxsus qayta ishlashning asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
40. *Xarakterli suv sathlari deganda nimani tushunasiz?*
41. *Suv sathining takrorlanish va ta'minlanish grafigi nimani aks ettiradi?*
42. *Moslashgan suv sathlari qachon va qanday hollarda chiziladi?*
43. *Moslashgan suv sathlari deb nimaga aytildi?*

### **3-BOB. CHUQURLIKLARNI O'LHASH VA CHUQURLIK O'LHASH MA'LUMOTLARINI QAYTA ISHLASH**

Mazkur bobning asosiy maqsadi talabalarni chuqurliklarni o'lhash va chuqurlik o'lhash ma'lumotlarini qayta ishslash usullari bilan tanishtirishga qaratilgan bo'lib, undagi mavzularda quyidagi masalalar yoritiladi: chuqurlik o'lhash ishlaridan ko'zda tutilgan maqsad, chuqurlik o'lhash asbob-uskunalarini va jihozlari, eng oddiy asbob-uskunalar (nametka, qo'l loti, mexanik lot, gidrometrik lebedkalar va yuklar, exolotlar), chuqurlik o'lhash ishlarini bajarish usullari, chuqurlikni ko'ndalang va bo'ylama qirqimlar bo'ylab o'lhash, qiya burchak ostida va aralash usulda o'lhash, ko'llar va suv omborlarida chuqurlik o'lhashning o'ziga xos xususiyatlari, chuqurlik o'lhash ma'lumotlarini qayta ishslash, suv o'lhash daftarchasini qayta ishslash, daryo (ko'l, kanal) o'zani ko'ndalang qirqimlari chizmasini tuzish va uning shakl va o'lcham (morfometrik) ko'rsatkichlarini hisoblash, chuqurliklarni shartli (srezkali) suv sathiga keltirish, daryo (kanal, ko'l, suv ombori) o'zani planini gorizontallarda (izobatlarda) tuzish, daryo o'zanining bo'ylama qirqimi – profilini tuzish va boshqalar.

#### **3.1. Chuqurlik o'lhash ishlarining maqsadi, vazifalari**

Daryo va boshqa suv obyektlarining chuqurligini bilmasdan turib, biron bir gidrotexnik inshootni loyihalash va qurish ishlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Ushbu mavzuda chuqurliklarni o'lhash, unda bajariladigan ishlar tarkibi, chuqurlik o'lhash ishlarining maqsadi, vazifalari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati yoritiladi.

Chuqurlikni o'lhash deganda, ma'lum nuqtada suv yuzasidan o'zan tubigacha bo'lgan vertikal masofani o'lhash tushuniladi.

Chuqurlik o'lhash ishlarini bajarishdan kutilgan asosiy maqsad daryo, ko'l, suv omborlari va boshqa suv obyektlarining suv osti relyefi xarakterini aniqlashdir. Shu maqsadda bajariladigan chuqurlik o'lhash ishlari suv obyektlarida suvning miqdori kam bo'lgan davrda olib boriladi. Chunki bunda o'zanning ko'p qismini oddiy ko'z bilan ko'rishimiz mumkin.

Daryolarda chuqurlik o'lhash ishlari suvning oqish tezligini yoki suv sarfini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtida, ya'ni daryolarda chuqurlik o'lhash ishlarini bajarish natijasida biz o'zanning planini izobat yoki gorizontallarda tasvirlab berishimiz, daryoning ko'ndalang va bo'ylama profilini tuzishimiz mumkin bo'ladi.

### **3.2. Chuqurliklarni o'lhashda bajariladigan ishlar tarkibi**

Chuqurlik o'lhash ishlarini bajarish katta mehnat talab qiladi va ancha murakkabdir. Shuning uchun ham o'zan tubi relyefini aniq ko'rsatib berish imkoniyati cheklangan.

Daryolarda chuqurlik o'lhash ishlari quyidagi holatlarda, ma'lum maqsadlarni ko'zlab, amalga oshiriladi:

- 1) daryolarni gidrografik jihatdan o'rghanish maqsadida;
- 2) daryolarda kema qatnovini yo'lga qo'yish va yog'och oqizish maqsadida;
- 3) gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurish vaqtida;
- 4) ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish vaqtida;
- 5) daryolarda maxsus gidrometrik ishlarni (tezlikni o'lhash, suv sarfini aniqlash) bajarish vaqtida.

Chuqurliklarni o'lhash vaqtida dastlab qo'yidagi ishlar bajarilishi lozim:

- 1) suv sathini kuzatib borish;
- 2) chuqurlik o'lchanayotgan nuqtaning koordinatasini aniqlash;
- 3) shu nuqtada chuqurlikni o'lhash.

Chuqurlik o'lchanayotgan nuqtaning koordinatasini quyidagi asboblar va usullar yordamida aniqlash mumkin:

- 1) ruletka yoki lenta yordamida;
- 2) qirg'oqdan turib burchak o'lchaydigan asboblar yordamida;
- 3) qayiqda turib, yuqoridagi ikki usuldan birini qo'llash asosida.


Yuqorida qayd etilganidek, chuqurliklarni o'lhashdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri suv ostini, ya'ni o'zan tubi relyefini izobatlarda tasvirlashdan iboratdir.

### 3.3. Chuqurlik o'lhash qurilmalari, asbob-uskunalarini va jihozlari

Ushbu mavzuda chuqurliklarni o'lhash vaqtida qo'llaniladigan usullar, qurilmalar, asbob-uskunalar, ularning tuzilishlari va ishlatish tamoyillari yoritiladi (3.1-rasm).


Hozirgi vaqtida daryolarda hamda nisbatan chuqur bo'lmagan ko'l va suv omborlarida chuqurliklarni o'lhashda gidrometrik usul qo'llaniladi. Gidrometrik usulda chuqurlikni o'lhashda namyotka, shtanga, suv o'lhash reykasi, gidrometrik lotlardan foydalaniadi. Bunda qaysi bir asbobni tanlash daryo, ko'l yoki suv omborining chuqurligiga, suvning oqish tezligiga bog'liq.

**Namyotka** – yog'ochdan ishlangan, uzunligi 5-7 m, diametri 4-5 sm ga teng bo'lgan asbobdir. U har biri 10 sm dan bo'lgan katta bo'laklarga, 2 sm dan iborat kichik bo'laklarga bo'linadi. Namyotkaning suvgaga tushiriladigan pastki qismiga temirdan qoplama kiydiriladi. Qoplamaning og'irligi- 0,5-1 kg atrofida bo'lishi kerak. Uning vazifasi namyotkani cho'ktirish va, asosan, uni yemirilishdan saqlashdir. Namyotka bilan chuqurlikni o'lhashda 2-5 sm xatolikka yo'l qo'yiladi (3.4-rasm).




3.1-rasm. Chuqurlik o'lhash usullari va ularda qo'llaniladigan asboblar.

**Shtanga** bilan ham chuqurlik o'Ichash mumkin. Lekin, aksariyat hollarda, unga tezlik o'Ichaydigan asbob o'rnatilib, suvning oqish tezligi o'lchanadi (3.2-rasm).



3.2-rasm. Gidrometrik shtanga (6 m).



3.3-rasm. GR-56M markali gidrometrik shtanga (3 m).


**Suv o'Ichash reykasi** bilan kichik soylar, buloq suvlari oqadigan o'zanlar va ariqlarning chuqurligi o'lchanadi.

**Gidrometrik lotlar.** Suvga cho'kadigan har qanday jismni ipga bog'lab, oddiy lotni yasash mumkin.

Gidrometrik lotlar ikkiga bo'linadi:

- 1) qo'l loti;
- 2) mexanik lot.

**Qo'l lotidan** daryolar va boshqa suv havzalarida suvning oqish tezligi kichik bo'lgan hollarda foydalilaniladi. Ular 2 qismdan iborat bo'ladi: 1) og'irligi 3-5 kg bo'lgan yukcha; 2) tros yoki kopron shnur. Hozirgi kunda qo'l loti standart shaklda maxsus zavodlarda ishlab chiqariladi. Ana shundaylardan biri LPR-48 tipidagi og'irligi 4,5 kg, diametri 5,8 sm, uzunligi 35 sm bo'lgan qo'l lotidir. Ular bilan chuqurlik o'Ichashda yo'l qo'yiladigan xatolik 10 sm atrofida bo'ladi. Qo'l loti yordamida daryolarda 25 m, ko'llarda 100 m gacha bo'lgan chuqurliklarni o'Ichash mumkin (3.4-rasm).



3.4-rasm. Oddiy chuqurlik o'lchash asboblari: a) *namyotka*; b) *qalqib turuvchi namyotka*; c) *lot*; d) *ma'lum qismlari belgilangan, ipga bog'langan lot*.




3.5-rasm. Zavodda tayyorlangan LPR-48 tipidagi standart qo'l loti.

***Mekanik lotdan*** daryolarda suvning oqish tezligi juda katta yoki chuqurliklar 25 m dan ortiq bo'lganda foydalaniлади. У 3 qismidan iborat: 1) g'altak; 2) sim yoki ip; 3) tosh yoki yuk.

qo'llaniladigan asbob **exolot** deyiladi va u, asosan, dengiz, okean va qisman ko'llarda ishlataladi (3.10-rasm).

Daryolar sayoz bo'lgani uchun chuqurliklarni o'lhashda bu asbob qo'llanilmaydi. Exolot bilan 1 soatda 20 km gacha bo'lgan masofadagi chuqurlikni aniqlash mumkin. Biroq suvning loyqaligi, sho'rligi, harorati chuqurlikni o'lhash aniqligiga salbiy ta'sir qiladi. Aniqlikni oshirish maqsadida o'lchanagan chuqurlikka tuzatma kiritiladi. Ultratovushning suvda tarqalish tezligi 1 sek da 1462 m ga teng. Bu usulda xatolik 1 % dan oshmaydi.



3.10-rasm. IREL tipidagi exolotlarning markaziy qurilmasi:

1 – qog'ozni harakatlantiruvchi valik; 2 – qog'oz lenta; 3 – yozuv chizg'ichi;  
4,5 – exolotni tarirovkalash vintlari.

### 3.4. Chuqurlik o'lhash ishlarini bajarish usullari

O'zan tubi relyefini tasvirlash maqsadida va mahalliy sharoitlar hisobga olingan holda daryolarda chuqurlik o'lhash ishlari qo'yidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- 1) ko'ndalang profil – qirqim bo'yicha;
- 2) bo'ylama profil bo'yicha;
- 3) qiya burchak ostida;
- 4) aralash usullarni qo'llash asosida.

Daryolarda chuqurlik o'lhash ishlarini ko'ndalang profil – qirqim bo'yicha bajarish aniq natija beradi. Buning uchun daryo o'zanida ko'ndalang ravishda kesmalar belgilanadi, ularning soni daryoning kengligiga bog'liq holda aniqlanadi. Masalan, daryoning

kengligi 100 m gacha bo'lsa, kesmalar oralig'i  $\frac{1}{2}$  yoki  $\frac{1}{3}$ . B masofada olinadi, bu yerda B – daryoning kengligi. Agar daryoning kengligi 100 m dan ortiq bo'lsa, kesmalar oralig'i  $\frac{1}{3}$  yoki  $\frac{1}{4}$ . B qiymatda olinadi.

Daryoning kengligi 10 m dan 50 m gacha bo'lsa, ko'ndalang kesimda chuqurlik o'lchanadigan nuqtalar soni 10 tadan 20 tagacha olinadi. Kenglik 100 m dan 300 m gacha bo'lsa, nuqtalarni 20-30 tagacha olish mumkin. Daryoning kengligi 1000 m gacha bo'lganda 40-50 ta nuqtalar olinadi.

Daryo keng bo'lsa, chuqurlik o'lhash ishlarini bajarishda uning 2 qirg'og'iga mahkamlangan, arqonda harakatlanadigan qayiqlardan foydalaniladi. Agar o'lhash olib borayotgan joy juda keng bo'lsa, chuqurlik o'lchanayotgan nuqtaning o'rmini belgilash maqsadida burchak o'lchaydigan asboblardan foydalanish mumkin.

Chuqurlikni bo'ylama profilda o'lhashda daryo uzunligi bo'yicha bo'ylama kesmalar belgilanadi. Kesmalar soni daryoning kengligiga bog'liq holda tanlanadi.

### **3.5. Ko'llar va suv omborlarida chuqurlik o'lhashning o'ziga xos xususiyatlari**

Ko'llar, suv omborlarining chuqurliklarini o'lhash ham ko'pincha ko'ndalang yoki bo'ylama profillar bo'yicha amalga oshiriladi. Ba'zi hollarda kvadrat usulida ham chuqurliklarni o'lhash mumkin.

O'lchaning chuqurliklarning qiymatlari asosida daryoning izobatlar yoki gorizontallarda ifodalangan plani tuziladi (3-rasm). Undan ko'pgina amalii masalalarni hal etishda keng foydalaniladi.

Ko'llar va suv omborlarida bajariladigan chuqurlik o'lhash ishlarini daryolar uchun qo'llanilgan usul bilan olib borish mumkin. Ba'zi hollarda esa boshqa usullardan ham foydalaniladi. Masalan, kvadrat usulida, ko'llarda chuqurliklarni o'lhash uchun uning planiga ega bo'lishimiz kerak. Shu planda profillarning o'rni belgilab qo'yiladi va ular plan bilan birgalikda qo'shimcha

ravishda kalka qog'ozga nusxa ko'chirib olinadi, so'ngra barcha o'lhash natijalari shu planga belgilab, yozib boriladi.

### 3.6. Chuqurlik o'lhash ma'lumotlarini qayta ishlash

Ushbu mavzuda daryo yoki kanallarda bajarilgan chuqurlik o'lhash ishlari natijalarini qayta ishlash, ularning bo'ylama va ko'ndalang profillarini tuzish hamda morfometrik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari yoritiladi.

Barcha chuqurlik o'lhash ishlari maxsus, standart tipdagi daftarchaga yozib boriladi. Bu daftarcha turli qismlardan iborat bo'lib, ularda o'lhash bajarilayotgan vaqtidagi gidrometeorologik sharoitning bayoni, suv sathini kuzatish va o'lchangan chuqurliklarni qayd etib borish uchun maxsus jadval berilgan bo'ladi (3.1-jadval).

**3.1-jadval**

O'lchangan chuqurliklarni qayd etish jadvali

Vertikallar tartibi		DBN dan masofasi, m	Chuqurlik, m			Ishchi chuqurlik, h, m	Vertikallar orasidagi			O'zan tubi balandligi, m
Chuqurlik	Tezlik vertikali		I	II	$h_{o\cdot rt}$		$\bar{h}$ , m	b, m	$f, m^2$	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
chap qirg'oq		10,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,55	2,0	1,10	981,1
1		12,0	1,0	1,2	1,1	1,1	1,58	2,0	3,16	980,0
2	1	14,0	2,0	2,06	2,06	2,06	2,08	2,0	4,16	979,4
3	2	16,0	2,1	2,12	2,11	2,11	1,82	2,0	3,64	978,8
4	3	18,0	1,5	1,55	1,52	1,52	1,27	2,0	2,54	979,5
5		20,0	1,0	1,03	1,02	1,02	0,51	2,0	0,25	980,8
O'ng qirg'oq		22,0	0,0	0,0	0,0	0,0		2,0		981,1

*Izoh:* DBN – doimiy boshlang'ich nuqta;  $h_{o\cdot rt}$  – o'rtacha chuqurlik;  $\bar{h}$  – vertikallar orasidagi o'rtacha chuqurlik; h – ishchi chuqurlik; b – kenglik; f – maydon.

Chuqurliklarni qayd etish jadvaliga dastlab dalada o'lchangan ma'lumotlar ko'chirilib, tanqidiy ko'z bilan qarab chiqiladi. O'lchangan chuqurliklarning o'rtachasi olinadi. Agar suv sathining o'zgarishi  $\Delta H$  10 sm dan kichik ( $H_b - H_{ox} = \Delta H$ ) bo'lsa, o'rtacha chuqurlik ishchi chuqurlik sifatida tanlab olinadi (7-ustun).

Chuqurliklarni qayd etish jadvali qayta ishlangandan so'ng, undagi ma'lumotlardan foydalanib, daryo o'zanining ko'ndalang qirqimi chizmasi chiziladi. Ushbu chizma asosida ko'ndalang qirqimning asosiy mofometrik elementlari hisoblanadi.

### **3.7. Daryo o'zani ko'ndalang qirqimi chizmasini chizish, o'zanning morfometrik ko'rsatkichlarini hisoblash**

Barcha chuqurlik o'lhash ishlari natijalari maxsus, standart tipdag'i daftarchaga yozib boriladi. Bu daftarcha turli qismlardan iborat bo'lib, ularda o'lhash bajarilayotgan vaqtdagi gidrometeorologik sharoitning bayoni, suv sathini kuzatish va o'lchangan chuqurliklarni qayd etib borish uchun maxsus jadval berilgan bo'ladi (3.1-jadval).

Chuqurliklarni qayd etish jadvali qayta ishlangandan so'ng, yuqorida aytib o'tilganidek, unda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, daryo o'zanining ko'ndalang qirqimi chizmasi chiziladi va ko'ndalang qirqimning asosiy mofometrik elementlari, ya'ni o'lcham ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Daryo o'zani ko'ndalang qirqimining asosiy morfometrik elemetlariga qo'yidagilar kiradi:


- 1) daryoning kengligi - B, m;
- 2) jonli kesma maydoni -  $\omega$ ,  $m^2$ ;
- 3) maksimal chuqurligi -  $h_{max}$ , m;
- 4) o'rtacha chuqurligi -  $h_{\text{ort}}$ , m;
- 5) namlangan perimetri -  $\chi$ , m;
- 6) gidravlik radiusi - R, m.

*Daryoning kengligi deb*, suv yuzasi bo'yicha chap qirg'oq bilan o'ng qirg'oq orasidagi oqim yo'nalishiga perpendikulyar bo'lgan masofaga aytildi.

*Jonli kesma maydoni deb*, oqim yo'nalishiga perpendikulyar bo'lib, o'zan tubi va suv yuzasi chiziqlari bilan chegaralangan

maydonga aytildi. Bu yuzani ikki xil, ya’ni grafik yoki analitik usul bilan aniqlash mumkin. Grafik usulda dastlab o‘zanning ko‘ndalang profili chizilib, uning yuzasi planimetrik yoki paletka yordamida aniqlanadi. Analitik usulda esa jonli kesma maydoni to‘g‘ri burchakli uchburchak va trapetsiya shakllaridagi yuzalarni hisoblash ifodalari yordamida aniqlanadi (3.11, 3.12-rasmlar):

$$\omega = \frac{h_1 \cdot b_1}{2} + \frac{h_1 + h_2}{2} \cdot b_2 + \dots + \frac{h_{n-1} + h_n}{2} \cdot b_{n-1} + \frac{h_n \cdot b_n}{2}, m^2.$$



3.11-rasm. Daryoning ko‘ndalang qirqimi.

**Maksimal chuqurlikni** o‘lhash natijalarini solishtirish asosida aniqlaymiz.

**O‘rtacha chuqurtlik deb**, jonli kesma maydonining daryo kengligiga bo‘lgan nisbatiga aytildi:

$$h_{ort} = \frac{\omega}{B}, m.$$


**Daryo o‘zanining namlangan perimetri deb**, uning suv bilan qoplangan qismining ko‘ndalang kesim bo‘yicha uzunligiga aytildi. Namlangan perimetrik analitik usul bilan hisoblab topiladi:

$$\chi = \sqrt{b_1^2 + h_1^2} + \sqrt{b_2^2 + (h_2 - h_1)^2} + \dots + \sqrt{b_{n-1}^2 + (h_n - h_{n-1})^2} + \sqrt{b_n^2 + h_n^2}, m.$$

Agarda daryo muz bilan qoplangan bo‘lsa, u holda namlangan perimetrga daryoning kengligi ham qo‘shiladi.

**Gidravlik radius deb**, jonli kesma maydonining namlangan perimetrga bo‘lgan nisbatiga aytildi:

$$R = \frac{\omega}{\chi}, m.$$



3.12-rasm. Daryo o'zanining ko'ndalang profili chizmasi.

Agar daryo keng va sayoz bo'lsa, o'rtacha chuqurlik bilan gidravlik radius bir-biriga miqdoran yaqin bo'ladi. Bunday hollarda, hisoblashlarda katta aniqlik talab etilmasa, bu ikki elementni bir-biri bilan almashtirib foydalanish mumkin.

### 3.8. Daryo o'zanining bo'ylama qirqimi planini tuzish

Daryo o'zanining bo'ylama qirqimi planini tuzishda chuqurliklar beshta ko'ndalang profillar bo'yicha o'changan bo'lsin. Chuqurlik o'changan nuqtalar o'mi tros yordamida aniqlangan. Doimiy boshlang'ich nuqtasi uchun daryoning chap qirg'og'idagi azimuti  $98^{\circ} 25'$  bo'lgan magistral tanlangan. Profillar orasidagi masofa 50 m. Suv sathi kuzatishlari birinchi profildagi suv o'lhash postida olib borilgan. Postning «0» grafik tekisligi balandligi 93,15 m.

Ushbu ma'lumotlar asosida daryoning bo'ylama qirqimi plani quyidagi tartibda tuziladi:

1. Daryo uchastkasi planini tuzish uchun bizga berilgan masofalar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanamiz (3.3-jadval).

Bunda doimiy boshlang‘ich nuqta uchun daryoning chap qirg‘og‘idagi azimuti  $98^0 25'$  bo‘lgan magistraldan foydalanamiz. Dastlab daryoning chap qirg‘og‘ini chizib olamiz. 1-profilimiz tanlangan magistralning boshi hisoblanadi. Ana shu joydan daryoning chap qirg‘og‘igacha bo‘lgan masofa, ya’ni 41,5 m ni o‘lchab, masshtab asosida nuqtani belgilaymiz. Magistraldan 10 metr tashlab, yana chap qirg‘oqqacha bo‘lgan masofani, ya’ni 38,3 m ni masshtab asosida topamiz va shu joyga belgi qo‘yamiz. Shu tariqa magistralning oxirigacha chap qirg‘oq nuqtalarini tushirib olamiz. So‘ngra yana magistralning boshiga kelib, shu joydan o‘ng qirg‘oqqacha bo‘lgan masofani topamiz (127,0 m) va masshtabga qo‘yib nuqtalarni belgilaymiz. Barcha nuqtalarni tushirib bo‘lganimizdan so‘ng ularni tutashtiramiz. Shunda daryoning 200 m uzunlikdagi qismining plani hosil bo‘ladi.

### 3.3-jadval

Daryo uchastkasi planini tuzish uchun  
masofalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Nuqtalar	Magistral bo‘yicha masofa, m	Magistraldan profillar bo‘yicha masofa, m	
		Chap qirg‘oq	O‘ng qirg‘oq
Profil 1	0,00	41,5	127,0
1	10,0	38,3	125,5
2	20,0	37,0	127,8
3	30,0	37,4	131,2
4	40,0	38,3	134,9
Profil 2	50,0	36,7	138,7
1	60,0	35,2	139,5
2	70,0	32,0	134,0
3	80,0	28,1	125,0
4	90,0	27,2	117,2
Profil 3	100,0	23,6	118,0
1	110,0	28,1	115,8
2	120,0	29,9	116,1
3	130,0	34,6	117,5
4	140,0	36,8	120,4
Profil 4	150,0	38,4	122,0
1	160,0	40,6	122,5
2	170,0	42,4	127,8
3	180,0	44,0	135,6
4	190,0	48,1	149,2
Profil 5	200,0	48,6	145,5

2. Ishchi suv sathi jadvalidan (3.9-jadval) foydalanib, har bir profil uchun tegishli tuzatmalar kiritiladi. Bunda har bir profildagi suv sathiga mos ravishda tuzatmalar aniqlab olinadi va shu tuzatmalarni profillarda o'lchangan chuqurliklardan ayirib, haqiqiy chuqurliklar topiladi. Tuzatish kiritilgan, ya'ni haqiqiy chuqurliklar aniqlangandan so'ng, o'zan tubi balandligi topiladi. Buning uchun chuqurlik 0 ga teng bo'lganda o'zan tubi balandligi berilgan, ya'ni 93,15 m. Ana shu balandlikdan har bir tuzatilgan chuqurlik ayirilib chiqiladi.

3. Daryo uchastkasining planini chizish uchun chuqurliklar berilgan profillarda, ya'ni magistralning 5 ta joyida o'lchangan. Shuning uchun har bir profil uchun alohida-alohida jadvallarda (3.4-3.8-jadvallar) hisoblashlarni amalga oshiramiz. Ushbu jadvallar ma'lumotlari asosida daryo uchastkasining plani izobatlarda chiziladi (3.13-rasm).

#### 3.4-jadval

Chuqurliklar jadvali, 1-profil

Nuqtalar	DBN dan masofa, m	Chuqurlik, h, m	Tuzatma	H <sub>tuz</sub> , m	O'zan tubi balandligi, m
Chap qirg'oq	41,5	0,00	0,15	0,00	93,15
1	45,0	0,36	0,15	0,21	92,94
2	48,0	0,92	0,15	0,77	92,38
3	53,0	1,12	0,15	0,97	92,18
4	57,5	1,41	0,15	1,26	91,89
5	64,0	2,02	0,15	1,87	91,28
6	69,2	2,91	0,15	2,76	90,39
7	73,5	4,51	0,15	4,36	88,79
8	79,4	4,05	0,15	3,90	89,25
9	81,5	4,32	0,15	4,17	88,98
10	89,0	4,42	0,15	4,27	88,88
11	92,5	3,52	0,15	3,37	89,78
12	94,0	4,27	0,15	4,12	89,03
13	98,5	4,62	0,15	4,47	88,68
14	101,0	5,12	0,15	4,97	88,18
15	106,5	4,92	0,15	4,77	88,38
16	109,0	4,42	0,15	4,27	88,88
17	112,0	3,36	0,15	3,31	89,84
18	116,5	2,71	0,15	2,56	90,59
19	120,8	1,67	0,15	1,52	91,63
20	123,0	0,65	0,15	0,50	92,65
O'ng qirg'oq	127,0	0,00	0,15	0,00	93,15


### 3.5-jadval

Chuqurliklar jadvali, 2-profil

Nuqtalar	DBN dan masofa, m	Chuqurlik, h, m	Tuzatma	H <sub>nz</sub> , m	O'zan tubi balandligi, m
Chap qirg'oq	36,7	0,00	0,10	0,00	93,15
1	37,5	0,32	0,10	0,22	92,93
2	42,5	0,30	0,10	0,20	92,95
3	46,5	0,58	0,10	0,48	92,67
4	49,0	0,69	0,10	0,59	92,56
5	55,7	0,95	0,10	0,85	92,30
6	62,3	1,50	0,10	1,40	91,75
7	69,3	1,50	0,10	1,40	91,75
8	74,5	1,59	0,10	1,49	89,25
9	79,2	2,50	0,10	2,40	91,66
10	84,1	2,63	0,10	2,53	90,62
11	90,2	3,30	0,10	3,20	89,95
12	97,3	3,50	0,10	3,40	89,75
13	102,5	3,69	0,10	3,59	89,56
14	106,0	4,10	0,10	4,00	89,15
15	112,0	4,70	0,10	4,60	88,55
16	119,0	4,81	0,10	4,71	88,44
17	126,0	4,0	0,10	3,90	89,25
18	133,0	2,70	0,10	2,60	90,55
19	135,0	2,64	0,10	2,54	90,61
O'ng qirg'oq	138,7	0,00	0,10	0,00	93,15

Yoqorida keltirilgan 3.3 – 3.5-jadvallar hamda quyidagi 3.6–3.8-jadvallar ma'lumotlari asosida o'r ganilayotgan daryo uchastkasining izobatlarda ifodalangan plani chiziladi (3.13-rasm).

Daryo uchastkasining planidan amaliyotda juda ko'p maqsadlarda, jumladan, gidrologik kuzatish postlarini o'rnatishda, ko'priklar yoki to'g'onlar qurishda, daryodan kanallarga suv olishda va boshqalarda foydalilanildi.



3.13-rasm. Daryo uchastkasining plani.

### 3.6-jadval

Chuqurliklar jadvali, 3-profil

Nuqtalar	DBN dan masofa, m	Chuqurlik, h, m	Tuzatma	$H_{tuz}$ , m	O'zan tubi balandligi, m
Chap qirg'oq	23,6	0,00	0,10	0,00	93,15
1	25,0	0,58	0,10	0,48	92,67
2	29,0	1,05	0,10	0,95	92,20
3	32,4	1,66	0,10	1,56	91,59
4	38,1	2,17	0,10	2,07	91,08
5	44,1	2,46	0,10	2,36	90,79
6	49,8	2,67	0,10	2,57	90,58
7	57,5	3,38	0,10	3,28	89,87
8	62,3	3,87	0,10	3,77	89,38
9	69,1	4,05	0,10	3,95	89,20
10	72,5	4,28	0,10	4,18	88,97
11	78,8	4,57	0,10	4,47	88,68
12	86,4	4,47	0,10	4,37	88,78
13	90,2	3,87	0,10	3,77	89,38
14	96,4	2,94	0,10	2,84	90,31
15	101,4	1,57	0,10	1,47	91,68
16	107,2	0,89	0,10	0,79	92,36
O'ng qirg'oq	118,0	0,00	0,10	0,00	93,15

### 3.7-jadval

Chuqurliklar jadvali, 4-profil

Nuqtalar	DBN dan masofa, m	Chuqurlik, h, m	Tuzatma	$H_{tuz}$ , m	O'zan tubi balandligi, m
Chap qirg'oq	38,4	0,00	0,05	0,00	93,15
1	42,8	0,79	0,05	0,74	92,41
2	46,8	1,19	0,05	1,14	92,01
3	59,2	1,39	0,05	1,34	91,81
4	55,5	2,09	0,05	2,04	91,11
5	59,1	2,99	0,05	2,94	90,21
6	64,2	3,29	0,05	3,24	89,91
7	70,0	4,12	0,05	4,07	89,08
8	78,1	4,57	0,05	4,52	88,63
9	82,4	5,37	0,05	5,32	87,81
10	84,6	5,46	0,05	5,41	87,74
11	89,0	4,54	0,05	4,49	88,66
12	94,6	3,41	0,05	3,33	89,79

13	99,9	2,90	0,05	2,85	90,30
14	101,4	2,15	0,05	2,10	91,05
15	114,1	1,55	0,05	1,30	91,85
16	118,0	0,93	0,05	0,88	92,27
O'ng qirg'oq	122,0	0,00	0,05	0,00	93,15

## 3.8-jadval

Chuqurliklar jadvali, 5-profil

Nuqtalar	DBN dan masofa, m	Chuqurlik, h, m	Tuzatma	H <sub>tuz</sub> , m	O'zan tubi balandligi, m
Chap qirg'oq	48,6	0,00	0,0	0,00	93,15
1	55,5	0,31	0,0	0,31	92,85
2	59,6	0,36	0,0	0,36	92,79
3	63,4	0,56	0,0	0,56	92,59
4	68,5	1,26	0,0	1,26	91,89
5	77,0	1,76	0,0	1,76	91,39
6	88,0	2,26	0,0	2,26	90,89
7	93,3	2,35	0,0	2,35	90,80
8	100,0	2,98	0,0	2,98	90,17
9	112,0	4,16	0,0	4,16	88,99
10	114,6	4,36	0,0	4,36	88,79
11	121,4	4,06	0,0	4,06	88,09
12	126,1	3,46	0,0	3,46	89,69
13	129,9	2,87	0,0	2,87	90,28
14	135,5	2,40	0,0	2,40	90,75
15	137,0	2,02	0,0	2,02	91,13
16	141,0	1,10	0,0	1,10	92,05
O'ng qirg'oq	145,5	0,00	0,0	0,00	93,15

## 3.9-jadval

Ishchi suv sathi jadvali

$$H \text{ "0"} \text{ gr} = 93,15 \text{ m}$$

Profillar	H <sub>ishchi</sub> , m	H <sub>srezka</sub> , m	Tuzatma, m
1	0,90	0,75	0,15
2	0,85	0,75	0,10
3	0,85	0,75	0,10
4	0,80	0,75	0,05
5	0,75	0,75	0,0

### **3.9. Ko‘llar va suv omborlarida o‘lchanan chuqurliklarni qayta ishlash, ularning planini tuzish**

Yuqorida qayd etilganidek, ko‘llar va suv omborlarida chuqurlik o‘lhash ishlarini daryolar uchun qo‘llanilgan usul bilan olib borish mumkin. Ba’zi hollarda esa boshqa usullardan ham foydalaniadi. Masalan, kvadrat usulida, ko‘llarda chuqurliklarni o‘lhash uchun uning planiga ega bo‘lishimiz kerak. Shu planda profil-larning o‘rni belgilab qo‘yiladi va ulardan plan bilan birgalikda, qo‘shimcha ravishda, kalka qog‘ozga nusxa ko‘chirib olinadi. So‘ngra barcha o‘lhash natijalari shu planga belgilab, yozib boriladi (3.14-rasm).

Ko‘llar va suv omborlarida chuqurlik o‘lhash paytida uch xil ish bajariladi, ya’ni bevosita chuqurlik o‘lchanadi, o‘lchanan nuqtalar o‘rni aniqlanadi, suv sathi kuzatiladi. So‘ngra shu planda izobat yoki gorizontal chiziqlar o‘tkaziladi va ular ko‘lning asosiy planiga ko‘chiriladi. Plan tuzilgandan so‘ng ko‘lning asosiy morfometrik elementlari hisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) ko‘lning suv yuzasi maydoni –  $F_0$ ,  $\text{km}^2$ ,  $\text{m}^2$ ;
- 2) ko‘lning uzunligi -  $L$ ,  $\text{km}$ ,  $\text{m}$ ;
- 3) ko‘lning maksimal kengligi –  $B_{\max}$ ,  $\text{m}$ ,  $\text{km}$ ;
- 4) ko‘lning o‘rtacha kengligi -  $B_{\text{ort}}$ ,  $\text{m}$ ,  $\text{km}$ ;
- 5) qirg‘oq chizig‘ining egri-bugriligi -  $K_e$ ;
- 6) ko‘lda to‘plangan suv hajmi -  $V$ ,  $\text{km}^3$ ,  $\text{m}^3$ ;
- 7) ko‘l tubining nishabligi -  $\mathfrak{I}_K$ ,  $\%$ .

**Ko‘l yuzasi** maydoni "0" izobat, ya’ni qirg‘oq chizig‘i bilan chegaralanadi. Bu ko‘rsatkich orollar maydonini qo‘shib yoki ularni hisobga olmay aniqlanishi mumkin:

- a) *ko‘lning suv yuzasi maydoni ( $F_0$ )*, bunda "0" izobat ichidagi suv yuzasigina hisobga olinadi;
- b) *ko‘lning umumiy maydoni ( $F_u$ )*, ko‘ldagi orollar yuzasi ham qo‘shib hisoblanadi.

**Ko‘lning eng katta uzunligi ( $L_{\max}$ )** – suv yuzasi bo‘ylab qarama-qarshi qirg‘oqlardagi bir-biridan eng uzoq masofada joylashgan ikki nuqtani tutashtiradigan chiziqning uzunligidir.

**Ko‘lning kengligi** ( $B_k$ ) ma'lum ko'llar guruhini o'zaro solishtirish maqsadida aniqlanadi. Ko'llarning eng katta kengligi ( $B_{\max}$ ) va o'rtacha kengligi  $B_{o'rt}$  sonli qiymatlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi:

a) *ko‘lning eng katta kengligi* ( $B_{\max}$ ), qarama-qarshi qirg‘oqlarda bir-biridan eng uzoq masofada joylashgan ikki nuqtani tutash-tiruvchi va shu bilan birga ko‘lning maksimal uzunligiga perpendikulyar bo‘lgan chiziqning qiymatidir;

b) *ko‘lning o'rtacha kengligi* ( $B_{o'rt}$ ), *ko‘lning suv yuzasi maydoni* ( $F_0$ )ning ko‘lning eng katta uzunligi ( $L_{\max}$ )ga nisbati sifatida hisoblab topiladi:

$$B_{o'rt} = \frac{F_0}{L_{\max}}.$$

**Ko‘lning qirg‘oq chizig‘i egri-bugriliği** tegishli koeffisiyent, ya’ni  $K_e$  bilan ifodalanadi. Bu koeffisiyent qirg‘oq chizig‘i qiyofasining sonli ko‘rsatkichi bo‘lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$K_e = \frac{\ell_0}{2 \cdot \sqrt{\pi \cdot F_0}},$$

bu yerda:  $\ell_0$  – qirg‘oq chizig‘i uzunligi bo‘lib, u kurvimetr yoki sirkul yordamida o‘lchanadi.

Ushbu ifodadan ko‘rinib turibdiki,  $K_e$  "0" izobat (izogips) bilan chegaralangan qirg‘oq chizig‘i uzunligining maydoni ko‘l maydoniga teng bo‘lgan doirani chegaralovchi aylana uzunligiga nisbati bilan ifodalanadi. Demak, suv yuzasi shakli mutlaq doira ko‘rinishidagi ko‘lda  $K_e = 1$  ga teng bo‘ladi. Ko’llarda qirg‘oq chizig‘i egri-bugri bo‘lganligi sababli doimo  $K_e > 1$  sharti bajariladi.

$$K_e = \frac{\ell_0}{L_{ay}}, \quad L_{ay} = 2 \cdot \pi \cdot R, \quad \omega = \pi \cdot R^2, \quad R = \sqrt{\frac{\omega}{\pi}}, \quad \omega = F_0,$$

$$L_{ay} = 2 \cdot \pi \cdot \sqrt{\frac{F_0}{\pi}} = 2 \cdot \sqrt{\pi \cdot F_0}.$$

**Ko'l hajmi** ( $V_k$ ) ko'lda mavjud bo'lgan suv hajmidir. Uning qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanishi mumkin:

$$V_K = \frac{\Delta h \cdot \sum_{i=0}^n (f_i + f_{i+1})}{2} + \frac{\Delta h' \cdot f_n}{3},$$

bu yerda:  $\Delta h$  – izobatlar farqi;  $h'$  – eng quyi izobat bilan eng katta chuqurlik orasidagi farq;  $i=0, 1, \dots, n$  bo'lib, izobatlar soni (tartibi)ni ifodalaydi;  $f_i, f_{i+1}, \dots, f_n$  – izobatlar bilan chegaralangan maydonlar.

**Ko'lning chuqurligi** ( $h_k$ ). Ko'llar hidrologiyasini o'rghanishda ularning eng katta ( $h_{max}$ ) va o'rtacha ( $h_{o'rt}$ ) chuqurliklarini aniqlashga zarurat sezilib, ular quyidagicha farqlanadi:

a) **ko'lning eng katta chuqurligi** ( $h_{max}$ ) – ko'llarda bajarilgan chuqurlik o'lchash ishlari natijasida to'plangan ma'lumotlarni solishtirish asosida aniqlanadi;

b) **ko'lning o'rtacha chuqurligi** ( $h_{o'rt}$ ) ko'ldagi suv hajmi ( $V_k$ )ni ko'lning suv yuzasi maydoni ( $F_o$ )ga nisbatida aniqlanadi:


$$h_{o'rt} = \frac{V_K}{F_o};$$

**Ko'l tubi nishabligi** ( $\mathfrak{I}_K$ ), ko'l kosasining ayrim qismlari yoki umumiy ko'l tubi uchun o'rtacha qiymat sifatida aniqlanishi mumkin. Ixtiyoriy ikki izogips (izobat) orasidagi nishablik quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\mathfrak{I}_{i,i+1} = \frac{(\ell_i + \ell_{i+1}) \cdot \Delta h}{20 \cdot (F_{i+1} - F_i)},$$

bu yerda:  $\mathfrak{I}_{i,i+1}$  – nishablik, % da;  $\ell_i + \ell_{i+1}$  – izobatalar uzunliklari, km;  $\Delta h$  – izobatalar farqi, m;  $F_{i+1}, F_i$  – izobatalar bilan chegaralangan maydonlar,  $\text{km}^2$ .

*Chimtarga kodi*



3.14-rasm. Chimtarg'a ko'lining plani. Masshtab: 1:1000


Ko‘lning izbatlarda ifodalangan plani asosida uning turli izobatlarga tegishli bo‘lgan maydonlari, izobatlar orasidagi o‘rtacha maydonlar, suv hajmlari hisoblanadi (3.10-jadval).

### 3.10-jadval

Hisoblash jadvali

Izobatlar tartibi	Izobatlar bilan chegaralangan maydon, $f, m^2$	Izobatalar orasidagi			Izobatlar bilan chegaralangan suv hajmi, $V, m^3$
		chuqurlik, $h, m$	o‘rtacha maydon, $f, m^2$	suv hajmi, $V, m^3$	
1	2	3	4	5	6
0	26800	1	23300	23300	64817
1	19800	1	16600	16600	41517
2	13400	1	11200	11200	24917
3	9000	1	7100	7100	13717
4	3200	1	3950	3950	6617
5	2700	1	1800	1800	2667
6	900	1	700	700	867
7	500	1	-	167	167

Yuqoridagi hisoblash jadvali (3.10-jadval) ma’lumotlari asosida ko‘llar yoki suv omborlarining maydon va hajm egri chiziqlari grafiklari birgalikda chiziladi (3.15-rasm). Ushbu chizma ko‘llar yoki suv omborlari suv resurslaridan foydalanishda muhim amaliy ahamiyatga ega.



3.15-rasm. Ko‘lning maydon va hajm egri chiziqlari.

## *Sinov savollari va topshiriqlar:*

1. “Chuqurlik” tushunchasiga ta’rif bering.
2. Chuqurlik o’lhash ishlari qanday maqsadlarni ko’zlab amalga oshiriladi?
3. Chuqurliklarni o’lhash vaqtida bajariladigan asosiy vazifalar nimalardan iborat?
4. Chuqurlik o’lhash ishlari qanday ko’rinishlarda amalga oshiriladi?
5. Chuqurlik o’lhash ishlarini bajarishda tanlanadigan kesmalar va ulardagи chuqurlik o’lchanadigan nuqtalar soni nimaga bog’liq?
6. Chuqurlik o’lhashda qo’llaniladigan asboblardan qaysilarini bilasiz?
7. Chuqurlik o’lhash natijalaridan qayerlarda foydalaniladi?
8. Chuqurliklarni qachon o’lchagan ma’qul?
9. Hozirgi vaqtida chuqurlik qaysi usulda o’lchanadi?
10. Exolot nima va u qayerlarda qo’llaniladi?
11. Chuqurlik o’lhash natijalari qanday qayta ishlanadi?
12. Daryo o’zanining morfometrik ko’rsatkichlarini aytib bering.
13. Daryo kengligi va o’rtacha chuqurlik deb nimaga aytildi?
14. Daryoning jonli kesma maydoniga ta’rif bering.
15. Namlangan perimetri qanday hisoblanadi?
16. Gidravlik radius deb nimaga aytildi?
17. Qanday sharoitda gidravlik radius bilan o’rtacha chuqurlik bir-biriga miqdoran yaqin bo’ladi?

## **4-BOB. DARYO O'ZANIDA SUVNING OQISH TEZLIGINI O'LCHASH**

Mazkur bobdag'i mavzularda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi: suvning oqish tezligini o'lhash, daryo (kanal) o'zanida suvning harakati haqida umumiy ma'lumotlar, tezlik pulsatsiyasi (tezlikning qiymati va yo'nalishi bo'yicha o'zgaruvchanligi), daryo oqimida tezliklarning taqsimlanishi, daryoda suvning oqish tezligini o'lhash usullari va asbob-uskunalar, gidrometrik parraklar; ularning turlari va asosiy qismlari, gidrometrik parraklar nazariyasi asoslari, hozirgi kunda qo'llaniladigan parraklar ta'rifi, parrakni darajalash, ya'ni graduirovkalash, yuza qalqimalari, tezlikni hisoblash usuli, oqim ta'sir kuchini hisobga olishga asoslangan usul, tezlikni gidrometrik naychalar (trubkalar) va boshqa usullar yordamida aniqlash, suvning oqish tezligini ultratovush usulida o'lhash va boshqalar.

### **4.1. Ochiq o'zanlarda suvning harakati haqida umumiy ma'lumotlar**

Ma'lumki, daryo o'zanida suv **og'irlilik kuchi** (G) ta'sirida harakatga keladi. Bu kuchning tashkil etuvchilari quyidagilardan iborat (4.1-rasm, a):

1. O'zan tubiga perpendikulyar yo'nalishda ta'sir etadigan vertikal tashkil etuvchi kuch ( $G_v$ ). Bu kuch o'zan tubidan bo'ladigan aks ta'sir kuchi bilan muvozanatlashadi;

2. O'zan tubiga nisbatan parallel yo'nalishda ta'sir etadigan gorizontal tashkil etuvchi kuch ( $G_g$ ). Bu kuch o'zan tubi nishabligiga bog'liq bo'lib, o'zanda suvning harakatini vujudga keltiradi. Gorizontal tashkil etuvchi kuch doimiy ta'sir qilib turgani uchun daryoda suv tezlanish bilan harakat qilishi kerak edi. Lekin, o'zan tubi va qirg'oqlar bilan suv massalari orasidagi ishqalanish tufayli unday bo'lmaydi.


Daryo uzunligi bo'yicha o'zan tubi nishabligi, o'zan tubi g'a-dir-budurligining o'zgarishi, o'zanning torayishi yoki kengayishi kabi omillar harakatlantiruvchi va unga qarshilik ko'rsatuvchi kuchlar muvozanatini o'zgartirib turadi. Natijada daryo uzunligi bo'yicha suvning oqish tezligi turlicha bo'ladi.

Daryo o'zanida oqayotgan suvning harakatini quyidagi ikki turga – ***o'zgarmas harakat*** va ***o'zgaruvchan harakatlarga*** ajratish mumkin.

O'zgarmas harakat, o'z navbatida, ikkiga – **tekis** va **tekismas harakatlarga bo'linadi**.

Tekis harakatda suvning oqish tezligi ( $\mathcal{J}$ ), jonli kesma maydoni ( $\omega$ ), suv sarfi (Q) daryo uzunligi bo'yicha o'zgarmas, ya'ni bir xil qiymatlarda kuzatiladi. Natijada o'zan tubi nishabligi ( $i$ ) va suv sathi nishabligi ( $J$ ) bir-biriga teng yoki parallel bo'ladi (4.1-rasm, a).

Tekismas harakatda suv sathi nishabligi ( $J$ ), suvning oqish tezligi ( $\mathcal{J}$ ), jonli kesma maydoni ( $\omega$ ) daryo uzunligi bo'yicha o'zgarib turadi. Tekismas harakat sekinlanuvchan va tezlanuvchan harakatlarga bo'linadi. Sekinlanuvchan harakatda suv sathi nishabligi ( $J$ ) o'zan tubi nishabligi ( $i$ ) dan kichik bo'ladi. Tezlanuvchan harakatda esa uning teskarisi kuzatiladi (4.1-rasm, b; c).



4.1-rasm. Daryo suvi harakatining turlari: a – tekis harakat, b, c – tekismas harakat;  $\rightarrow$  harakat yo'nalishi,  $J$  – suv yuzasi nishabligi,  $i$  – o'zan tubi nishabligi,  $G$  – harakatlantiruvchi kuch,  $G_g$ ,  $G_v$  – harakatlantiruvchi kuchning gorizontal va vertikal tashkil etuvchilari.

O‘zgaruvchan harakatda oqimning barcha gidravlik elementlari, jumladan, suvning oqish tezligi ( $\vartheta$ ), jonli kesma maydoni ( $\omega$ ), suv sarfi (Q) va boshqalar daryo uzunligi hamda vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan bo‘ladi. Bunday harakat daryolarda to‘linsuv davrida, gidrotexnik inshootlar, ayniqsa suv omborlari to‘g‘onlarining quyi byeflarida kuzatiladi.


## 4.2. Daryo o‘zanida tezlikning taqsimlanishi

Suvning oqish tezligini o‘lhash suv sarfini aniqlashda, gidrotexnik inshootlarni loyihalash va qurishda, shu bilan birga, qator ilmiy-amaliy masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuda suvning oqish tezligiga ta’rif berilib, so‘ngra tezlikni o‘lhashning maqsad va vazifalari, tezlikning jonli kesma bo‘yicha taqsimlanishi, o‘zanda suvning harakati rejimi turlari hamda tezlikka ta’sir etuvchi omillar haqida ma’lumotlar keltiriladi.

*Daryo o‘zanidagi suv massasining vaqt birligi ichida bosib o‘tgan masofasi suvning oqish tezligini ifodalaydi.*

Tezlikni o‘lhashdan ko‘zlangan maqsad – suv rejimining asosiy elementi hisoblangan suv sarfini aniqlashdan iborat. Xalq xo‘jaligining bir qancha tarmoqlarini rivojlantirish uchun suv sarfini aniq bilish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa o‘zandagi oqim tezligini aniqlash talab etiladi. Turli gidrotexnik va suv xo‘jaligi inshootlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanishda ham o‘zanda suvning oqish tezligini hisobga olish zarur bo‘ladi.

Suvning oqish tezligi jonli kesma bo‘yicha juda murakkab taqsimlangan bo‘ladi. Chunki o‘zandagi suv massasi aksariyat hollarda, *turbulent rejimli* harakatda bo‘ladi. Turbulent rejimli harakatning asosiy xossalardan biri shuki, suv massasidagi har bir molekula vaqt birligi ichida ham yo‘nalishini, ham tezligini o‘zgartirib turadi. Umuman, suyuqliklar harakati *laminar* va *turbulent* rejimli harakatlarga bo‘linadi. *Laminar rejimli* harakatda suyuqlik massasini tashkil etuvchi qatlamlar va zarrachalar bir xil yo‘nalishda o‘zaro parallel harakat qiladi.



4.2-rasm. Daryo o'zanida tezlikning taqsimlanishi:  
a) ochiq o'zanlarda; b) muz bilan qoplangan o'zanlarda.

O'zanda suvning oqish tezligi suyuqlik betida kichikroq bo'lib, ma'lum chuqurlikkacha ortib boradi va undan so'ng yana kamayadi. Tezlikning chuqurlik bo'yicha bunday taqsimlanishiga havo bilan suv yuzasi o'rtasidagi ishqalanish hamda harakatlanayotgan suv massasi bilan o'zan tubi orasidagi ishqalanish sabab bo'ladi.

Shamol suv beti tezligini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Oqim yo'nalishi bilan shamolning yo'nalishi mos kelganda suv yuzasidagi tezlik ortadi, aks holda esa kamayadi.

Jonli kesmada tezlikning taqsimlanish qonuniyatini o'rghanish maqsadida *izotaxlar* o'tkaziladi. Izotaxlar jonli kesmada bir xil tezlikdagi nuqtalarni tutashtiradigan egri chiziqlardir.

### 4.3. Daryoda suvning oqish tezligini o'lhash usullari

Ushbu mavzuda daryolarda suvning oqish tezligini gidrometrik parrak yordamida o'lhash usullari, parrak diametri va chuqurlikka bog'liq holda tezlikni o'lhash tartibi, tezlikni nuqta hamda integratsion usullarda o'lhash vaqtida bajariladigan ishlar yoritiladi.

Daryoda suvning oqish tezligini o'lhash usullari va asboblari turlichadir (4.3-rasm).

Gidrometrik parrak yordamida tezliklarni o'lhash vaqtida asosan quyidagi ikki usul qullaniladi:

*1) nuqta usuli;*

*2) integratsion usul.*

*Nuqta usulini* qo'llashda chuqurlik vertikalida ma'lum nuqtalar tanlanadi. Agar vertikalda 5 ta nuqtada tezliklarni o'lchamoqchi bo'lsak, ularning chuqurliklari quyidagi tartibda belgilanadi:

1-nuqtada parrak suv yuzasidan 10 sm chuqurlikka tushiriladi;

2-nuqta 0,2h chuqurlikda;

3-nuqta 0,6h chuqurlikda;

4-nuqta 0,8h chuqurlikda;

5-nuqta o'zan tubiga yaqin bo'ladi (4.4-rasm).

Agar o'zanda suv o'tlari rivojlangan bo'lsa, 0,4h chuqurlikdagi nuqta ham qo'shiladi. Ko'rinish turibdiki, vertikalning chuqurligi 0,5 m bo'lsa, tezlikni 5 nuqtada o'lhash mumkin emas. Tezliklar chuqurliklarga bog'liq holda 3 ta nuqtada (0,2h; 0,6h; 0,8h), 2 ta nuqtada (0,2h; 0,8h) va 1 ta nuqtada (0,6h) ham o'lchanadi (2.7-rasm).


Tezliklarni gidrometrik parrak diametriga va chuqurlikka bog'liq holda vertikalda nechta nuqtada o'lhash mumkinligi quyidagi jadvalda tavsiya etiladi (4.1-jadval).

#### *4.1-jadval*


Gidrometrik parrak diametri va chuqurlikka bog'liq  
holda nuqtalar sonini belgilash

Diametr, d = 12-13 sm		d = 5-7 sm	
Chuqurlik, h, m	Nuqtalar soni	Chuqurlik, h, m	Nuqtalar soni
> 1,00	5 ta	> 0,6	5 ta
0,6-1,0	3 ta	0,4-0,2	3 ta
0,35-0,60	2 ta	0,20-0,40	2 ta
0,20-0,35	1 ta	0,10-0,20	1 ta


Yuqoridagi 4.1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, gidrometrik parrakning diametri  $d = 12-13$  sm bo'lganda, 1 metrdan katta chuqurliklarda nuqtalar soni 5 tadan kam bo'lmasi kerak. Ikkinci holatda, ya'ni  $d = 5-7$  sm bo'lganda, 5 ta nuqta, chuqurlik 0,6 metrdan katta bo'lgan holatlarda olinadi.



4.3-rasm. Suvning oqish tezligini o'chash usullari va asboblari.



a



b

4.4-rasm. Chuqurlik vertikkallaridagi nuqtalarda gidrometrik parrakning joylashishi: a) ochiq o'zan; b) muz bilan qoplangan o'zan.


Har bir nuqtada vertushkani, kamida, 100 sekund ushlab turish kerak. Nuqta usulida tezliklarni o'chash vaqtida har bir nuqtadagi

tezlikni t vaqt (100 sek) davomida parrakning umumiyligi aylanishlari soni n ga bog'liq holda aniqlash mumkin (agar pulsatsiya hodisasining qonuniyati aniq bo'lsa). Aks holda, nuqtadagi tezlik signallar soni bo'yicha aniqlanadi. Shu maqsadda alohida-alohida signallar uchun ketgan vaqt belgilanadi.

*Integratsion usul.* Bu usul yordamida vertikaldagi o'rtacha tezlikni yoki butun jonli kesma bo'yicha o'rtacha tezlikni to'g'ridan-to'g'ri aniqlash mumkin.

Vertikaldagi o'rtacha tezlikni integratsion usul bilan aniqlashda gidrometrik parrak asta-sekin suv yuzasidan o'zan tubiga tushiriladi. Shu vaqt davomida qayd etilgan signallar soni sanab boriladi. Gidrometrik parrakni suv yuzasiga ko'tarib olishda ham yuqorida qayd etilganlarga amal qilish kerak. Eng muhimmi, gidrometrik parrakni tushirish tezligi uni ko'tarish tezligiga teng bo'lishi kerak (4.5-rasm).

Jonli kesma bo'yicha o'rtacha tezlikni integratsion usul bilan aniqlash katta tajriba va mahoratni talab qiladi. Bunda qayiqni bir xil tezlikda boshqarish kerak. Tezlikni integratsion usul bilan o'lchashda vaqtdan yutamiz. Bu usul birinchi marta O'rta Osiyoda B.A.Simbirskiy tomonidan qo'llanilgan. U tezlikni oldin nuqta usuli bilan o'lchagan, so'ng integratsion usulidan foydalangan. Ularni solishtirganda oradagi farq juda kam bo'lgan.



4.5-rasm. Tezlikni integratsion usul bilan o'lchash sxemasi.

#### 4.4. Gidrometrik parrak nazariyasi asoslari


Tajriba asosida parrakning bir sekunddagisi aylanishlari soni  $n$  bilan suvning oqish tezligi  $\vartheta$  orasidagi bog'lanishni topish *gidrometrik parrakni tarirovkalash*, ya'ni darajalash deb ataladi.

Tarirovkalash maqsadida o'tkaziladigan tajriba tabiat hodisa-siga teskari holatda olib boriladi. Ma'lumki, tabiiy sharoitda gidrometrik parrak suv oqimi ta'sirida aylanadi. Tarirovkalashda esa unga teskari ish olib boriladi, aniqrog'i, suv massasi tinch holatda bo'ladi, gidrometrik parrak esa belgilangan L masofada turli tezliklarda harakatlantiriladi.


Ma'lum t vaqt ichida belgilangan tezlikda harakatlantirilgan gidrometrik parrakning umumiyligi aylanishlari soni N ni aniqlaymiz. Eng kichik tezlikdan boshlab, tezliklarni sekundiga 3 m gacha o'zgartirib, tajribani qayta-qayta takrorlaymiz. Qayd etish lozimki, tajriba sekundiga 3 m dan ortiq tezlikda o'tkazilmaydi. Tajribalar soni 15 tadan 30 tagacha bo'lishi mumkin. Har bir tajriba natijasida aniqlangan  $\theta$  va n lar qayd etib boriladi:  $\theta_1 = n_1$ ;  $\theta_2 = n_2$ ;  $\theta_3 = n_3$  va hokazo. So'ng tajribalar natijalaridan foydalanib,  $\theta = f(n)$  bog'lanish grafigi chiziladi (4.10-rasm).

Tajribalar maxsus tarirovka havzalarida o'tkaziladi. Ular ikki turda bo'ladi: 1) to'g'ri o'zanli kanal shaklida; 2) o'zani aylana shaklida (4.9 va 4.11-rasmlar).


Ushbu havzalarda gidrometrik parrak 5-10 m masofada harakatlantiriladi. Yuqorida qayd etilgan tajribalar majmuasi 4-5 marta qaytariladi. Tarirovkalashda, dastlab, parrakni juda kichik tezlik bilan harakatlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Juda kichik tezlikda parrak aylanmaydi, tezlik 0,04 m/s atrofida bo'lganda, parrak sekin aylana boshlaydi.



4.6-rasm. GR-21M markali  
gidrometrik parrak



4.7-rasm. OTT C31 (10.002)  
markali universal parrak



4.8-rasm. Ott C31 markali universal parrakning shtangada ko‘rinishi.



Zavodda ishlab chiqarilgan har bitta gidrometrik parrak albatta tarirovka qilinadi. Tarirovka qilingan gidrometrik parrakni ikki yil davomida ishlatish mumkin.

Gidrometrik parrak bilan tezlikni o‘lchashdan oldin uning ishga yaroqlilik holati maxsus tekshiruvdan o‘tkazilishi lozim. Ayniqsa, asbobning parragiga alohida e’tibor berilishi shart. Shu tarzda gidrometrik parrak o‘lchash ishlariga tayyorlanadi.

#### 4.5. Gidrometrik parrakni darajalash

**Darajalash – tarirovka ma’lumotlarini ishlab chiqish.** Gidrometrik parrakni darajalash, ya’ni tarirovkalash ma’lumotlari grafik yoki analitik usulda ishlab chiqilishi mumkin. Lekin bunda *grafik usul* asosiy hisoblanadi, chunki, grafik usuldan foydalanib, tarirovka ma’lumotlarini ishlab chiqish, birinchidan, oddiy va, shu bilan birga, natija yaqqol ko‘rinib turadi.

Grafik usulni qo‘llashda  $\vartheta$  va  $n$  larning tajriba vaqtida aniqlangan juft qiymatlari bo‘lishi kerak. Grafik millimetrovka qo‘g‘ozga chiziladi va «*gidrometrik parrakning pasporti*» hisoblanadi (4.10-rasm). Ushbu grafikning amaliy ahamiyati juda kattadir. Chunki, mazkur grafik yordamida tezlikni hisoblash jadvali tuziladi va undan, ya’ni hisoblash jadvalidan gidrometrik parrak yordamida o‘lchangan tezliklarni aniqlashda foydalaniladi.



4.9-rasm. Gidrotermik parrakni darajalash havzalari:  
a) o'zani aylana shaklida; b) to'g'ri o'zanli kanal.

Tarirovkalash grafigidan amalda foydalanishda xatolikni kamaytirish uchun shu grafik asosida quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan hisoblash jadvali tuziladi (4.2-jadval).


#### 4.2-jadval

Parrakning bir sekunddagи aylanishlari soni n ga bog'liq holda tezlik  $\Delta\theta$  ni aniqlash jadvali


n	9, m/s									
	0,00	0,01	0,02	0,03	0,04	0,05	0,06	0,07	0,08	0,09
0,0	0,03	0,05	0,07	0,09	0,11	0,13	0,15	0,21	0,27	0,33
0,1	0,347	0,36	0,38	0,393	0,406	0,419	0,432	0,445	0,458	0,471
0,2	0,485	0,498	0,511	0,524	0,537	0,55	0,552	0,555		

Jadvaldagи 0,03 va 0,15 m/s tezliklar n ga bog'liq holda grafikdan aniqlanadi. Ularning oralig'i esa interpolyatsiya usuli yordamida to'ldiriladi. Tezlikning undan keyingi qiymatlarini topish uchun  $\Delta\theta$  aniqlanadi va uning qiymatlari asosida tezlik 5 m/s ga yetguncha hisoblashlar davom ettiriladi. Yuqorida bayon etilgan ishlar tajribali muhandislar tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan 4.2-jadvaldan suv o'lchash amaliyotida foydalanish juda katta qulaylik yaratadi, aniqrog'i hisoblash ishlarini osonlashtiradi.



4.10-rasm. Suvning oqish tezligi ( $\vartheta$ ) bilan parrakning bir sekunddagi aylanishlar soni (n) orasidagi bog‘lanish grafigi.



4.11-rasm. O‘zani aylana shaklidagi tarirovkalash kanali sxemasi:  
1-kanal o‘zani; 2-gidrotermik parrak; 3-tutqich; 4-aylantirgich;  
5-vertikal o‘q; 6-gorizontal val; 7-poydevor.


#### 4.6. Qalqimalar yordamida tezlikni aniqlash

Suvning oqish tezligini o'lchash yoki aniqlashda qo'llaniladigan usullardan yana biri qalqimalar usulidir. Suv betida suzuvchi har qanday qattiq jism qalqima bo'la oladi. Qalqimalar ishlash prinsipi, tuzilishi, ko'rinishiga qarab quyidagi bir qancha turlarga bo'linadi (4.12-rasm):

- 1) suv yuzasi qalqimalari;
- 2) chuqurlik qalqimalari;
- 3) integrator qalqimalari;
- 4) gidrometrik tayoqcha.


*Suv yuzasi qalqimalari*, yoki qisqacha, yuza qalqimalar suv betida oqib boradi. Ular hozirgi kunda standart holda yog'ochdan aylana yoki krest shakllarida yasaladi (4.12-rasm).

Daryo kengligi 100 m gacha bo'lsa, aylana shakldagi ( $d = 15-30$  sm; qalinligi 2-4 sm), daryo kengligi 100 m dan katta bo'lsa, qalqimalarning krest shaklidagisi ishlatiladi (uzunligi 60 sm; kengligi - 20 sm; qalinligi - 4 sm ).



4.12-rasm. Tezlikni qalqimalar yordamida aniqlash:  
a), b) - yuza qalqimalari, c) - chuqurlik qalqimasi.


*Chuqurlik qalqimalari* ma'lum chuqurlikdagi tezliklarni o'chash imkonini beradi. Bu qalqimalar 2 qismdan iborat bo'ladi: 1-qismi yengilroq bo'lib, suv yuzasida harakatlanadi, 2-qismi esa asosiy bo'lib, og'ir moddadani yasaladi va ma'lum chuqurlikda harakatlanadi (4.12-rasm, c; 4.13-rasm). Ular o'zaro ip bilan tutashtiriladi. Ipni uzaytirib yoki qisqartirib turish mumkin. Chuqurlik qalqimalari yordamida vertikaldagi o'rtacha tezlikni aniqlash imkoniyati mavjud.



4.13-rasm. Chuqurlik qalqimalarining turlari.

*Integrator qalqimalar* chuqurlik bo'yicha o'rtacha tezlikni aniqlashga imkon beradi. Bunda tezlik tennis sharining o'zan tubidan suv betiga qalqib chiqishda bosib o'tgan masofasi asosida aniqlanadi (4.14-rasm).

Ko'rinish turibdiki, integrator qalqima yordamida suvning oqish tezligini aniqlashda ikkita kattalik muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Ularning birinchisi chuqurlik  $h$  bo'lsa, ikkinchisi integrator qalqimaning suv yuzasiga qalqib chiqish masofasi  $I$  dir.



4.14-rasm. Integrator qalqimaning suv yuzasiga qalqib chiqish sxemasi.

Masofa  $l$  va uni bosib o'tish uchun ketgan vaqt  $t$  ma'lum bo'lsa, tezlik quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$V = \frac{l}{t}$$

bu yerda  $l$  – integrator qalqimaning qalqib chiqishda bosib o'tgan masofasi,  $t$  – shu masofani bosib o'tishga sarflangan vaqt.


**Gidrometrik tayoqcha.** Gidrometrik tayoqchaning turlari ko'p bo'lib, ular daryo uchastkalari bo'yicha o'rtacha tezlikni aniqlashga imkon beradi.

Gidrometrik tayoqchaning bir uchiga ma'lum og'irlikdagi jism o'rnatiladi. Uning og'irligi tayoqchaning ko'tarish qobiliyatiga teng va uni suvga tushirganda ma'lum qiyalikda (taxminan vertikal) suza olishi kerak. Shu bilan birga og'irlik yoki o'rnatilgan qismi o'zan tubiga yaqinroq holda oqishi talab etiladi (4.15-rasm).

Gidrometrik tayoqcha oqim yo'nalishi bo'yicha vertikaldagi o'rtacha tezlikni aniqlash imkonini ham beradi. Bunda tayoqchaning uchi o'zan tubiga tegmasligi va  $0,94 \cdot h$  chuqurlikda bo'lishi kerak. Qisqa masofalarda tayoqcha bilan tezlik

o'lchanganda, u katta tezliklarni beradi. Shuning uchun oraliq masofa uzunroq bo'lgani ma'qul.

Gidrometrik tayoqcha yordamida o'rtacha tezlikni o'lhash imkoniyati ancha chegaralangan. Chunki tabiiy o'zan tubi tekis bo'lgan daryolar kamdan-kam uchraydi. Agar daryo o'zani tubi tekis bo'lmasa, gidrometrik tayoqcha o'zandagi to'siqlarga tegib, ushlanib qoladi, yoki unga tegib, tepaga ko'tarilib ketadi. Bu esa tezlikni aniq o'lhash imkonini bermaydi.



4.15-rasm. Gidrometrik tayoqchaning turlari:

a) aylana shaklidagi; b) “+” shaklidagi.


Xulosa sifatida aytish mumkinki, barcha turdag'i qalqimalar bilan o'lchanigan tezlik haqiqiy tezlikdan katta bo'ladi. Buning asosiy sababi turbulentlikdir.

Qalqimalar bilan tezlikni o'lhashda shamol bo'lmasligi, o'zanda suv o'simliklari, muzlash hodisalari qayd etilmamasligi lozim. Daryo o'zani esa to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lishi kerak.

**Gidrometrik trubkalar.** Daryo oqimi tezligini yuqorida sanab o'tilgan usullardan tashqari, yana gidrometrik trubkalar yordamida ham aniqlash mumkin.

Oqim tezligini gidrometrik trubkalar yordamida o'lhash tezlik tufayli vujudga kelgan bosim balandligini aniqlashga asoslangan. Oqim tezligi va tezlik bosimi balandligi orasidagi bog'liqliknini aniqlash uchun D.Bernulli tenglamasi qo'llaniladi:

$$z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{U_1^2}{2g} = z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{U_2^2}{2g},$$



4.16-rasm. Gidrometrik trubka yordamida oqim tezligini o'lhash sxemasi.

yuqoridagi ifodada:  $P_1$  – A nuqtadagi gidrodinamik bosim;  $P_2$  – B nuqtadagi gidrodinamik bosim;  $\gamma$  - suvning solishtirma og'irligi;  $U_1$  – A nuqtadagi mahalliy tezlik;  $U_2$  – B nuqtadagi mahalliy tezlik,  $U_2=0$ . Shuningdek,  $Z_1=Z_2$  bo'ladi, chunki A va B nuqtalar gorizontal joylashgan. Suvning trubkadan ko'tarilish balandligi quyidagi qiymatga teng:

$$h = \frac{U_1^2}{2g}$$


Agar yuqoridagi ifodada  $Z_1$  va  $Z_2$  larni hisobga olmaydigan bo'lsak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{P_2 - P_1}{\gamma} = \frac{U_1^2}{2g} = h,$$


natijada bu yerdagi tezlik

$$U_t = \sqrt{2 \cdot g \cdot h}$$

qiymatga teng bo'ladi.



4.17- rasm. Gidrometrik trubka qurilmasida oqim tezligini o'lchash sxemasi. 1-trubkaning qabul qiluvchi qismi, u o'z navbatida: 2- dinamik, oqimga qarama-qarshi yo'nalishda; 3-statistik, oqimga normal yo'nalishda joylashgan qismlardan iborat; 4, 5 va 9-rezina trubkalar; 6-manometr; 7-troynik; 8-ventil (kran).



4.18-rasm. Gidrometrik trubkaning qabul qiluvchi qismi va gidrodinamik bosim epyurasi sxemasi.

Gidrometrik trubkalar dala sharoitida kamdan-kam ishlataladi. Chunki uning ishlashiga qishda suvning muzlashi, yozda esa suv o'tlari va oqiziqlar oqimi miqdorining katta bo'lishi salbiy ta'sir etadi. Gidrometrik trubkalar, asosan, laboratoriya sharoitida keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda gidrometrik trubkalarning tuzilishiga ko'ra ko'plab turlarini ajratish mumkin. Bunda ular tuzilishining o'zgarishi tezlikni aniqlash qulayligini va aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuqorida tanishib chiqilgan qalqimalar gidrometrik trubkalar suv o'lhash amaliyotida juda kam qo'llaniladi. Lekin, qalqimalarning ijobiy tomoni shundaki, ular yordamida qirg'oqda turib oqim tezligini o'lchay olamiz. Masalan, suv toshqinlari davrida gidrometrik parrak bilan tezlikni o'lhash xavfli. Bunday sharoitda qalqimadan foydalanish esa ancha qulaydir. Eng muhimi, qalqimalar yordamida tezlikni aniqlashda gidrometrik parrakka nisbatan kamroq mablag', vaqt va mehnat sarflanadi.

#### 4.7. Suvning oqish tezligini hisoblash usullari

Daryo va kanallarda suvning oqish tezligini o'lhash ishlari bilan yuqoridagi mavzularda tanishib chiqdik. Ushbu mavzuda asosiy e'tibor o'lchanigan ma'lumotlarni qayta ishslashga qaratilib, tezliklarni hisoblash usullari hamda bunda bajariladigan ishlar tartibi yoritiladi.

Gidrometrik parrak yordamida suvning oqish tezligini to'g'ridan-to'g'ri aniqlab bo'lmaydi. Bunda suv rejimining birorta elementini aniqlash yoki asbobning ko'rsatkichini aniqlash yordamida tezlikni hisoblab topish mumkin. Masalan, tezlik gidrometrik parrak bilan o'lchansa, parrakning 1 sekunddagи aylanishlar sonini aniqlaymiz. Tezlik ( $V$ ) va aylanishlar soni ( $n$ ) orasidagi bog'lanishdan yoki tarirovka jadvalidan tezlikni aniqlaymiz.

**Gidrometrik parrak yordamida nuqtada o'lchanigan tezlikni hisoblash.** Buning uchun tezlikni o'lhash jadvalini tuzamiz (4.3-jadval).

Vertikaldagi o‘rtacha tezlikni hisoblashda nuqtalarda qayd etilgan tezliklarning o‘rtacha arifmetik qiymatini olish mumkin emas. Shuning uchun vertikaldagi o‘rtacha tezlikni aniqlashda empirik ifodalar va maxsus grafiklar tuzish usullaridan foydalaniлади.

### 4.3-jadval

Tezlikni o‘lchash jadvali, vertikalning chuqurligi 2,54 m

T.r.	Parrak №	Ishchi chuq-k, h, m	Vertushka tushirilgan chuqurlik		Qo‘ng‘iroq soni	Vaqt, sek	Umumiylayla- nishlar soni, N	1 sekundagi aylanishlar soni, n	Tezlik, g, m/s
			Qismda	Metrda					
1	III	2,54	Yuza	0,10	17	102	340	3,33	0,806
2				0,2	15	101	300	2,97	0,719
3				0,60	1,52	14	101	2,77	0,674
4				0,80	2,03	11	104	2,11	0,522
5			O‘z.t	2,44	10	107	200	1,86	0,456

Vertikaldagi o‘rtacha tezlikni aniqlash maqsadida quyidagi empirik ifodalar taklif etiladi:

1) agar tezlik vertikalda 5 ta nuqtada o‘lchangان bo‘lsa:

$$\vartheta_{o'rt} = 0,1(\vartheta_{yuza} + 3 \cdot \vartheta_{0,2} + 3 \cdot \vartheta_{0,6} + 2 \cdot \vartheta_{0,8} + \vartheta_{o'zt});$$

2) tezlik 3 ta nuqtada o‘lchangان bo‘lsa:

$$\vartheta_{o'rt} = 0,25(\vartheta_{0,2} + 2 \cdot \vartheta_{0,6} + \vartheta_{0,8});$$

3) tezlik 2 ta nuqtada o‘lchangان bo‘lsa:

$$\vartheta_{o'rt} = 0,5(\vartheta_{0,2} + \vartheta_{0,8});$$

4) tezlik 1 ta nuqtada o‘lchangان bo‘lsa:

$$\vartheta_{o'rt} = \vartheta_{0,6}.$$

Vertikaldagi o‘rtacha tezlik yuqoridagi ifodalar yordamida aniqlansa, u holda tezlik analitik usul bilan hisoblandi deyiladi. Vertikaldagi o‘rtacha tezlikni aniqlashning, yuqoridagilardan tashqari, yana grafik usuli ham bor.


**Vertikaldagi o‘rtacha tezlikni grafik usuli yordamida hisoblash.** Bunda, birinchi galda, tezliklarning vertikal bo‘yicha taqsimlanish

epyurasi chiziladi (4.19-rasm). Keyingi navbatda tezlikni quyidagi ikki usul bilan hisoblash mumkin:

1) **grafo-mexanik usul.** Bu usul yordamida suvning o'rtacha oqish tezligini hisoblaganda ishni tezlik epyurasini chizishdan boshlaymiz. So'ng uning maydoni  $F$  aniqlanadi. Maydonning o'lcham birligi  $m^2$  da chiqadi. Uni h chuqurlikka bo'lib yuborsak, vertikaldagi o'rtacha tezlikka ega bo'lamiz:

$$\vartheta_{\text{o'rta}} = \frac{F}{h},$$

bu yerda:  $F$ - tezlik epyuzasi maydoni,  $m^2/s$ ;  $h$  – tezlik vertikali chuqurligi, m.




4.19-rasm. Tezlik epyurasi. Grafo-mexanik usul yordamida vertikaldagi o'rtacha tezlikni hisoblash.

2) **grafo-analitik usul** bilan hisoblanganda chizilgan tezlik epyurasini 2 yoki 4 mm dan bo'laklarga bo'lamiz. Qanday qiymatda bo'laklarga bo'lish epyuraning egriligiga bog'liq bo'ladi (4.20-rasm). Agar epyura juda egri bo'lsa, uni 2 mm o'lchamdagি kvadratlarga bo'lamiz. Vertikaldagi o'rtacha tezlik quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$\vartheta_{\text{ср}} = \frac{\sum_{i=1}^n \vartheta_i + \frac{m}{n} \cdot \vartheta_n}{\frac{m}{n} + \frac{n}{n}};$$

bu yerda:  $\sum_{i=1}^n \vartheta_i$  - tezlik epyurasida ajratilgan bo'laklarga mos keladigan tezliklar yig'indisi;  $\vartheta$  - tezlik epyurasidagi eng kichik tezlik;  $m$  - epyura bo'laklari orasidagi farq (2 yoki 4 mm);  $n$  - tezlik epyurasida ajratilgan bo'laklar soni.



4.20-rasm. Tezlik epyurasi. Grafo-analitik usul yordamida vertikaldagi o'rtacha tezlikni hisoblash.

Yuqoridagi har ikki usuldan asosiysi **grafo-mexanik** usuldir. Bu usul vertikaldagi o'rtacha tezliklarni aniqlashda etalon hisoblanadi.

**Qalqimalar yordamida o'rtacha tezlikni hisoblash usullari.** O'rtacha tezliklarni qalqimalar yordamida hisoblash uchun qirqimlar orasidagi masofa va uni bosib o'tish vaqtini hamda DBN dan masofasi (o'lchash jadvali) berilgan bo'lishi kerak (4.4-jadval).

Qalqimalar yordamida o'rtacha tezlik quyidagi ikki xil usul bilan hisoblanadi:

1) *analitik usul*;

2) *grafik usul*.

### **1. Analitik usul.**

#### **1.1. Maksimal tezliklar usuli bilan hisoblash ifodasi:**

$$\vartheta_{\max \text{ o'rt}} = \frac{\vartheta_{1,\max} + \vartheta_{2,\max} + \vartheta_{3,\max}}{3} = \frac{2,0 + 2,1 + 2,0}{3} = 2,03 \text{ m/s},$$

bu yerda:  $\vartheta_{\max}$  – maksimal tezliklar (3 ta maksimal tezliklar).

Shundan so'ng o'rtacha tezlik quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$\vartheta_{o'n.} = K \cdot \vartheta_{\max \text{ o'rt}} = 0,85 \cdot 2,03 \text{ m/s} = 1,725 \text{ m/s}$$

ifodadagi K – yuza tezlikdan o'rtacha tezlikka o'tish koeffisiyenti bo'lib, uning qiymati 0,85 ga teng.

### **4.4-jadval**

#### **O'lchash jadvali**

Qirqimlar orasidagi masofa L=42 m ga teng.

T.r.	t, sek	DBNdan masofasi, m	V, m/s
1	420	13,5	0,10
2	191	18,7	0,21
3	114	22,4	0,36
4	70	27,3	0,60
5	62	31,6	0,67
6	51	34,5	0,82
7	34	42,6	1,23
8	27	48,0	1,55
9	24	51,0	1,75
10	21	58,3	2,0
11	20	65,8	2,1
12	20	69,0	2,05
13	21	73,4	2,0
14	24	80,5	1,75
15	30	87,7	1,40
16	37	91,3	1,13
17	51	95,6	0,82
18	72	98,3	0,58
19	135	100,2	0,31
20	382	104,5	0,10

## 1.2. O'rtacha arifmetik usul bilan hisoblash ifodalari:

$$1) \ g_{yuza\_o'rt} = \frac{\sum g_i}{n} = \frac{21,38}{20} = 1,069 \text{ m/s};$$

$$2) \ g_{o'rt} = K \cdot g_{yuza\_o'rt} = 0,85 \cdot 1,069 = 1,069 \text{ m/s} = 0,909 \text{ m/s};$$

bu yerda:  $\sum g_i$  - qalqimalar yordamida o'lchangan tezliklar yig'indisi.

**2. Grafik usul.** Bu usulda daryo kengligi bo'yicha o'rtacha tezlik aniqlanadi. Buning uchun dastlab tezlikni daryo kengligi bo'yicha taqsimlanish grafigi – epyurasini chizish lozim (4.21-rasm). Grafikdan tezlik epyurasi maydoni hisoblanib, uning daryo kengligiga nisbati o'rtacha tezlikni ifodalaydi:

$$g_{yuza.o'rt} = \frac{F}{B} = \frac{82,8}{92} = 0,900 \text{ m/s},$$

bu yerda: F -tezlik epyurasi maydoni; B – daryoning kengligi, m. Epyura maydoni quyidagicha aniqlanadi:


$$F = \Delta S \cdot N = 0,4 \text{ m}^2 / \text{s} \cdot 207 = 82,8 \text{ m}^2 / \text{s}.$$

ifodadagi  $\Delta S$  - tezlik epyurasidagi  $1 \text{ sm}^2$  ga teng bo'lgan maydon. Daryo kengligi bo'yicha o'rtacha tezlik quyidagicha hisoblanadi:

$$g_{o'rt} = K \cdot g_{yuza.o'rt} = 0,85 \cdot 0,900 \text{ m/s} = 0,765 \text{ m/s}.$$

Yuqoridagi hisoblashlarni yuza va chuqurlik qalqimalari hamda gidrometrik tayoqchalar turidagi qalqimalarda qo'llash mumkin. Integrator qalqimalar yordamida suvning o'rtacha tezligini aniqlash esa alohida hisoblashlarni talab etadi.

Tezlikni aniqlashning oqimning ta'sir kuchini hisobga olishga asoslangan usullari, gidrometrik naychalar (trubkalar) va boshqa usullar yuqorida bayon etildi. Quyida ultratovush usuliga alohida to'xtalamiz.



4.21-rasm. Tezlikni kenglik bo'yicha taqsimlanish grafigi (tezlik epyurasi).

### *Sinov savollari va topshiriqlar:*

1. *Tezlik deb nimaga aytildi?*
2. *Tezlikni o'lchashdan asosiy maqsad nimalardan iborat?*
3. *Suyuqliklar harakatining qanday turlarini bilasiz?*
4. *Turbulent harakat deganda nimani tushunasiz?*
5. *Laminar harakat deb nimaga aytildi?*
6. *Tezlikning daryo chuqurligi bo'yicha taqsimlanishiga ta'sir etuvchi omillarni eslang.*
7. *Tezliklarni o'lchashda qanday usullarni qo'llash mumkin?*
8. *Nuqta usulida tezlik o'lchanganda bajariladigan ishlar tartibi nimalardan iborat?*
9. *Tezlikni nechta nuqtada o'lhash qanday omillarga bog'liq?*
10. *Integratsion usulda tezlikni o'lhash qanday bajariladi?*
11. *Integratsion usulni amalda birinchi bo'lib kim qo'llagan?*
12. *Qalqimalarning qanday turlarini bilasiz?*
13. *Suv yuzasi qalqimalarining qanday turlari mavjud?*
14. *Chuqurlik qalqimalari qanday imkoniyatlarga ega?*

15. Integrator qalqima va gidrometrik tayoqchaning qanday farqi bor?
16. Qalqimalarning qanday ijobiy tomonlarini bilasiz?
17. Vertikaldagi o'rtacha tezlikni hisoblash usullarini eslang.
18. O'rtacha tezlikni hisoblashda qo'llaniladigan empirik ifodalarni yozib bering.
19. Grafik usulda o'rtacha tezlik qanday hisoblanadi?
20. Grafo-analitik usulning mohiyatini tushuntirib bering.
21. O'rtacha tezlik grafo-mexanik usulda qanday aniqlanadi?

## **5-BOB. DARYO VA KANALLARDA SUV SARFINI ANIQLASH**

Mazkur bobda gidrometriyaning quyidagi amaliy masalalari ko'rib chiqiladi: suv sarfini o'lhash usullari, suv sarfi modeli, «tezlik-maydon» usuli; suv sarfini gidrometrik parraklar yordamida aniqlash: daryo uchastkasini tanlash, gidrometrik stvor yo'nalishini aniqlash, stvorni jihozlash; suv sarfini o'lhash: daryo holatining bayonini tuzish, suv sathini kuzatish, gidrostvorda chuqurliklarni o'lhash, tezlik tikliklari – vertikallarida tezliklarni o'lhash, to'la, asosiy, qisqartirilgan va tezlashtirilgan usullar yordamida suv sarfini o'lhash, suvning oqish tezligi va sarfini integratsion usul yordamida o'lhash, suv sarfini to'linsuv davrida va kichik daryolarda o'lhashning o'ziga xos xususiyatlari; suv sarfini hisoblash: analitik, grafik va izotax usullari, suv sarfini hisoblashdagi aniqlik, suv sarfini yuza va chuqurlik qalqimalari yordamida o'lhash, suv sarfini hisoblash usuli bilan aniqlash va boshqalar.

### **5.1. Suv sarfini aniqlashning ilmiy va amaliy ahamiyati**

Daryolarda oqayotgan suv miqdori, ya'ni suv sarfini aniqlash gidrometriyaning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va shu tufayli unga alohida e'tibor beriladi. Chunki suv sarfi haqidagi ma'lumotlar qishloq va suv xo'jaligida, gidrotexnik inshootlarni loyihalash, qurish hamda ularni ekspluatatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzuda suv sarfining o'lcham birliklari, o'lhash usullari va suv sarfini aniqlash vaqtida tashkil qilinadigan ishlar tartibi yoritiladi.

*Daryoning ko'ndalang qirqimidan vaqt birligi ichida oqib o'tadigan suv miqdoriga suv sarfi deyiladi.*

Suv sarfi kichik ariqlar, soylar, buloqlarda  $\frac{l}{s}$ , daryolar va kanallarda esa  $\frac{m^3}{s}$  o'lcham birliklarida ifodalanadi, “Q” harfi bilan belgilanadi.

Suv sarfi har qanday daryoning hidrologik rejimini o'rganishda

eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Daryo o'zanida bo'ladigan hamma o'zgarishlar unda harakatlanayotgan suvning miqdoriga, ya'ni suv sarfiga bog'liq. Shu bilan birga daryodagi suv rejimining hamma elementlari ham undagi suv sarfiga bog'liq holda o'zgaradi.

## 5.2. Gidrometrik stvorni qurish va uni jihozlash

Daryolardagi suv miqdori, ya'ni suv sarfmi aniqlash uchun, avvalo, ularda gidrometrik stvor qurish lozim bo'ladi. Ushbu mavzuda daryo yoki boshqa suv obyektlarida gidrometrik stvorni qurish hamda uni kerakli asboblar bilan jihozlash, qurish vaqtida bajariladigan ishlar tartibi yoritiladi.

**Gidrometrik stvor** deganda daryoning oqim yo'nalishiga perpendikulyar holatda o'rnatilgan va suv sarfini doimiy ravishda o'lchab borishga imkon beradigan qurilma tushuniladi.

Gidrometrik stvorni daryoning o'rtacha oqim yo'nalishiga perpendikulyar ravishda o'rnatishda ikkita usul qo'llaniladi:

- 1) qalqima usuli;
- 2) gidrometrik parrak usuli.

**Qalqima usulida** daryo uchastkasining chap yoki o'ng qirg'og'ida magistral o'tkaziladi. Uning yo'nalishi, taxminan, qirg'oqqa parallel bo'lishi kerak. Ko'z bilan chamlab magistraldan oqimga perpendikulyar yo'nalishda kamida 3 ta kesma – stvor tushiramiz. Kesmalar oralig'i, taxminan, 2B ga teng bo'lishi kerak (B – daryoning kengligi). Birinchi kesmadan 5-10 m yuqorida daryoning kengligi bo'yicha qalqimalar oqiziladi. Qalqimalar birinchi kesmaga yetib kelishi bilan sekundomer ishga tushiriladi. Shu bilan birga, qalqimaning kesmada magistraldan qanday masofada o'tganligi aniq belgilab qo'yiladi. Shu tarzda hamma qalqimalarning 5 ta kesmadan o'tgan joylari belgilanadi. Har bir qalqimaning tezligi va harakat yo'nalishi aniqlanadi.

Buning uchun  $V = \frac{L}{t}$  ifodadan foydalaniladi.

**Gidrometrik parrak** usuli bilan stvorni belgilash vaqtida quyidagi ishlar bajariladi:

- 1) tanlangan daryo uchastkasida ko‘z bilan chamlab, oqimning yo‘nalishiga perpendikulyar kesmani belgilaymiz;
- 2) belgilangan kesmada chuqurlik o‘lhash ishlari bajariladi;
- 3) daryoning ko‘ndalang qirqimi – profili tuziladi;
- 4) profilning shakliga bog‘liq holda tezlik vertikallari belgilanadi. Ularning soni 5 tadan 12 tagacha bo‘lishi mumkin. Tog‘ daryolarida tezlik vertikallari xarakterli nuqtalarda belgila-nadi;
- 5) tezlik vertikallarida 0,6h chuqurlikda suvning oqish tezligi o‘lchanadi hamda uning yo‘nalishi aniqlanadi;
- 6) elementar suv sarfi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$q = V \cdot h, \text{ m}^2/\text{s}.$$

bu yerda: V – tezlik, h – vertikalning chuqurligi;

- 7) qismiy suv sarfi esa quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$\Delta Q = q \cdot b,$$

ifodadagi b – tezlik vertikaliga tegishli kenglik;

- 8) qismiy suv sarflarini vektorlar shaklida daryo uchastkasi planiga tushiramiz. Shu vektorlarning azimutini belgilaymiz. Keyin ma’lum bir nuqtani olib, vektorlarni ketma-ket qo‘sib boramiz va oqim yo‘nalishini aniqlaymiz.

### 5.1-jadval

Daryo uchastkasi planini tuzish uchun masofalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Kesmalar	Magistraldan masofa, m	Magistraldan profillar bo‘yicha masofa, m	
		Chap qirg‘oq	O‘ng qirg‘oq
Yuqori stvor	0,00	11,5	77
1	10,0	13,3	80,5
2	20,0	12	82,8
3	30,0	12,4	86,2
4	40,0	13,3	89,9
O‘rta stvor	50,0	11,7	93,7
1	60,0	10,2	94,5
2	70,0	12	94
3	80,0	8,1	85
4	90,0	12,2	82,2
Quyi stvor	100,0	8,6	83

Qalqimalar usulini qo'llashdagi ishlar quyidagi tartibda bajariladi:

1. Qalqimalarning kesmalar orasidan oqib o'tish tezligini 5.2-jadval asosida hisoblash qulaydir.

### **5.2-jadval**

Suv yuzasi qalqimalari yordamida tezliklarni o'lchash

T. r.	Qalqimalarning DBN (magistral)ga nisbatan masofasi, m			Qalqimaning oqib o'tish vaqtqi, t, sekund	Suv yuzasi tezligi, $\mathcal{G} = L/t$ , m/s
	Yuqori kesma	O'rta kesma	Quyi kesma		
1	10,5	12,7	14,6	118	0,85
2	20	16,5	19,8	87	1,15
3	23	18,7	21,8	92	1,09
4	28	21,5	25,4	90	1,11
5	36,5	24	23,5	81	1,24
6	33,4	35,7	34	69	1,45
7	38,9	42,3	40,8	81	1,23
8	49,5	53,2	46,3	99	1,01
9	54,5	59,3	50,2	106	0,94
10	63,8	67,2	56,8	114	0,88
11	68,7	80,2	75	111	0,9

2. Drayo uchastkasi planida qalqimalarning kesmalar orasidan oqib o'tish trayektoriyalarini o'tkazish uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1) daryo uchastkasi plani berilgan azimut burchagi va 5.1-jadval ma'lumotlari asosida chiziladi;


2) daryo uchastkasining chap yoki o'ng qirg'og'ida magistral o'tkaziladi. Uning yo'nalishi, taxminan, qirg'oqqa parallel bo'lishi kerak;

3) ko'z bilan chamlab yuqori va quyi kesmalar o'rtasida, magistraldan oqimga perpendikulyar kesma tushiramiz;


4) har bir kesmada qalqimalarning magistralga nisbatan o'tgan o'rni 5.2-jadval ma'lumotlari yordamida belgilanadi;

5) qalqimalarning belgilangan o'rnlari uziq chiziqlar bilan tutashtiriladi. Bu uziq chiziqlar qalqimalarning trayektoriyalarini ifodalaydi (5.1-rasm).

3. Tezliklarning miqdori va yo‘nalishini ifodalovchi tezlik vektorlarini chizish. Buning uchun bizga daryo uchastkasining qalqimalarning harakatlanish trayektoriyalari tushirilgan plani kerak bo‘ladi (5.1 va 5.2-rasmlar). Tezlik vektorlarini chizishni 10-tartibda tashlangan qaliqima misolida ko‘rib chiqamiz (5.2-jadval). Qalqimaning yuqori va quyi kesmalardan (o‘rta kesma e’tiborga olinmaydi) oqib o‘tish joylarini uziq chiziqlar bilan tutashtiramiz (5.2-rasmida keltirilgan RM chizig‘i). Qalqimaning tezlik vektori RM chizig‘iga parallel sifatida chiziladi. Bu vektor tezlikning yo‘nalishini ifodalaydi. Tezlikni miqdor jihatdan ifodalovchi vektor uzunligi tanlangan masshtab asosida chiziladi. Masalan, 1 sm da 1 m/s mashtabda 10-qalqimaning tezligi yaxlitlanib 9 mm uzunlikda tushirilgan.



5.1-rasm. Qalqima trayektoriyasini aniqlash.



5.2-rasm. Gidrometrik stvor o'rmini qalqima usulida belgilash.

4. Alovida masshtab asosida tezliklarning ko'pburchakli vektorlari chizilib, ularning teng ta'sir etuvchisini aniqlashda quyidagi ishlar bajariladi:

1) daryo uchastkasi planida tanlangan magistralga nisbatan qarama-qarshi qirg'oqda ko'pburchakli vektorlarni chizish uchun joy ajratiladi;

2) planga tushirilgan har bir tezlik vektori uzunligini sirkul o'lchagich yordamida aniqlab, unga parallel bo'lgan nusxalarini ajratilgan joyga ko'chiramiz. Ko'pburchakli tezlik vektori 1-tezlik vektoridan boshlanib ( $a$ -nuqta), 11-tezlik vektori bilan tugovchi ( $b$ -nuqta) uzliksiz siniq chiziq ko'rinishida bo'ladi;

3)  $a$  va  $b$  nuqtalarni to'g'ri chiziq bilan tutashtiramiz. Bu to'g'ri chiziq tezlik vektorining teng ta'sir etuvchisi, ya'ni daryo yuza oqimining o'rtacha yo'nalishini ifodalaydi.

5. Planda gidrometrik stvor o'rmini o'tkazish uchun tezliklarning teng ta'sir etuvchisi  $ab$  to'g'ri chizig'iga perpendikulyar bo'lgan AE to'g'ri chizig'ini daryo kengligi bo'yicha

o'tkazamiz. Bu to'g'ri chiziqning bir nuqtasi – A, o'rta kesmaning magistralga yaqin qirg'oqdagi nuqtasidan o'tishi kerak.

Agar oqim yo'naliшини aniqlashda yuqorida qayd etilgan asboblar bo'lmasa, u vaqtida *Jukovskiy usulini* qo'llab, gidrometrik stvor o'rnnini belgilash mumkin.

Bu usulda bajariladigan ishlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) tanlangan daryo uchastkasida ko'z bilan chamarlab 3 ta kesma belgilanadi;

2) har bir kesma bo'yicha chuqurlik hamda tezlik vertikallari belgilanadi;

3) chuqurliklar o'lchanadi;

4) har bir tezlik vertikalida 5 ta nuqtada tezliklar o'lchanadi;

5) tezlik vertikallaridagi o'rtacha tezlik analitik usul yordamida aniqlanadi;

6) elementar suv sarfi hisoblanadi:  $q = V \cdot h$ ;

7) har bir kesma bo'yicha elementar suv sarflarining daryo kengligi bo'yicha taqsimlanish epyurasi chiziladi;

8) epyura stvorga parallel chiziqlar bilan teng bo'laklarga bo'linadi, bo'laklar oralig'i 0,5; 1,0; 1,5 olinishi mumkin;

9) parallel chiziqlarning epyura bilan kesishgan nuqtalaridan kesmaga perpendikulyar tushiriladi;

10) kesishgan nuqtalardan tushirilgan perpendikulyar oralig'idan oqib o'tayotgan qismiy suv sarflari aniqlanadi:

$$Q = q \cdot b, \text{ m}^3/\text{s}.$$

Gidrometrik stvor gidrometrik ishlarni bajarish maqsadida quriladi. Gidrometrik stvorda daryoning u qirg'og'idan bu qirg'og'iga o'tish uchun ko'priq, parom yoki qayiqdan foydalananiladi.

Gidrometrik ko'priki daryo kengligi 50 m gacha bo'lgan holda qurish mumkin. Ular 2 ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1) qirg'oqqa mahkamlab qurilgan;

2) osma ko'priq.

Qirg'oqlari juda tik bo'lgan tog' daryolarida gidrometrik lyulkalar o'rnatiladi. Daryo kengligi 150 - 200 m bo'lganda esa gidrometrik qayiqlar qo'llaniladi.

### 5.3. Suv sarfini o'lhash usullari

Suv sarfi maxsus tashkil qilingan gidrometrik stvorlar kesmalarda ma'lum reja asosida o'lhash boriladi. Ana shunday o'lhashlar natijasida uning o'rtacha kunlik, o'rtacha oylik, o'rtacha yillik, o'rtacha ko'p yillik hamda eng katta va eng kichik miqdorlari aniqlanadi. Bu kattaliklar bir nom bilan *xarakterli suv sarflari* deb ataladi.

Ma'lum vaqt davomida aniqlangan suv sarflarining o'rtacha qiymatlari asosida daryodan shu vaqt ichida oqib o'tayotgan suvning miqdori – oqim hajmi aniqlanadi.

Suv sarfini dala sharoitida gidrometrik asboblar va usullar yordamida aniqlaymiz. Suv sarfini o'lhash vaqtida qo'llaniladigan usullar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- 1) suv sarfini to'g'ridan - to'g'ri o'lhash;
- 2) suv rejimining ma'lum elementlarini o'lhash va kuzatish asosida suv sarfini aniqlash.

Birinchi usul hajm usuli deyilib, suv sarfini aniq o'lhash imkonini beradi. Bu usul ko'proq kichik soylar va buloqlarda qo'llaniladi.

Ikkinci guruh usullarga qo'yidagilar kiradi:

- 1) tezlik - maydon usuli;
- 2) suv sarfini gidrometrik novlar yoki tashlamalar yordamida aniqlash;
- 3) aralashtirish usuli yoki kimyoviy usul ham deyiladi.

**Tezlik-maydon** usulini qo'llab suv sarfini aniqlashda dastlab daryoning ko'ndalang qirqimida chuqurliklar o'chanadi. So'ng tezlik vertikallari tanlanib, ularda suvning oqish tezligi o'chanadi. Chuqurlik ma'lumotlari asosida elementar-oraliq maydonchalar hisoblanadi. Tezlik vertikallari bilan chegaralangan elementar maydonchalaridan oqib o'tayotgan qismiy suv sarflari esa qo'yidagi ifodalar bilan hisoblanadi:

$$\Delta q = \omega \cdot \vartheta,$$

bu yerda:  $\omega$  – elementar maydonchalar,  $\vartheta$  – elementar maydonchalarga mos keladigan tezliklar.

Qismiy suv sarflari yig'indisi  $\sum \Delta q_i$  - daryo o'zani ko'nda lang qirqimi yuzasidan bir sekundda oqib o'tayotgan umumiyy suv sarfi (Q)ni aniqlashga imkon beradi, ya'ni

*Suv sarfini gidrometrik novlar yoki tashlamalar yordamida aniqlash* usuli, ko'proq, irrigatsiya kanallarida qo'llaniladi. Shu maqsadda maxsus suv o'lchagich tashlamalarning Tomson, Chipoletti kabi bir qancha turlari yaratilgan.

*Aralashtirish usuli yoki kimyoviy usul*, ko'pincha, tog'daryolarida qo'llaniladi. Bu usulda daryo suviga biror kimyoviy modda aralashtiriladi va maxsus asbob yordamida suv sarfi aniqlanadi. Bu usul murakkab bo'lgani uchun amaliyotda kam qo'llaniladi.

Suv sarfini belgilangan reja asosida o'lchab borishda quyidagi ishlarni bajarish zarur:

1) gidrometrik stansiya yoki post uchun daryo uchastkasini tanlash va unda gidrometrik stvorni qurish;

2) tanlangan joyning holati va suv sarfini aniqlash usullariga bog'liq holda, gidrometrik stvorni kerakli asbob - uskunalar bilan jihozlash;

3) gidrometrik stvorda suv sarfini, suv yuzasining nishabligini, muzlash hodisalarini, meteorologik elementlarni va boshqa suv rejimi elementlarini sistematik kuzatib borish;

4) suv sarfini, oqim miqdorini aniqlash va daryo oqimining yil davomida taqsimlanishini hisoblash;

5) suv sarfini aniqlash vaqtida bajariladigan barcha ishlarning maxsus qo'llanma talablari darajasida amalga oshirilishini uzluksiz nazorat qilib borish va boshqalar.

Daryolarning suv sarfini aniqlash uchun, avvalo, unda gidrometrik stvor qurish lozim bo'ladi.

Daryolarda gidrometrik stvorlar qurilgandan so'ng ularda suv sarfini o'lchash ishlari oldindan belgilangan reja asosida olib boriladi.

#### **5.4. Suv sarfini gidrometrik parraklar yordamida aniqlash**

Suv sarfini gidrometrik parraklar yordamida o'lhash vaqtida quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

- 1) nuqtali usul;
- 2) ko'p vertushkali usul;
- 3) integratsion usul.

**Nuqtali usul** qo'llanganda dastlab jonli kesmada chuqurliklar o'lchanadi. So'ng gidrometrik parrak yordamida ulardagi ma'lum nuqtalarda tezliklar o'lchanadi. Har ikki turdag'i o'lhashlar asosida suv sarfi Q ning qiymati aniqlanadi.

**Ko'p vertushkali usuldan** yirik daryolarda foydalaniladi. Bundan asosiy maqsad – o'lhash ishlarini tezlashtirishdir. Aniqroq qilib aytganda, bu usulda tezliklar bir vaqtning o'zida bir nechta gidrometrik parraklar yordamida o'lchanadi.

**Integratsion usul.** Bu usul yordamida vertikaldagi o'rtacha tezlikni yoki butun jonli kesma bo'yicha o'rtacha tezlikni to'g'ridan-to'g'ri aniqlash mumkin. Suv sarfini daryo o'zani ko'ndalang qirqimida aniqlangan o'rtacha tezlikni shu qirqim maydoniga ko'paytirish orqali aniqlaymiz.

Vertikaldagi o'rtacha tezlikni integratsion usul bilan aniqlashda, oldingi mavzularda qayd etilganidek, gidrometrik parrak asta-sekin suv yuzasidan o'zan tubiga tushiriladi. Shu vaqt davomida qayd etilgan signallar soni sanab boriladi. Gidrometrik parrakni suv yuzasiga ko'tarib olishda ham yuqorida qayd etilgan-larga amal qilish kerak. Eng muhimmi, gidrometrik parrakni tushirish tezligi uni ko'tarish tezligiga teng bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etilgan usullardan eng ko'p qo'llaniladigani nuqta usulidir. Bu usul quyidagi 4 turga bo'linadi:

- 1) to'la usul;
- 2) asosiy usul;
- 3) qisqartirilgan usul;
- 4) tezlashtirilgan usul.

**To'la usuldan** yangi tashkil etilgan gidrometrik stvorlarda 2-3 yil davomida uzlusiz foydalanish lozim. Shu muddatdan keyin suv sarfini **asosiy usul** yoki **qisqartirilgan usulda** aniqlash mumkin.

To‘la usuldan *asosiy usulga* o‘tishdan oldin ularning natijalari o‘zaro solishtiriladi. Bunda xatolik 5 % dan ortib ketmasligi kerak. Asosiy usulda tezlik bir yoki ikki nuqtada o‘lchanadi.

Suv sarfini o‘lhash vaqtida qanday usulni qo‘llashdan qat’i nazar, unda bajariladigan ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

- 1) daryo holati va ob-havoni kuzatish;
- 2) suv sathini kuzatish;
- 3) gidrostvorda chuqurliklarni o‘lhash;
- 4) tezlik vertikallarida suvning tezligini o‘lhash;
- 5) suv yuzasining nishabligini aniqlash.

Suv sarfini gidrometrik parraklar yordamida aniqlashda maxsus hisoblashlar bajariladi. Quyida shu masalalar ustida to‘xtalamiz.

## 5.5. Suv sarfini hisoblash usullari

**Suv sarfini hisoblash** quyidagi 5 ta usulda amalga oshiriladi:

- 1) analitik usul;
- 2) grafik usul;
- 3) grafo-analitik usul;
- 4) izotax usuli;
- 5) taxiografik egri chiziq usuli.

Bulardan eng oddisi va amaliyotda ko‘p qo‘llaniladigani *analitik usuldir*. Keyingi 2 ta usul bilan ishlash ancha murakkab va ko‘p vaqt ni talab etadi. Lekin bu usullar suv sarfini aniq hisoblashga imkon beradi.

*Analitik usulda* suv sarfi quyidagi empirik ifoda yordamida hisoblanadi:

$$Q = K \cdot g_1 \cdot \omega_1 + \left( \frac{g_1 + g_2}{2} \right) \cdot \omega_2 + \dots + \left( \frac{g_{n-1} + g_n}{2} \right) \cdot \omega_{n-1} + K \cdot g_n \cdot \omega_n,$$

bu yerda:  $g_1, g_2, \dots, g_n$  – vertikallardagi o‘rtacha tezliklar;

$\omega_1, \omega_2, \dots, \omega_n$  – tezlik vertikallari orasidagi maydonchalar; K – birinchi va oxirgi tezlik vertikallaridan qirg‘oqqa qarab tezliklarning kamayishini e’tiborga oluvchi koefisiyent. Bu koefisiyent qirg‘oqning shakliga qarab turli qiymatlarga ega bo‘ladi:

- 1) qirg' oqda chuqurlik 0 ga teng bo'lsa,  $K = 0,7$ ;
- 2) qirg' oq tik,  $K = 0,8$ ;
- 3) qirg' oq tik va tekis bo'lsa,  $K = 0,9$ ;
- 4) agar gidrometrik stvor o'rnatilgan daryoning ko'ndalang qirqimida o'lik fazo, ya'ni suv oqmaydigan qism mavjud bo'lsa, u holda  $K = 0,5$  deb qabul qilinadi.

**Suv sathi balandligini aniqlash.** Agar suv sarfini o'lhash vaqtida suv sathining o'zgarishi  $\Delta H$  ning qiymati 10 sm dan kichik bo'lsa ( $H_b - H_{ox} = \Delta H$ ), hisob suv sathi sifatida ishni boshlashdan oldingi ( $H_b$ ) va ish tamom bo'lgandan keyingi ( $H_{ox}$ ) kuzatilgan suv sathlarining o'rtacha qiymati qabul qilinadi.

Agarda  $\Delta H > 10$  sm bo'lsa, u holda hisob suv sathi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$H_{hisob} = \frac{H_1 \cdot q_1 \cdot b_1 + H_2 \cdot q_2 \cdot b_2 + \dots + H_n \cdot q_n \cdot b_n}{q_1 \cdot b_1 + q_2 \cdot b_2 + \dots + q_n \cdot b_n},$$

bu yerda:  $H_1, H_2, \dots, H_n$  – har bir vertikalda tezlikni o'lhash vaqtida kuzatilgan suv sathi,  $q_1, q_2, \dots, q_n$  – elementar suv sarflari;  $b_1, b_2, \dots, b_n$  – vertikallar orasidagi kengliklar.

**Grafik usulda** suv sarfini hisoblash vaqtida bajariladigan ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:


1) millimetrovka qog'ozga daryoning ko'ndalang profili chiziladi (5.3-rasm);

2) tezlik epyuralari chiziladi (5.4 -rasm) va epyularlar orqali o'rtacha tezliklar quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:  $\vartheta_{ort} = F/h$ , ifodadagi  $F$  – tezlik epyurasi yuzasi,  $h$  – ishchi chuqurlik;

3) aniqlangan o'rtacha tezliklar asosida, suv sathining yuqori qismiga, tezlikning daryo kengligi bo'yicha taqsimlanish epyurasi chizilib, har bir tezlik hamda chuqurlik vertikallari uchun o'rtacha tezliklar topiladi;

4) aniqlangan o'rtacha tezliklar har bir tezlik va chuqurlik vertikallarining to'g'risiga, chizmaning tagiga yozib chiqiladi;

5) vertikallardagi elementar suv sarflari hisoblanadi. Buning uchun o'rtacha tezlik ishchi chuqurlikka ko'paytiriladi, ya'ni,  $q = \vartheta \cdot h, m^2/s$ ; Olingan elementar suv sarflarining qiymatlari grafikning tagiga, har bir vertikallning to'g'risiga yozib chiqiladi;



5.3-rasm. Suv sarfini grafik usulda hisoblash.

6) elementar suv sarflari asosida ularning daryo kengligi bo'yicha taqsimlanish epyurasi grafikning suv sathidan yuqorisiga chiziladi;

7) elementar suv sarflarining kenglik bo'yicha taqsimlanish epyurasi maydonini aniqlasak, suv sarfini hisoblagan bo'lamiz;

8) suv sarfi  $Q$  ni aniqlagandan so'ng, chizmaning biror chekkasiga daryo o'zani ko'ndalang qirqimining qabul qilingan qiymatlari maxsus jadvalda qayd etiladi.

*Izotax usulida* suv sarfi quyidagi tartibda o'chanadi:

1) daryoning ko'ndalang profili tuziladi (5.3-rasm);

2) ko'ndalang profilda, tezlik vertikallari uchun tezliklarni chuqurlik bo'yicha taqsimlab, tezliklarning qiymatlari yoziladi;

3) bir xil tezlikka ega bo'lgan nuqtalar tutashtirilib, izotaxlar (egri chiziqlar) chiziladi. Izotaxlarning qadamlari quyidagicha belgilanishi mumkin: 0,1; 0,2; 0,5; 1,0 m/sek;

4) suv sarfi quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$Q = \left( \frac{f_{g_0} + f_{g_1}}{2} \right) \cdot a + \left( \frac{f_{g_1} + f_{g_2}}{2} \right) \cdot a + \dots + \left( \frac{f_{g_{n-1}} + f_{g_n}}{2} \right) \cdot a + \frac{2}{3} \cdot f_{g_n} \cdot a^1,$$


bu yerda:  $f_{g_i}$  - qirg'oq chiziqlari bilan chegaralangan maydon (jonli kesma maydoni);  $f_{g_1}, f_{g_2}, \dots, f_{g_n}$  - izotaxlar bilan chegaralangan maydonlar;  $a_1, a_2, \dots, a_n$  - izotaxlar qadami, m/s;  $a^1$  - ko'ndalang kesimda eng katta tezliklarni tutashtiruvchi izotax va ko'ndalang kesimning eng katta tezligi orasidagi farq, m/s.

Suv sarfini aniqlashning *grafo-analitik usuli*. Bu usulda suv sarfi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$Q = K \cdot q_1 \cdot b_1 + \frac{q_1 + q_2}{2} \cdot b_2 + \frac{q_{n-1} + q_n}{2} \cdot b_n + K \cdot q_n \cdot b_n,$$


bu yerda:  $K$  - qirg'oqqa qarab tezliklarning kamayishini e'tiborga oluvchi koeffisiyent bo'lib, uning qiymati 0,5-0,9 gacha o'zgaradi. Hisoblashlarda qirg'oqda chuqurlik 0 ga teng bo'lsa,  $K=0,7$  deb olinadi;  $b_1, b_2, \dots, b_n$  - vertikallar orasidagi masofa, m;  $q_1, q_2, \dots, q_n$  - chuqurlik hamda tezlik vertikallaridagi elementar suv sarflari (5.3-rasm), m<sup>2</sup>/s.

124



5.4-rasm. Tezlik epyuralari (I-VI vertikallar uchun).

125




5.4-rasm. Tezlik epyuralari (I-VI vertikallar uchun).

**Taxiografik egri chiziq usulida** suv sarfini hisoblash. Bu usul bilan suv sarfini hisoblash uchun izotax chiziqlari bilan chegaralangan maydonlarni gorizontal o'qqa, vertikal o'qqa esa ularga mos keluvchi tezliklar qo'yiladi. Ular kesishgan nuqtalarini tutashtirsak, egri chiziq hosil bo'ladi (5.5- rasm).

Egri chiziq va koordinata o'qlari bilan chegaralangan maydon hisoblanib, umumiyl masshtabga ko'paytiriladi. Olingan natija suv sarfini beradi:

$$Q = F_e = \Delta S \cdot N,$$

bu yerda:  $F_e$ - egri chiziq bilan chegaralangan maydon,  $m^3/s$ ;  $\Delta S$  – 1  $sm^2$  ga mos keluvchi maydon,  $m^3/s$ ;  $N$  – kataklar soni.



5.5-rasm. Taxiografik egri chiziq.

Suv sarfini o'lhash vaqtida ma'lum xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Ularning manbai quyidagilardan iborat:

- 1) o'lhash vaqtida foydalaniладigan asboblarning turi;
- 2) o'lhash usullari, daryo o'zani hamda ob-havo hолати;
- 3) o'lchanayotgan suv rejimi elementlarining o'zgaruvchanligi;
- 4) suv sarfini hisoblash vaqtidagi xatoliklar va boshqalar.

Yuqorida xatoliklar ikki guruhgaga ajratiladi:

- 1) tasodifiy xatoliklar;
- 2) sistematik xatoliklar.

Yuqorida qayd etilgan xatoliklarni hisobga olish suv sarfini hisoblash aniqligini oshirishga imkon beradi. Shuningdek, suv sarfini o'lhash va natijalarni hisoblashda yuqorida qayd etilgan xatolarni darajasida kamaytirishga harakat qilish lozim.

## *Sinov savollari va topshiriqlar:*

1. *Gidrometrik stvor deganda nimani tushunasiz?*
2. *Stvorni belgilashda nechta usuldan foydalaniladi?*
3. *Qalqima usulida gidrometrik stvor qanday belgilanadi?*
4. *Stvorni belgilashning gidrometrik parrak usulida bajariladigan ishlar tartibini aytib bering.*
5. *Jukovskiy taklif etgan usul yordamida gidrometrik stvor o'rni qanday aniqlanadi?*
6. *Suv sarfini to'g'ridan-to'g'ri o'lhashning mohiyatini izohlang.*
7. *Suv rejimining ma'lum elementlarini o'lhash va kuzatish asosida suv sarfi qanday aniqlanadi?*
8. *Suv sarfini aniq o'lhashga imkon beradigan usullarni eslang.*
9. *Kichik soylar va buloqlarning suv sarfini aniqlashda qanday usullar qo'llaniladi?*
10. *Tezlik - maydon usulining mohiyatini tushuntirib bering.*
11. *Suv sarfini gidrometrik novlar yordamida aniqlash usulini bilasizmi?*
12. *Suv sarfi tashlamalar yordamida qanday aniqlanadi?*
13. *Suv sarfini aniqlashning aralashtirish yoki kimyoviy usulining tub mohiyati nimada?*
14. *Suv sarfini o'lhashda foydalaniladigan asboblarning turlarini yodga oling.*
15. *Suv sarfini o'lhashda ob-havo holati hisobga olinadimi?*
16. *Suv sarfini o'lhash aniqligiga suv rejimi elementlarining o'zgaruvchanligi qanday ta'sir etadi?*
17. *Suv sarfini hisoblash vaqtida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklarni yodga oling.*
18. *Suv sarfini hisoblash vaqtida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar nechta guruhga ajratiladi?*
19. *Suv sarfini hisoblash vaqtida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tasodifiy xatoliklarga nimalar kiradi?*
20. *Suv sarfini hisoblash vaqtida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan sistematik xatoliklarni eslang.*

## **6-BOB. SUV SARFI EGRI CHIZIG'I GRAFIGI VA UNDAN AMALDA FOYDALANISH**

Ushbu bobda quyidagilar yoritiladi: suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog'lanishni aniqlash va daryolar oqimini hisoblash, suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bir ma'noli bog'lanish mavjud bo'lgan hollarda suv sarfi egri chizig'i grafigini tuzish, asosiy tushunchalar, suv sarfi egri chizig'i grafigi yuqoriga hamda pastga davom ettirish (ekstrapolyatsiya qilish), daryo oqimi miqdorini hisoblash, suv sarfi egri chizig'ini suv sarfi bilan uning sathi orasida bir ma'noli bo'limgan bog'lanishlar uchun tuzish: suvning beqaror harakati, muzlash hodisalari kuzatilganda, suv o'simliklari yoki o'zgaruvchan dimlanish mavjud bo'lganda bog'lanish chizmasini tuzish, daryo oqimini hisoblash va boshqalar.

### **6.1. Suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog'lanishni aniqlash**

Daryolarning suv sathi muntazam ravishda kuzatilib boriladi, suv sarfi esa bir oyda ikki yoki uch marta o'lchanadi. Lekin xalq xo'jaligining turli tarmoqlari talablarini qondirishda suv sarflarining kundalik qiymatlarini bilish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu suv sathi bilan suv sarfi orasidagi bog'lanish grafigini chizish va shu asosda gidrologik yilnomani tuzish hamda daryo oqimini hisoblash usullarini yoritib berishga bag'ishlangan.

*Daryo oqimi hajmi deb, uning ko'ndalang qirqimidan ma'lum vaqt davomida oqib o'tadigan suv miqdoriga aytildi.* Daryo oqimi hajmi  $m^3$  yoki  $km^3$  larda ifodalanadi.

Daryo oqimini bir kun, bir oy, bir yil yoki xohlangan vaqt oralig'i uchun hisoblash mumkin. Buning uchun shu oraliqdagi o'rtacha suv sarfi  $Q_{o\cdot n\cdot T}$  ni shu oraliqdagi sekundlarda ifodalangan vaqt T ga ko'paytiramiz, ya'ni:

$$W = Q_{o\cdot n\cdot T} \cdot T, m^3, km^3.$$

Demak, daryo oqimini hisoblash uchun kundalik suv sarfining yillik jadvalini tuzish lozim. Bu jadval ma'lumotlari asosida

o'rtacha o'n kunlik, o'rtacha oylik va o'rtacha yillik suv sarflarini hisoblash mumkin.

Ma'lumki, suv sarfi daryolarda bir yilda ko'pi bilan 20-30 marta o'lchanadi. Yilning qolgan kunlari uchun suv sarfini aniqlashda suv sathi bilan suv sarfi orasidagi bog'lanishdan foydalilanadi. Chunki suv sathi har kuni kamida ikki marta belgilangan muddatlarda kuzatib boriladi.

*Suv sathi bilan suv sarfi orasidagi bog'lanish chizmasi suv sarfi egri chizig'i garafigi deb ataladi.* Bu chizma daryoning suv rejimiga va unga ta'sir qiluvchi omillarga bog'liq holda, bir ma'noli bo'lмаган yoki bir ma'noli bo'lishi mumkin (6.2-rasm).

Agar daryo o'zanida deformatsiya hodisasi bo'lmasa, ya'ni daryo o'zani barqaror bo'lsa, muzlash hodisalari va suv o'simliklarining ta'siri bo'lмаган davr uchun suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog'lanish egri chizig'ini tuzish juda oson. Buning uchun vertikal o'qqa suv sathi, gorizontal o'qqa esa uch element - o'lchanan suv sarflari (Q), jonli kesma maydoni (W) va o'rtacha tezlik (v) qo'yiladi. Bog'lanishlar egri chiziq ko'rinishida bo'ladi (6.2-rasm).

Egri chiziqdan ixtiyoriy nuqtalarni tanlab olib, har bir nuqta uchun suv sarfini aniqlaymiz. Bu esa mazkur egri chiziqdan foydalanim, kundalik suv sarflarini tiklash imkonini beradi.

## 6.2. Suv sarfi egri chizig'i grafigi va uni ekstrapolyatsiya qilish usullari

Suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog'lanish egri chizig'ini eng yuqori suv sathlarigacha davom ettirish mumkin. Bu jarayon **ekstrapolyatsiya** deb ataladi va uni bajarish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

1. Egri chiziqni to'g'ridan-to'g'ri maksimal suv sathigacha davom ettirish. Bu usulni doim qo'llab bo'lmaydi. Chunki ekstrapolyatsiya qilinadigan masofa suv sathi yillik amplitudasining 10 % idan katta bo'imasligi kerak;

2. Egri chiziqni suv sarfi elementlari asosida ekstrapolyatsiya qilish. Bu usulda suv sathining maksimal qiymatidan foydalanim, jonli kesma maydoniga va tezlik (v)ni aniqlaymiz;

3. Jonli kesma maydoni (w) va tezlik (v)ning ko‘paytmasi maksimal suv sarfi-( $Q_{\max}$ ) ni beradi;

4. Suv sarfini aniqlashning Stivens usuli ham mavjud bo‘lib, bu usul Shezi tenglamasiga asoslangan:

$$Q = \omega \cdot C \sqrt{h_{o'rt} \cdot i};$$

5. Suv sarfini aniqlashning Shezi usuli Shezi ifodasiga asoslangan:

$$V = C \cdot \sqrt{R \cdot i}.$$

Egri chiziqni minimal suv sathigacha davom ettirish quyidagi tartibda amalgalashiriladi:

1. Gidrometrik stvor o‘rnatilgan daryo uchastkasida suv sarfi minimal qiymatga ( $Q_{\min}$ ) teng bo‘lgan vaqtligi o‘zan belgisini aniqlash asosida;

2. Egri chiziqni suv sarfi elementlari asosida quyi tomon davom ettirish yo‘li bilan. Bunda yuqorida qayd etilganlarning teskarisini bajaramiz.

Suv sarfi egri chizig‘ini to‘g‘ri va ishonchli o‘tkazish uchun suv sarfi egri chizig‘i bilan birgalikda maydon va tezlik egri chiziqlarini ham chizish lozim.

Bog‘lanishning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng, kundalik suv sathining yillik jadvalidan foydalananib, kundalik suv sarfining yillik jadvali – *gidrologik yilnomalar* tuziladi.

### **6.3. Suv sarfi egri chizig‘i grafigini bir ma’noli bo‘lmagan bog‘lanishlar uchun tuzish**

O‘zan deformatsiyasi, ya’ni o‘zanning yemirilishi, loyqa oqiziqlar bilan to‘lishi kabi hodisalar mavjud bo‘lgan daryo uchastkalarida oqimni aniq hisoblash muhim amaliy ahamiyatga ega.

Deformatsiya hodisasi mavjud bo‘lgan o‘zanlarda suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog‘lanish ancha murakkab, ba’zi hollarda esa umuman bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday sharoitda suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog‘lanishni tuzish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin:

1. Vaqtinchalik egri chiziq usuli;
2. Asosiy jonli kesmaga keltirish usuli;
3. Staut usuli;
4. Interpolyatsiya usuli.

Bu usullardan qaysi birini tanlash uchun o‘lchangan suv sarflari haqidagi ma’lumotlar to‘planadi. Ular asosida quyidagi bog‘lanishlar chiziladi:


$$Q = f(H); \quad w = f(H); \quad V_{o\cdot rt} = f(H); \quad B = f(H); \quad h_{o\cdot rt} = f(H).$$

Har bir bog‘lanishdagi nuqtalarining o‘zaro joylashishi tahlil qilinadi. So‘ng, tahlil natijalariga asoslanib, kompleks grafik chiziladi.


Agar o‘zanda deformatsiya hodisasi vaqt-vaqt bilan mavjud bo‘lsa, u holda ***vaqtinchalik egri chiziq usulidan*** foydalanish mumkin. Bunda bir nechta egri chiziqlar bo‘ladi va ular turli davrlardagi bog‘lanishlarni ifodaylaydi. Masalan, birinchi egri chiziqdan 10-martdan 20-maygacha foydalanish mumkin. Suv sathi ko‘tarilishda davom etsa, bu holatga alohida egri chiziq mos keladi.

Deformatsiya jarayoni vertikal yo‘nalishda kechsa, ***asosiy jonli kesmaga keltirish usuli*** qo‘llaniladi. Bu usulda yil davomida o‘lchangan suv sarflaridan tashqari ular oralig‘ida o‘lchangan chuqurliklardan ham foydalaniladi. Shu ma’lumotlar asosida daryo o‘zani ko‘ndalang qirqimining birgalikdagi chizmalari chiziladi. Ular orasidan tegishli suv sarfiga mos keladigan ko‘ndalang qirqim asosiy deb qabul qilinadi. Asosiy ko‘ndalang qirqimga tegishli turli suv sathlari ( $H$ ) uchun maydonlar hisoblanadi. So‘ng ana shu maydonlar bilan suv sathlari orasidagi bog‘lanish egri chizig‘i chiziladi.

Keyingi bosqichda o‘lchangan suv sarflarida hisoblangan jonli kesma maydonlari oxirgi grafikka tushiriladi. Ularni ifodalovchi nuqtalar grafikda sochilgan holatda joylashadi. Ana shu sochilgan nuqtalar uchun suv sathining chetlashishlarini ( $\pm \Delta H$ ) aniqlaymiz. Egri chiziqning o‘ng tomonida joylashgan nuqtalar (+) ishora, chapdagilari esa (-) ishora bilan olinadi. So‘ng chetlashishlarning yil davomida taqsimlanish grafigi chiziladi(6.1-rasm).



6.1-rasm. Suv sathi chetlashishlarining yil davomida taqsimlanishi.



6.2-rasm. Suv sarfi egri chizig'i grafigi.

Ushbu grafik asosida suv sarfi  $Q$ ni o'chash vaqtida kuzatilgan suv sathiga tuzatma ( $\pm\Delta H$ ) kiritiladi. So'ng suv sarfi ( $Q$ ) bilan suv sathi ( $H$ ) orasidagi bog'lanish qaytadan chiziladi. Daryo oqimini hisoblash uchun suv sathining yillik jadvaliga ham tuzatma kiritiladi.

***Staut usuli*** daryo o'zanida deformatsiya hodisasi juda keskin ro'y berayotgan holatlarda qo'llaniladi. Bu usulda ham dastlab suv sarfi  $Q$  bilan suv sathi  $H$  orasidagi bog'lanish tuziladi. Nuqtalar qanchalik sochilgan holatda joylashishiga qaramay, ular o'rtasidan shu holatga mos egri chiziq o'tkaziladi. Keyin har bir nuqta uchun suv sathining chetlashishlari ( $\pm\Delta H$ ) aniqlanadi. Bu chetlashishlarning qiymatlari ***Staut tuzatmalari*** deyiladi.

**Qishki davr uchun oqimni hisoblash.** Daryoda birinchi muz parchalari paydo bo‘lishidan boshlab, ularning bahorda muzdan to‘la xalos bo‘lguniga qadar o‘zanda o‘ziga xos jarayonlar kechadi. Bu davr uchun daryo oqimini hisoblashda quyida bayon etilgan bir qancha usullardan foydalaniladi.

1. *Interpolyatsiya usuli.* Bu usul amalda ko‘proq qo‘llaniladi. Buning uchun qish davrini ifodalovchi kompleks grafik chiziladi. Grafikda atmosfera yog‘inlari ( $X$ ), havo harorati ( $t$ ), suv sathi ( $H$ ) va suv sarfining ( $Q$ ) davriy o‘zgarishlari aks ettiriladi. Suv sarfiga tegishli bo‘lgan chizmani chizishda qish davrida nechta suv sarfi o‘lchangan bo‘lsa, shuncha nuqtani joylashtiramiz.

2. *Qishki o‘tish koeffisiyenti* ( $K_{qish}$ ) asosida daryo oqimini hisoblash. Bu usulda dastlab muzlash hodisalari bo‘lmagan davr uchun suv sarfi  $Q$  bilan suv sathi  $H$  orasidagi bog‘lanish grafigi chiziladi. So‘ng shu grafikka qish davrida o‘lchangan suv sarflari tushiriladi. Tabiiyki, bu nuqtalar muzlash hodisasi tufayli grafikning chap tomoniga joylashadi. Grafik asosida qishki o‘tish koeffisiyentini ( $K_{qish}$ ) aniqlaymiz:

$$K_{qish} = Q_{qish} / Q_{egrch}.$$

Grafikda suv sathining yagona qiymatiga suv sarfining ikki xil qiymati to‘g‘ri keladi. Yuqoridaq ifodada keltirilgan  $Q_{qish}$  va  $Q_{egrch}$  larning qiymatlari shu grafikdan aniqlanadi. So‘ng qishki o‘tish koeffisiyenti ( $K_{qish}$ ) uchun xronologik grafik tuziladi.

Suv sathining qish davrida kuzatilgan qiymatlari asosida egri chiziqdandan suv sarflarini aniqlaymiz. Aniqlangan suv sarfi  $Q$  ni qishki o‘tish koeffisiyentiga ko‘paytiramiz va qish faslidagi haqiqiy suv sarfini hisoblaymiz:

$$Q_{qish} = Q \cdot K.$$

3. *Qishki vaqtinchalik  $Q = f(H)$  bog‘lanish egri chiziqlarini chizish usuli.* Bu usul amalda yirik daryolarda suv yuzasi muz bilan to‘la qoplangan davrlar uchun qo‘llaniladi.

4. *Muz parchalarining ta’siri natijasida hosil bo‘lgan dimlanish hodisasini qirqish usuli.* Bu usul erta bahorda daryolarda muz parchalari oqimi davrida qo‘llaniladi.

5. *Moslashgan suv sathi grafigiga asoslanib, daryo oqimini hisoblash usuli.* Bu usul bir daryodagi 2 ta gidrologik postlar ma’lumotlaridan foydalanishga asoslanadi.

#### **6.4. Suv sarfi egri chizig'i grafigi yordamida gidrologik yilnomani tuzish**

Suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog'lanishning to'g'riliqiga ishonch hosil qilgandan so'ng, kundalik suv sathining yillik jadvalidan foydalanib, kundalik suv sarflarining yillik jadvali – **gidrologik yilnomasi** tuziladi.

Yuqorida qayd etilganidek, bog'lanish grafigini tuzishda o'lcangan suv sarflari jadvali ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bunda suv sathi, suv sarfi, jonli kesma maydoni va tezliklar uchun masshtab tanlanib, suv sarfi egri chizig'i grafigi chiziladi.

Ishning keyingi bosqichida yuqorida eslatib o'tilgan grafikdan hamda kundalik suv sathi jadvalidan foydalanib, maxsus hisoblash jadvali tuziladi. Aniqrog'i, suv sarfi egri chizig'i grafigi hamda kundalik suv sathi ma'lumotlari asosida kundalik suv sarfini hisoblash jadvali tuziladi (6.1-jadval). Hisoblash jadvalini tuzishda daryoda kuzatilgan kundalik suv sathlari jadvalida keltirilgan suv sathining ekstremal, ya'ni eng katta va eng kichik qiymatlari alohida e'tibor berish lozim.

##### **6.1-jadval**

**Hisoblash jadvali**

N	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
220	5,0	5,45	5,90	6,35	6,80	7,25	7,70	8,15	8,60	9,05
230	9,5	9,90	10,3	10,7	11,1	11,5	11,9	12,3	12,7	13,1
240	13,5	14,05	14,6	15,1	15,7	16,2	16,8	17,3	17,9	18,4
250	19,0	19,55	20,1	20,6	21,2	21,7	22,3	22,8	23,4	23,9
260	24,5	25,05	25,6	26,1	26,7	27,2	27,8	28,3	28,9	29,4
270	30,0	30,75	31,5	32,2	33,0	33,7	34,5	35,2	36,0	36,7
280	37,5	38,50	39,5	40,5	41,5	42,5	43,5	44,5	45,5	46,5
290	47,5	48,6	49,7	50,8	51,9	53,0	54,1	55,2	56,3	57,4
300	58,5	59,5	60,5	61,5	62,5	63,5	64,5	65,5	66,5	67,5
310	72,5	73,9	75,3	76,7	78,1	79,5	80,9	82,3	83,7	85,1

Yuqorida keltirilgan hisoblash jadvali va daryoda kuzatilgan kundalik suv sathi jadvalidan foydalanib, kundalik suv sarflari tiklanadi (6.2-jadval). Ushbu tiklangan kundalik suv sarflari jadvali ma'lumotlari asosida o'rganilayotgan daryoning xarakterli, ya'ni o'rtacha o'n kunlik, o'rtacha oylik, ularning eng katta va eng kichik qiymatlari hisoblanadi.

## 6.2-jadval

### Tiklangan kundalik suv sarflari

Kun	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
1	14,6	10,3	12,7	27,8	40,5	49,7	36,7	22,3	14,6	9,5	8,6	9,5
2	14,1	10,3	17,7	28,9	37,5	49,7	37,5	21,7	13,5	9,5	8,6	8,6
3	15,7	10,3	12,7	30,7	39,5	47,5	36,0	22,3	13,5	9,05	8,15	7,70
4	15,7	11,1	12,7	31,5	41,5	49,7	34,5	22,3	13,5	9,05	7,7	9,5
5	15,7	10,3	13,1	36,0	43,5	45,5	31,5	21,2	13,1	9,5	8,6	8,6
6	15,7	10,3	13,5	41,5	41,5	44,5	31,5	20,6	13,1	9,05	8,6	7,70
7	15,7	11,1	13,5	45,5	37,5	43,5	30,7	21,2	12,7	9,05	8,6	7,25
8	14,1	10,3	13,5	45,5	36,0	43,5	28,9	20,1	12,3	9,05	8,15	7,70
9	15,7	10,3	13,5	42,5	33,7	43,5	27,8	20,1	11,9	8,6	8,15	9,5
10	15,7	10,7	13,5	41,5	33,0	41,5	27,2	20,1	11,9	8,6	7,7	9,9
11	15,7	11,1	13,1	43,5	32,2	41,5	27,8	19,0	11,9	8,6	8,6	11,1
12	15,7	11,1	13,1	55,2	33,7	40,5	27,8	19,0	11,9	8,60	8,60	9,5
13	13,1	11,1	12,7	60,5	37,5	37,5	26,7	19,0	11,9	8,6	8,6	10,7
14	14,1	11,1	12,7	54,1	37,5	37,5	26,7	17,9	11,9	8,6	9,05	19,0
15	12,3	17,9	12,7	53,0	35,2	36,7	26,7	17,9	11,5	8,15	8,6	15,7
16	13,7	15,7	12,7	49,7	35,2	36,0	26,7	17,9	11,5	9,05	8,15	12,7
17	12,3	15,1	13,1	46,5	37,5	35,2	26,1	16,8	11,1	9,5	7,7	11,1
18	11,9	15,7	13,1	48,6	42,5	33,0	25,6	16,8	11,1	10,3	7,70	9,90
19	11,9	15,7	14,1	45,5	47,5	33,0	25,6	16,8	11,1	9,5	7,7	9,5
20	11,5	15,7	14,6	41,5	47,5	35,2	36,0	16,2	11,1	9,5	7,25	9,05
21	11,9	19,5	24,5	43,5	49,7	37,5	26,7	16,8	10,7	9,5	7,25	8,60
22	11,1	16,8	23,4	46,5	61,5	40,5	27,8	16,2	10,3	8,60	7,25	8,60
23	11,1	15,7	22,3	43,5	59,5	39,5	25,6	15,7	10,3	8,6	6,8	8,6
24	11,1	15,7	23,9	40,5	51,9	39,5	24,5	15,7	9,9	8,15	6,80	8,6
25	11,9	14,6	30,7	37,5	46,5	40,5	24,5	15,1	9,9	8,15	6,80	8,15
26	11,5	14,6	31,5	45,5	45,5	41,5	23,4	15,5	9,9	7,7	6,8	7,70
27	11,1	14,6	27,8	45,5	44,5	42,5	23,4	15,1	9,9	7,7	6,35	7,7
28	10,7	12,7	25,6	43,5	43,5	39,5	23,4	14,6	9,5	7,7	6,35	7,7
29	10,7		25,0	41,5	45,5	37,5	22,8	14,6	9,5	7,7	10,3	7,25
30	11,1		24,5	37,5	45,5	36,0	22,8	14,0	9,5	7,7	7,70	7,70
31	10,3		25,0		45,5		22,3	14,1		8,15		8,15

Yuqorida keltirilgan tiklangan kundalik suv sarflari jadvali o‘rganilayotgan daryo uchun gidrologik yilnomaning tarkibiy qismini tashkil etadi.

### 6.5. Xarakterli suv sarflarini aniqlash va daryo oqimini hisoblash

Ma’lumki, daryolarda suv sarfi turli omillarga bog‘liq holda vaqt bo‘yicha o‘zgarib turadi. Ana shu o‘zgarishlarni ma’lum vaqt oraliqlari, aniqrog‘i, o‘rtacha o‘n kunlik (dekadali), o‘rtacha oylik,

o'rtacha yillik, yil davomidagi eng katta va eng kichik suv sarflarini aniqlash muhim amaliy ahamiyatga ega. *O'rtacha o'n kunlik (dekadali), o'rtacha oylik, o'rtacha yillik, yil davomidagi eng katta va eng kichik suv sarflari umumiy nom bilan xarakterli suv sarflari deb ataladi.*

Xarakterli suv sarflarining qiymatlari yuqorida keltirilgan tiklangan kundalik suv sarflari jadvali ma'lumotlari asosida aniqlanadi. O'rganilayotgan daryo uchun aniqlangan xarakterli suv sarflarining qiymatlari 6.3-jadvalda keltirilgan.

### 6.3-jadval

Xarakterli suv sarflari

Dek	Oylar											
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
I	15.2	10.5	13.1	37.1	38.4	45.8	32.2	21.2	13.0	9.0	8.2	8.5
II	13.1	14.0	13.1	49.8	38.6	36.6	27.5	17.7	11.5	9.0	8.1	11.8
III	11.1	15.3	25.8	42.5	19.0	39.4	24.3	15.2	9.9	8.15	7.24	8.06
Max	15.7	19.5	31.5	60.5	61.5	49.7	37.5	22.3	14.6	10.3	10.3	19.0
Min	10.3	10.3	12.7	27.8	32.3	33.0	22.3	14.1	9.5	7.7	6.35	7.25
O'n.	13.1	13.1	17.0	43.1	42.2	49.8	27.9	17.9	11.4	8.9	7.9	9.4

Xarakterli suv sarflari asosida daryo oqimi hisoblanadi. Masa-lan, o'rtacha oylik suv sarflarining qiymatlaridan foydalanib, oylik oqim hajmlari ( $W_i$ ) quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi:

$$W_i = Q_i \cdot T_i, \text{ m}^3,$$

bu yerda:  $Q_i$  – o'rtacha oylik suv sarfi;  $T_i$  – oydagisi sekundlar soni.

Hisoblangan oylik oqim hajmlari esa o'rtacha yillik suv sarfi ( $Q$ ) ni quyidagi ifoda yordamida aniqlashga imkon beradi:

$$\bar{Q} = \frac{\sum_{i=1}^{12} W_i}{T_y}, \frac{\text{m}^3}{\text{s}},$$

bu yerda  $T_y$  – yildagi sekundlar soni.

Suv sarflarining yil davomidagi ekstremal, ya'ni eng katta va eng kichik qiymatlari ham «Tiklangan kundalik suv sarflari» jadvalini tahlil qilish natijasida aniqlanadi. Yuqoridagi 6.2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, suv sarfining minimal qiymati  $6,35 \text{ m}^3/\text{s}$  ga teng bo'lib, 27- va 28-noyabrdaga kuzatilgan bo'lsa, maksimal qiymati esa  $61,5 \text{ m}^3/\text{s}$  ga teng bo'lib, 22-aprelga to'g'ri keladi.

### ***Sinov savollari va topshiriqlar:***

1. *Daryo oqimining ta'rifini eslang.*
2. *Suv sarfi egri chizig'ini tuzishdan asosiy maqsad nima?*
3. *Bog'lanishlarni eng yuqori suv sathlargacha davom ettirishda qanday usullardan foydalaniladi?*
4. *Deformatsiya hodisasi mavjud bo'lgan daryolarda suv sarfi va suv sathlari orasidagi bog'lanishni tuzishda qanday usullar qo'llaniladi?*
5. *Statut usulining mohiyatini tushuntirib bering.*
6. *Qishki davr uchun daryo oqimini hisoblashda qanday usullardan foydalanish mumkin?*
7. *Qishki o'tish koeffisiyenti qanday hisoblanadi?*
8. *Qishki vaqtinchalik suv sarfi egri chizig'i grafigi qanday daryolarda qo'llaniladi?*
9. *Suv sarfining ta'rifini ayting.*
10. *Suv sarfining o'lcham birligini eslang.*
11. *Oylik oqim hajmini hisoblash ifodasini bilasizmi?*
12. *Yilliy oqim hajmi qanday aniqlanadi?*
13. *O'rtacha yilliy suv sarfi qanday aniqlanadi?*
14. *Suv sarfi ma'lum bo'lsa, ko'ndalang qirqimdag'i o'rtacha tezlik qanday aniqlanadi?*
15. *Suv safri egri chizig'i grafigini chizishda qanday ma'lumotlardan foydalaniladi?*
16. *Kundalik suv sarfining yillik jadvali, ya'ni gidrologik yilnomasi qanday tuziladi?*
17. *Xarakterli suv sarflariga tavsif bering.*
18. *Kundalik suv sarfining yillik jadvali asosida xarakterli suv sarflari qanday aniqlanadi?*
19. *Hisoblash jadvali qanday tuziladi?*
20. *Hisoblash jadvalining amaliy ahamiyatini eslang.*

## **7-BOB. DARYOLARNING LOYQA OQIZIQLARI VA ERIGAN MODDALARI OQIMINI O'RGANISH**

Mazkur bobda O'zbekiston sharoitida eng muhim hisoblangan quyidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar yoritiladi: daryolarning loyqa oqiziqlari oqimini va o'zan tubi yotqiziqlarini o'rganish, loyqa oqiziqlar oqimi to'g'risida umumiy ma'lumotlar, oqiziqlarning daryo o'zanida harakati, daryo suvlarning minerallashuvi va erigan moddalar oqimi, muallaq va o'zan tubi oqiziqlari, muallaq va o'zan tubi oqiziqlaridan namunalar oladigan asboblar, muallaq oqiziqlar sarfini o'lchash va uni hisoblash, o'zan tubi oqiziqlari oqimini hisoblash, oqiziqlar oqими ni gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, tindirgichlardan foydalaniib, yoki yig'ma usulda hisobga olish, oqiziqlar va o'zan tubi yotqiziqlari namunalarini laboratoriya sharoitida qayta ishslash: birlamchi (postlarda) va statsionar laboratoriyalarda qayta ishslash va boshqalar.

### **7.1. Daryolarning loyqa oqiziqlari haqida umumiy ma'lumotlar**

Daryolar havzalarida suv eroziyasi tabiiy holda kechishi, inson omili ta'sirida jadallahishi yoki susayishi mumkin. Shu holatni hisobga olib, suv eroziyasini *uning jadalligiga bog'liq holda* quyidagicha tasniflash mumkin:

- me'yordagi eroziya yoki tabiiy geologik eroziya;
- jadallahgan eroziya yoki antropogen eroziya.

*Me'yordagi eroziyada* tuproq yuvilishi uning hosil bo'lish sur'atidan katta bo'lmaydi. *Jadallahgan eroziyada* esa buning aksi bo'lib, tuproq unumdarligi pasayadi.

Ba'zan me'yordagi eroziyani *tabiiy*, tezlashgan eroziyani esa *antropogen* eroziya deb atashadi. Lekin bu har doim ham to'g'ri emas. Chunki, ba'zi vaqlarda, tabiiy sharoitda liam tezlashgan eroziya kuzatilishi mumkin. Ba'zan esa yuqoridagining aksi, ya'ni inson xo'jalik faoliyati ta'siri natijasida eroziya jarayonining jadalligi susayishi ham mumkin. Barcha holatlarda suv eroziyasi materiallarining ma'lum qismi *daryo oqiziqlarini* hosil qiladi.

Daryo oqiziqlarini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ularni o‘rganish natijasida to‘plangan ma’lumotlardan xalq xo‘jaligining juda ko‘p tarmoqlari va yo‘nalishlarida foydalaniadi. Oqiziqlar rejimini to‘g‘ri baholay olmaslik esa ba’zan xalq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga katta zarar keltiradi.

*Daryo oqiziqlari deb, suv oqimi bilan birgalikda harakatlana-digan va o‘zan hamda qayir yotqiziqlarini hosil qiluvchi qattiq zarrachalarga aytildi.*

Daryo oqiziqlarining hosil bo‘lishida *tabiiy* va *kimyoviy* yemirilishlarning ham roli katta. Tabiiy yemirilish havo haroratining tebranishi bilan bog‘liqdir. Quyosh radiatsiyasining miqdoriga bog‘liq holda tog‘ jinslari kengayishi yoki torayishi mumkin. Ma’lumki, turli jinslarning kengayish koeffisiyentlari turlichadir.

Kimyoviy yemirilishda asosiy o‘rnlarni yer osti suvlari va havo egallaydi. Bu jarayon issiq va shu bilan birga nam iqlimi rayonlarda tez kechadi. Kimyoviy yemirilishga ohaktoshlar, dolomitlar juda oson beriladi. Karst hodisalari kimyoviy yemirilishlar natijasidir.

Tabiiy va kimyoviy yemirilishlar (nurashlar) ta’siriga uchragan jinslarning og‘irlik kuchi, suv, shamol, muzliklar ta’sirida yonbag‘irlarda siljishiga, harakatga kelishiga *denudatsiya* jarayoni deyiladi. Tog‘ qoyalarining qulashi, ko‘chki ketishi, yonbag‘irlarning surilishi kabi hodisalar denudatsianing ayrim ko‘rinishlaridir.

Yuqorida aytilgan jarayonlarning hammasi daryo oqiziqlari uchun mahsulot tayyorlaydi. Havzaga yoqqan atmosfera yog‘inlari, erigan qor va muzlik suvlari ana shu mahsulotlarning bir qismini oqizib, daryoga keltirib quyadi. Daryoga keltirib quyilgan mahsulotlarning daryo suvi bilan birgalikda olib ketilishi *tranzit* deyiladi. Tabiiy, asosan, relyef sharoitlarining o‘zgarishi tufayli suvning oqish tezligi kamayishi natijasida oqiziqlarning cho‘kib, yotqiziqlar hosil qilishi *akkumulyatsiya* deb ataladi.

Daryo oqiziqlari o‘zandagi harakatlanish rejimiga ko‘ra *muallaq* va o‘zan tubi oqiziqlariga bo‘linadi.

**Muallaq oqiziqlarning** massasi kichik bo‘lgani uchun ular daryoning quyilish joyigacha tranzit holda yetib boradi. **O‘zan tubi oqiziqlari** esa suvning oqish tezligi kamayishi bilan suv ostiga cho‘kib, o‘zan shaklini o‘zgartiradi.

Oqiziqlarni miqdoriy ifodalashda oqiziqlar sarfi, oqiziqlar oqimi (hajmi), oqiziqlar moduli yoki yuvilish moduli, yuvilish qatlami, erozion metr, o‘rtacha loyqalik va oqiziqlarning o‘rtacha kattaligi (diametri) kabi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

*Oqiziqlar sarfi deb, daryoning ko‘ndalang qirqimidan vaqt birligi(sek)da oqib o‘tadigan loyqa oqiziqlar miqdoriga aytildi.* Muallaq oqiziqlar sarfi R bilan, o‘zan tubi oqiziqlari sarfi esa G bilan belgilanadi va har ikki kattalik ham kg/s larda ifodalananadi.

*Oqiziqlar oqimi (hajmi) deb, daryoning ko‘ndalang qirqimidan ma’lum vaqt (kun, oy, yil) davomida oqib o‘tadigan loyqa oqiziqlar miqdoriga aytildi.* U  $W_R$  bilan belgilanib, tonnalarda yoki hajm birligida ifodalananadi. Agar  $T$  kun ichidagi o‘rtacha oqiziqlar sarfi  $R$  ( $\text{kg}/\text{c}$ ) ma’lum bo‘lsa, u holda oqiziqlar oqimi quyidagicha aniqlanadi:

$$W_R = \frac{R \cdot T \cdot 24 \cdot 60 \cdot 60}{1000} = 86,4 \cdot T \cdot R, \text{tonna}$$

Oqiziqlar oqimini hajm birligida ham ifodalash mumkin. Buning uchun hisoblashlarda quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$W_{RV} = \frac{W_R}{\gamma_R}, \text{m}^3$$

bu yerda:  $W_R$  – loyqa oqiziqlarning og‘irlik birligida ifodalangan hajmi, tonnada;  $\gamma_R$  – loyqa oqiziqlarning solishtirma og‘irligi,  $\text{t}/\text{m}^3$ .

*Oqiziqlar moduli yoki yuvilish moduli deb, bir yilda havzaning 1  $\text{km}^2$  yuzasidan yuviladigan oqiziqlar miqdoriga aytildi.* U  $M_R$  bilan belgilanib, quyidagicha topiladi:

$$M_R = \frac{31,54 \cdot 10^3 \cdot R}{F},$$

bu yerda: F – daryoning suv to‘plash maydoni,  $\text{km}^2$  larda; R – o‘rtacha yillik oqiziqlar sarfi,  $\text{kg}/\text{s}$ ;  $31,54 \cdot 10^3$  koeffisiyent yuvilish modulini  $\text{t}/\text{km}^2 \cdot \text{yil}$  o‘lcham birligida ifodalashga imkon beradi.

**Yuvilish qatlami** ( $h_{yu}$ ) mm da ifodalaniб, quyidagi tenglik yordamida aniqlanadi:

$$h_{yu} = \frac{W_{RV}}{F},$$

**Erozion metr** ( $h_e$ ) havzaning necha yil davomida 1 metr qalnlikda yuvilishini xarakterlaydi va quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$h_e = \frac{1000}{h_{yu}}.$$

Daryo suvining *o'rtacha loyqaligi* deb, uning hajm birligida mavjud bo'lgan oqiziqlar miqdoriga aytildi. U  $\rho_{o'rt}$  bilan belgilanib, quyidagicha hisoblanadi:

$$\rho_{o'rt} = \frac{R \cdot 10^3}{Q},$$

bu yerda: R – oqiziqlar sarfi, kg/s larda; Q – suv sarfi, m<sup>3</sup>/s larda. Ifodadagi 10<sup>3</sup> raqami kg dan g ga o'tish koefisiyenti bo'lib, loyqalik g/m<sup>3</sup> da ifodalaniди.

Oqiziqlarning eng muhim ko'rsatkichlaridan yana biri ularning **granulometrik (mekanik) tarkibidir**. Oqiziqlarning granulometrik tarkibi, ya'ni oqiziqlarning o'lchamlari – fraksiyalar bo'yicha taqsimlanishini ularning o'rtacha diametri ( $d_{o'rt}$ ) orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$d_{o'rt} = \frac{\sum d_i \cdot P_i}{100},$$

bu yerda: d<sub>i</sub> – ayrim fraksiyalar diametri, mm da; P<sub>i</sub> – shu fraksiyaga kiruvchi oqiziqlar og'irligining umumiy og'irlikka nisbatan foizlarda aniqlangan qiymati.

Yuqorida bayon etilgan qisqacha nazariy bilimlarni «Gidrologiya asoslari» (Toshkent, 2003) darsligi yordamida to'ldirish mumkin.

## 7.2. Daryolar oqiziqlari oqimini aniqlashda qo'llaniladigan asboblar

Yer sirtida harakatlanayotgan suv oqimi ma'lum ish bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ushbu mavzuda daryolarning loyqa

oqiziqlarini o'rganish, ularning hosil bo'lishi va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar, oqiziqlarning turlari hamda ularni o'lchashda qo'llaniladigan asboblar haqida ma'lumot beriladi.

Daryo suvlarida doimo ma'lum miqdorda erigan moddalar va qattiq jinslar mavjud bo'ladi. Ana shu qattiq jinslar va erigan moddalar rejimini o'rganish, o'lchash va miqdoran baholash ham gidrometriya fanining vazifasi hisoblanadi.

*Yuqorida qayd etilganidek, ma'lum vaqt davomida daryolar suvi bilan olib ketiladigan qattiq jinslar va erigan moddalar oqiziqlar oqimi deb ataladi.*

Har bir daryo va boshqa suv obyektlaridan xalq xo'jaligida samarali fodalanish uchun ularning faqatgina suv rejimini o'rganib-gina qolmay, balki oqiziqlar oqimini ham o'rganish zarur. Oqiziqlarning daryolar suvida paydo bo'lish jarayoni va ularning rejimini o'rganish, miqdorini aniq hisobga olib borish har qanday gidrotexnik inshootni loyihalash, qurish va ulardan foydalanishda katta ahamiyatga ega.

Yer yuzasida oqayotgan suv massasi og'irlik kuchi ta'siri natijasida qandaydir ish bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Daryo oqimi bajaradigan ishning o'lchami unda oqayotgan suv hajmiga va daryo o'zanining nishabligiga bog'liq.

Daryodagi suv sarfi ( $Q$ ,  $m^3/s$ ), daryo uchastkasining pasayish miqdori ( $H$ , m) va suvning hajm birligidagi og'irligi  $\gamma$  ( $10^3 \text{ kg/m}^3$ ) ma'lum bo'lsa, daryo suvining energiyasini ( $E$ ) quyidagi ifoda bilan hisoblash mumkin:

$$E = \gamma \cdot Q \cdot H = 1000 Q \cdot H + 10^3 Q \cdot H \frac{\text{kg} \cdot \text{m}}{\text{sek}}$$

Daryo energiyasini kilovattda ham ifodalash mumkin. Ma'lumki,  $1 \text{ kvt} = 102 \text{ kg} \cdot \text{m/sec}$ .

Oqiziqlarning hosil bo'lishiga ta'sir etadigan yana bir omil – atmosfera yog'inlaridir.

Oqiziqlar daryo o'zanida harakatlanishiga bog'liq holda, ikki turga ajratiladi:

1. *Muallaq oqiziqlar*, ular daryo o'zanida muallaq holda harakatlanadi;

2. *O'zan tubi oqiziqlari*, ular o'zan tubida harakatlanadi.

Oqiziqlarni shu belgilariga ko'ra ikki turga ajratishda keskin chegara yo'q. Chunki o'zanda suvning oqish tezligiga bog'liq holda muallaq oqiziqlar o'zan tubi oqiziqlariga yoki, aksincha, o'zan tubi oqiziqlari muallaq oqiziqlarga aylanib turishi mumkin. Bunday almashinishda oqiziqlarning gidravlik yirikligi ham muhim ahamiyatga ega.

*Gidravlik yiriklik deb, turg'un holatdagi suvda ma'lum diametrga ega bo'lgan oqiziqlarning cho'kish tezligiga aytildi.*

Maxsus gidrometrik ishlarni bajarish jarayonida quyidagilarni aniqlash mumkin:

- muallaq oqiziqlar sarfini ( $R$ , kg/s);
- o'zan tubi oqiziqlari sarfini ( $G$ , kg/s);
- daryo suvida erigan moddalar sarfini ( $S$ , kg/s).

*Muallaq oqiziqlar sarfini* suvning loyqaligidan namuna olishga asoslanib aniqlash mumkin:

$$R = \frac{\rho \cdot Q}{10^3}, \text{ kg/s.}$$

Suvning loyqaligi  $\rho$  esa quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\rho = \frac{R_n \cdot 10^6}{V}, \text{ g/m}^3,$$

bu yerda:  $R_n$  - namunadagi oqiziqlar og'irligi, grammda;  $V$ -olangan namunaning hajmi, millilitrda.

O'zan tubi oqiziqlari sarfini o'lhash esa namlangan perimetrnинг har bir metr uzunligidan bir sekundda oqib o'tayotgan oqiziqlar miqdorini ( $g$ ) o'lhashga asoslangan, ya'ni:

$$g = \frac{100 \cdot R_n}{t \cdot l}, \text{ g/m·s.}$$

bu yerda:  $R_n$  - namunadagi oqiziqlar og'irligi, grammda;  $t$  - kuzaish davomiyligi, sekundda;  $l$  - asbobning oqiziqlarni qabul qilib olayotgan qismining kengligi, metrda.

Erigan moddalar sarfini o'lhash suvning minerallashuv darajasi ( $\alpha$ )ni o'lhashga asoslangan:

$$\alpha = \frac{R_s \cdot 10^6}{V}, \text{ g/m}^3,$$

bu yerda:  $R_s$  - quruq holatdagi erigan moddalar miqdori, grammda;  $V$  - olingan namunaning hajmi, millilitrda.

Gidrometriyada yuqorida qayd etilgan uch xil ko'rinishdagi oqiziqlarni o'lchanashda turli usullar va asboblardan foydalaniladi.

Suvning loyqaligidan namuna olishda qo'llaniladigan asboblar **batometrlar** deb ataladi. Ular ishslash tamoyiliga qarab quyidagi ikki turga ajratiladi:

1. Suvdan bir onda namuna oluvchi batometrlar;

2. Suvdan ma'lum vaqt davomida namuna oluvchi batometrlar.

Hozirgi paytda, amalda, ikkinchi guruhdagi batometrlar ishlatiladi. Ulardan eng ko'p qo'llaniladigan shisha-butilka hamda vakuum batometrlardir. Tog' daryolarida tosh batometri qo'llaniladi. Unda butilka batometr metall korpus ichiga o'rnatiladi.

**O'zan tubi oqiziqlarini o'lchanadigan asboblar.** O'zan tubi oqiziqlarini o'lchanadigan xatolar muallaq oqiziqlarni o'lchanadagi yo'l qo'yiladigan xatolarga nisbatan bir necha marta katta bo'ladi. Ayrim hollarda xato 100 % va undan ham ortiq bo'lishi mumkin. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

1) o'zan tubi oqiziqlarining bir xil tezlikda harakatlanmasligi;

2) tekislik daryolarida batometrn vertikalda to'g'ri o'rnatma olmaslik;



7.1- rasm. Kuprinning GR-60 tipidagi filtrlash qurilmasi.

3) batometr suvgaga vertikal yo'nalishda tushirilganda uning atrofida tabiiy holatning o'zgarishi;

4) batometrning qabul qilib oluvchi qismining o'zan tubida tekis yotmasligi va boshqalar.

O‘zan tubi oqiziqlarini hisoblashda qo‘llaniladigan asboblarning turlari juda ko‘p. Ularga Glushkov, Goncharov, Apollov batometrlarini misol qilib keltirish mumkin.

Tog‘ daryolarida o‘zan tubi oqiziqlarini o‘rganishda Shamov batometri va setka batometrlar ham qo‘llaniladi.

### 7.3. Muallaq oqiziqlar sarfini o‘lhash va oqimini hisoblash

Yuqoridagi mavzularda qayd etilganidek, daryolarning loyqa oqiziqlari ikki turda bo‘ladi. Shunga bog‘liq holda ularni o‘lhash va hisoblash usullari ham turlichadir. Ushbu mavzuda muallaq hamda o‘zan tubi oqiziqlari sarfini o‘lhash, oqiziqlar oqimini hisoblash usullari yoritiladi.

Daryolarning loyqa oqiziqlarini o‘lhash va hisoblashdan asosiy maqsad suv xo‘jaligi inshootlarini loyihalash, qurish va ularni ekspluatatsiya qilishda zarur bo‘lgan tegishli ma’lumotlar bilan ta‘minlashdir. Shu maqsadni amalga oshirish uchun oqiziqlar oqimi hisoblanadi, ularning yil davomida va yillararo o‘zgarish qonuniyatlari o‘rganiladi.

Daryolar loyqa oqiziqlarining asosiy tashkil etuvchilaridan biri – muallaq oqiziqlar muntazam ravishda, reja asosida o‘lchanishi boriladi. O‘lhashlar soni yil davomida tekislik daryolarida 20 dan kam, tog‘ daryolarida esa 30 dan kam bo‘lmasligi kerak. Daryolarda to‘linsuv va toshqin davrlarida o‘lhashlar soni ko‘paytiriladi. Kam suvli davrda esa har oyda, kamida, bir marta o‘lchanishi zarur.

Daryolarda muallaq oqiziqlarni o‘lhash vaqtida, albatta, suv sarfi ham o‘lchanadi. Suv sarfini o‘lhash vaqtida qanday ishlar bajarilsa, muallaq oqiziqlarni o‘lhash vaqtida ham shu ishlarni bajarish zarur bo‘ladi. Bunda yuqoridagilarga qo‘srimcha suvning loyqaligidan namuna olinadi. Namuna olish vaqtida quyidagi usullar qo‘llanilishi mumkin:

1. Nuqta usuli;
2. Yig‘indi usuli;
3. Integratsion usul.

Yuqoridagi usullarni qo‘llash jarayonida daryo suvidan quyidagi tartibda 4 marta namuna olinadi:

1. Muallaq oqiziqlar sarfini hisoblash uchun olinadigan namuna;
2. Jonli kesmada belgilangan doimiy nuqtadan olinadigan namuna;
3. Oqiziqlarning yirikligini aniqlash maqsadida olinadigan namuna;
4. Suv o'lhash postida olinadigan namuna.

Muallaq oqiziqlarni hisoblashda, asosan, quyidagi ikkita usul qo'llaniladi:

- 1) analitik usul;
- 2) grafik usul.

Bu usullarning har birini qo'llashdan oldin, birinchi navbatda, oldingi mavzularda keltirilgan quyidagi ifoda yordamida daryo suvining loyqaligi ( $\rho$ ) hisoblanadi:

$$\rho = \frac{R_n \cdot 10^6}{V}, \text{ g/m}^3.$$

**Analitik usul** bilan muallaq oqiziqlarni hisoblashda quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$R = 0,001 [K \cdot \alpha \cdot W_1 + (\frac{\alpha_1 + \alpha_2}{2})W + \dots + (\frac{\alpha_{n-1} + \alpha_n}{2})W + K \cdot \alpha_n \cdot W_n], \text{ kg/sek},$$

bu yerda:  $K$  – qirg'oq oldida tezlikning kamayishini hisobga oluvchi koeffisiyent;  $\alpha$  – birlik kenglikka mos keladigan muallaq oqiziqlar sarfi, quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\alpha = \rho \cdot v, \text{ g/m}^2 \cdot \text{sek},$$

bu yerda:  $\rho$  – vertikaldagi o'rtacha loyqalik bo'lib, maxsus ifodalar yordamida hisoblanadi;  $v$  – tezlik. Bu ifodalar vertikaldagi o'rtacha tezlikni hisoblashda qo'llaniladigan ifodalarga o'xshashdir.

Agar muallaq oqiziqlarni o'lhash vaqtida nuqta usulidan foydalanilib, namuna 5 ta nuqtada olingan bo'lsa, hisoblashlarda *grafik usulni* qo'llash mumkin. Grafik usulda muallaq oqiziqlar sarfini hisoblashda bajariladigan ishlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) suv sarfi  $Q$  ni grafik usulda hisoblab, shu grafikning o‘zidan muallaq oqiziqlar sarfi  $R$  ni aniqlaymiz;
- 2) daryo suvi loyqaligi  $\rho$  ning chuqurlik bo‘yicha taqsimlanish epyurasi chiziladi;
- 3) muallaq oqiziqlarning birlik sarfi  $\alpha$  aniqlanadi;
- 4)  $\alpha$  ning chuqurlik bo‘yicha taqsimlanish epyurasi chiziladi;
- 5) elementar oqiziqlar sarfini ( $r, g/m\cdot sek$ ) hisoblaymiz, ya’ni  $\alpha$  epyurasining maydoni  $r$  ni beradi;
- 6) elementar oqiziqlar sarfi  $r$  ning vertikal balandligiga bo‘lgan nisbati vertikal bo‘yicha oqiziqlarning o‘rtacha birlik sarfini ifodalaydi;
- 7) oqiziqlarning o‘rtacha birlik sarfining daryo kengligi bo‘yicha taqsimlanish epyurasi chiziladi;
- 8) shu epyuradan chuqurlik o‘lchangan vertikallar uchun  $\alpha$  aniqlanadi;
- 9) har bir chuqurlik vertikali uchun elementar oqiziqlar sarfi aniqlanadi:  $r = h \cdot \alpha$ ;
- 10) elementar oqiziqlar sarfi  $r$  ning daryo kengligi bo‘yicha taqsimlanish epyurasi chiziladi;
- 11) shu epyuraning maydoni oqiziqlar sarfi  $R$  ni beradi;
- 12) oqiziqlar sarfining suv sarfiga nisbati, ya’ni  $\frac{R}{Q}$  miqdor jonli kesmadagi o‘rtacha loyqalik  $\rho_{o\cdot rt}$  ni ifodalaydi.

**Muallaq oqiziqlar oqimini hisoblash.** Suv sarfini hisoblash vaqtida suv sathi va suv sarfi orasidagi bog‘lanish grafigidan foydalanan edik. Muallaq oqiziqlar oqimini hisoblash suv sarfiga nisbatan murakkabroq, chunki bunda oqiziqlar sarfi ( $R$ ) ga ta’sir etadigan barcha omillarni hisobga olish qiyinroq.

**Muallaq oqiziqlar oqimini hisoblashda quyidagi ikkita usul qo‘llaniladi:**

- 1) muallaq oqiziqlar sarfi  $R$  bilan suv sarfi  $Q$  orasidagi bog‘lanishni, ya’ni  $R = f(Q)$  grafikni chizish;
- 2) jonli kesmadagi o‘rtacha loyqalikni  $\rho_{o\cdot rt} = f(\rho_{br.})$  bog‘lanish asosida hisoblash.

**Birinchi usul** suv rejimining yil davomidagi o‘zgarishi deyarli

bir xil bo‘lgan katta yoki o‘rtacha daryolarda qo‘llaniladi. Shu bilan birga bu usulni qo‘llash uchun suv sarfi Q va oqiziqlar sarfi R yil davomida yetarli darajada ko‘p o‘lchanigan bo‘lishi kerak. Bu o‘lchashlarda suv rejimining hamma fazalari e’tiborga olingan bo‘lishi lozim.

**Ikkinchи usul** asosiy hisoblanib, bu usulni qo‘llaganda ishlar quyidagi tartibda bajariladi:

- 1) suv sarfi va birlik loyqalikning xronologik grafigi chiziladi;
- 2) o‘rtacha loyqalik ( $\rho_{o\cdot rt}$ ) bilan namuna loyqalik ( $\rho_{kont}$ ) orasidagi bog‘lanish o‘rganiladi;
- 3) birlik loyqalik ( $\rho_{br}$ ) bilan o‘rtacha loyqalik ( $\rho_{o\cdot rt}$ ) orasidagi bog‘lanish chiziladi;
- 4) muallaq oqiziqlar sarfi  $R = \rho_{o\cdot rt} \cdot Q$  ifoda yordamida hisoblanadi;
- 5) bu yerda o‘rtacha loyqalik  $\rho_{o\cdot rt} = K \cdot \rho_{br}$  ifoda bilan hisoblanadi;

#### 7.4. O‘zan tubi oqiziqlarini o‘lhash va hisoblash

O‘zan tubi oqiziqlari sarfini o‘lhash vaqtida suv sarfi Q va muallaq oqiziqlar sarfi R ni o‘lhash birgalikda olib boriladi. Shuning uchun bajarilayotgan ishlarning tartibi, hajmi suv sarfi Q va muallaq oqiziqlar sarfi R ni o‘lhash vaqtidagiga o‘xshash bo‘ladi. Har bir vertikaldagi o‘zan tubi oqiziqlari G ni o‘lhash vaqtida o‘lhash aniqligiga katta e’tibor berish kerak. Bunda o‘zan tubi oqiziqlarining harakatlanuvchi qismini e’tiborga olish lozim.

O‘zan tubi oqiziqlarini yil davomida kamida 10-15 marta o‘lhash lozim. O‘lchashlarda, dastlab, o‘zan tubi oqiziqlarining elementar sarfi g aniqlanadi:

$$g = \frac{100 \cdot R_n}{t \cdot l}, \text{ g/m·sek},$$

bu yerda:  $R_n$  – namunadagi o‘zan tubi oqiziqlarining og‘irligi, grammda; t - kuzatish davomiyligi, sekundda; l – asbobning oqiziqlarning qabul qilib olayotgan qismining kengligi, metrda. O‘zan tubi oqiziqlarining elementar sarfi har bir vertikalda aniqlanadi. Keyin analitik yoki grafik usul yordamida G hisoblanadi. Ko‘p

hollarda quyidagi ifodaga asoslangan analitik usuldan foydalaniladi:

$$G = 0,001 \left( \frac{g_1}{2} \right) b_0 + \left( \frac{g_1 + g_2}{2} \right) b_1 + \dots + \left( \frac{g_{n-1} + g_n}{2} \right) b_{n-1} + \left( \frac{g_n}{2} \right) b_n,$$

bu yerda:  $b_1, b_2, \dots, b_{n-1}$  – tezlik vertikallari orasidagi masofalar, ya’ni kenglik;  $b_0$  – birinchi tezlik vertikali bilan qirg‘oq orasidagi masofa;  $b_n$ -oxirgi tezlik vertikali bilan qirg‘oq orasidagi masofa.

O‘zan tubi oqiziqlarining sarfi G ni hisoblashda quyidagi ikki usuldan foydalanish mumkin:

1) o‘zan tubi oqiziqlari sarfi (G) bilan suv sarfi (Q) orasidagi bog‘lanishni ifodalaydigan  $G = f(Q)$  egri chizig‘iga asoslangan usul;

2) interpolyatsiya usuli.

Suv o‘lchash amaliyotida ko‘proq birinchi usuldan foydalaniladi.

## 7.5. Oqiziqlar va o‘zan tubi yotqiziqlari namunalarini laboratoriya sharoitida qayta ishlash

Daryolar oqiziqlari va o‘zan tubi yotqiziqlari namunalarini laboratoriya sharoitida qayta ishlash quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1) namunalarni bevosita gidrologik postlardagi dala-laboratoriya sharoitida birlamchi qayta ishlash;

2) namunalarni gidrologik stansiyalardagi statsionar laboratoriya sharoitida ikkilamchi qayta ishlash.

**Birlamchi qayta ishlashda** quyidagi turdag'i ishlar bajariladi:

1) oqiziqlarni tindirish yoki filtrlash yo‘li bilan suv tarkibidan ajratib olish;

2) ajratib olingen oqiziqlarni quritish, maxsus idishlarga joylash va tahlil qilish uchun laboratoriya jo‘natish.

Oqiziqlarning yirikligini aniqlash faqat tindirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu usulning bir necha variantlari mavjud.

Oqiziqlarni filtrlashda esa quyidagi usullar qo‘llaniladi:

a) avtomatik usulda filtrlash;

b) bosim ta’sirida filtrlash.

Bosim ta'sirida filrlash, ko'pchilik hollarda Kuprinning GR-60 tipidagi filrlash qurilmasi yordamida amalga oshiriladi (7.1-rasm).

Namunalarni laboratoriya sharoitida qayta ishlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- 1) namunadagi oqiziqlar miqdorini aniqlash;
- 2) cho'kmalarni tashkil etgan oqiziqlar yirikligini aniqlash.

Oqiziqlarning yirikligini aniqlashda Sito (elak) qurilmasidan ham foydalaniladi. Oqiziqlarning granulometrik tarkibini aniqlashda ularning o'rtacha diametridan foydalaniladi. Bu kattalik oldingi mavzularda keltirilganidek, quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$d_{o\cdot rt} = \frac{\sum d_i \cdot P_i}{100},$$

bu yerda:  $d_i$  – ayrim fraksiyalar diametri, mm da;  $P_i$  – shu fraksiyaga kiruvchi oqiziqlar og'irligining umumiy og'irlikka nisbatan foizlarda aniqlangan qiymati.

## 7.6. Daryo suvining minerallashuvi va erigan moddalar oqimini hisoblash

Daryolar suvida ma'lum miqdorda organik va noorganik moddalar ionli-molekulyar yoki kolloid holatda uchraydi. Ularning ma'lum bir hududdan ma'lum vaqt davomida daryolar suvi bilan oqizilib ketgan miqdori **erigan moddalar oqimini** tashkil etadi. Erigan moddalar oqimining eng katta qismini **ionli oqim** tashkil etadi.

Asosiy **ionlar sarfi** ( $Q_U$ ) quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$Q_U = Q \cdot \sum U,$$

bu yerda  $Q$  – suv sarfi,  $m^3/s$ ;  $\sum U$ -minerallashuv darajasi,  $mg/l$ . Ionlar sarfi **kg/s** da ifodalanadi.

Ma'lum vaqt davomidagi ionli oqim ( $W_U$ ) hajmi tonnalarda ifodalanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$W_U = Q_U \cdot T ,$$

ifodadagi  $T$  – hisoblash davri (oy, yil, ko‘p yil) bo‘lib, sekundlarda ifodalanadi.

Ionli oqim miqdorini quyidagi kattalik yordamida ham aniqlash mumkin:

$$W_U = W \cdot \sum U ,$$

bu yerda:  $W$  - hisoblash davri (oy, yil) dagi suv oqimi hajmi ( $m^3$ );  $\sum U$  – shu davr uchun minerallashuv darajasining o‘rtacha qiymati ( $mg/l$ ).

Daryoning ma’lum bir hisob davridagi (oy, yil, fasl) ionli oqimining havzaning birlik yuzasiga to‘g‘ri keladigan miqdori **ionli oqim moduli** deb ataladi, uni quyidagi ifodalar bilan hisoblash mumkin:

$$M_U = \frac{W_U}{F} \quad \text{yoki} \quad M_U = 0,0315 M \cdot \sum U ,$$

ifodalardagi  $F$  - daryo havzasining maydoni ( $km^2$ ),  $M$  – suvning oqim moduli ( $l/s \cdot km^2$ ),  $\sum U$  – hisoblash davridagi minerallashuv darajasining o‘rtacha qiymati ( $mg/l$ ). Ionli oqim moduli tonna/ $km^2 \cdot yil$ , tonna/ $km^2 \cdot oy$  kattaliklar bilan ifodalanadi.

Bayon etilgan yo‘l bilan organik moddalar, biogen elementlar oqimi ko‘rsatkichlarini ham hisoblash mumkin.

Ionli oqim miqdori va uning yil ichida taqsimlanishi daryoning suvliligi va minerallashuv darajasiga bog‘liq. Shu tufayli bir xil sharoitda eng ko‘p ionli oqim miqdori eng yirik daryolarga to‘g‘ri keladi (7.1-jadval).

Shu bilan bir qatorda, suv oqimi miqdori bir xil bo‘lgan daryolarning qurg‘oqchil hududlarda joylashganlarida ionli oqim miqdori katta bo‘ladi. Masalan, Amudaryo ( $63 km^3$ ) va Indigirkha ( $58 km^3$ ) daryolarining o‘rtacha yillik oqimi hajmlari, ko‘rinib turibdiki, deyarli bir xil. Lekin, Amudaryoning ionli oqimi Indigirkaga nisbatan 10 martadan ko‘proqdir.

### 7.1-jadval

Evrosiyo materigidagi ayrim daryolarning o‘rtacha ko‘p yillik ionli oqimi (O.A.Alyokin bo‘yicha)

Daryo	Havza maydoni, ming km <sup>2</sup>	Ionli oqim, mln.t/yil	Daryo	Havza maydoni, ming km <sup>2</sup>	Ionli oqim, mln.t/yil
Lena	2420	59,8	Sirdaryo	219	9,51
Volga	1350	54,4	Amur	1620	9,11
Yenisey	2470	43,2	Dnepr	464	7,64
Ob	2450	33,8	Kura	178	5,20
Amudaryo	237	19,3	Pechora	259	5,66
Shimoliy Dvina	350	13,8	Indigirka	297	1,60

Ionli oqim moduli tog‘ daryolarida tekislik daryolariga nisbatan katta bo‘ladi. Masalan, tog‘ daryolari hisoblangan Rioni (Kavkaz) daryosida  $146 \text{ t/km}^2 \cdot \text{yil}$  yoki Amudaryoda  $85 \text{ t/km}^2 \cdot \text{yil}$  ga teng bo‘lsa, tekislik daryolari hisoblangan Shimoliy Dvina daryosida bor-yo‘g‘i  $2,94 \text{ t/km}^2 \cdot \text{yil}$  yoki Neva daryosida  $10,4 \text{ t/km}^2 \cdot \text{yil}$  ga teng.

Ionli oqim ( $W_U$ ) ning yil davomida taqsimlanishi suv oqimining taqsimlanishiga o‘xshashdir. Uning eng ko‘p miqdori to‘linsuv davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda minerallashuv darajasi kichik bo‘lsa ham, ko‘p suv bilan nisbatan ko‘p miqdorda erigan moddalar olib ketiladi.

“Мировой водный баланс и водные ресурсы Земли” (L., 1974 yil) ilmiy monografiyasida keltirilishicha, Yer kurrasining quruqlik qismidan daryolar okeanlarga yiliga 2,90 mlrd. tonna erigan moddalarni keltirib quyadi. Shundan 2,28 mlrd. tonnasi ionli oqimga to‘g‘ri kelib, o‘rtacha yillik ionli oqim moduli  $22,7 \text{ t/km}^2$  ga teng. Eng ko‘p ionli oqim miqdori Osiyoga (636 mln.t) to‘g‘ri kelsa, eng kami Avstraliyaga (62 mln.t) tegishlidir.

## *Sinov savollari va topshiriqlar:*

1. *Oqiziqlar oqimi deb nimaga aytildi?*
2. *Oqiziqlar oqimini o'rganishning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini aytib bering.*
3. *Oqiziqlarning hosil bo'lishiga qanday omillar ta'sir etadi?*
4. *Oqiziqlarning qanday turlari mavjud?*
5. *Batometr deb nimaga aytildi va ular nechta turga bo'linadi?*
6. *Oqiziqlarni o'lchaydigan asboblarning turlarini bilasizmi?*
7. *Tog' daryolarida o'zan tubi oqiziqlarini o'rganishda qanday batometrlardan foydalaniladi?*
8. *Muallaq oqiziqlarni o'lhashdan maqsad nima va o'lhash vaqtida qanday usullardan foydalanish mumkin?*
9. *Muallaq oqiziqlarni hisoblash vaqtida qanday usullar qo'llaniladi?*
10. *Muallaq oqiziqlarni analitik usulda hisoblash ifodasini yozib bering.*
11. *Muallaq oqiziqlarni grafik usulda hisoblash vaqtida bajariladigan ishlar taribini eslang.*
12. *Muallaq oqiziqlar oqimini hisoblashda qo'llaniladigan usullarni bilasizmi?*
13. *O'zan tubi oqiziqlarini o'lhash usullarini aytib bering.*
14. *O'zan tubi oqiziqlarini hisoblash usullarini aytib bering.*
15. *Daryo suvining gidrokimyoviy rejimini belgilovchi asosiy ionlarni aytинг.*
16. *Daryo suvining minerallashuvini qanday tushunasiz?*
17. *Tabiiy suvlar O.A.Alyokin tasnifi bo'yicha qanday sinflarga bo'linadi?*
18. *Daryo suvida mavjud bo'lgan ionli oqim qanday hisoblanadi?*
19. *Ionli oqim moduli nima va uning qiymati qanday aniqlanadi?*

## **8-BOB. SUV OBYEKTALARIDA MAXSUS KUZATISHLAR**

Mazkur bobdag'i mavzularda asosiy e'tibor talabalarga suv obyektlarida maxsus kuzatishlarni amalga oshirish usullarini o'rnatishga qaratiladi. Shu maqsadda suv obyektlarida bajariladigan maxsus kuzatishlar va tadqiqotlar, ularning mohiyati, suvning tiniqligini, rangi va haroratini kuzatish, mazkur ishlarda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, qurilma va jihozlar, daryolarda muzlash hodisalari rejimini kuzatish ishlari hamda ularni tashkil etish va boshqa masalalar ko'rib chiqiladi.

### **8.1. Suv obyektlarida bajariladigan maxsus kuzatishlarning mohiyati va vazifalari**

Suv havzalari, jumladan, daryolar, ko'llar va suv omborlarida suvning tiniqligi, rangi, harorati, muzlash hodisalarini o'rghanish va shu maqsadda maxsus kuzatishlarni amalga oshirish xalq xo'jaligidagi muhim ahamiyatiga ega. Bu masala, ayniqsa, suv transporti, gidroenergetika, irrigatsiya, ichimlik suv ta'minoti va boshqa sohalar ish faoliyatini tashkil etishda juda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida suvning harorati va muzlash hodisalari ko'llar va suv omborlari, ko'plab kichik tog' daryolari, Sirdaryo va Amudaryoning yirik irmoqlari hamda ularning o'rta va quyi oqimlarida kuzatiladi.

O'zbekiston daryolarida kuzatiladigan muzlash hodisalarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1) barqaror muzlash hodisalari kuzatiladigan daryolar, asosan, Amudaryoning quyi oqimi kiradi. Bu guruhdagi daryolarda muzlash hodisalari har yili noyabr, ba'zan dekabr oylarida boshlanib, fevralning oxiri – mart oyigacha davom etadi. Umuman olganda, bu jarayon har yili qishda takrorlanadi va barqaror muz qoplami eng kamida 40-60 kun saqlanib turadi;

2) barqaror bo'limgan muzlash hodisalari kuzatiladigan daryolarga Sirdaryoning Kal qishlog'idan Chinozgacha bo'lgan qismi, Norin va Qoradaryolarning quyi oqimi, Kosonsoy,

G'ovasoy, Sox, Isfara, Zominsuv, Sangzor, Piskom kabi daryolar misol bo'ladi;

3) muzlash hodisalari har zamonda kuzatiladigan daryolar. Qashqadaryo, Surxondaryo va ularning ayrim irmoqlarini shu guruhga kiritish mumkin.

Qish qattiq kelgan yillarda birinchi guruhga mansub bo'lган daryolarda muz qoplaming qalinligi 0,75-1,0 metrgacha yetishi mumkin. Masalan, 1969-yil fevral oyida Amudaryoning Qoramishtosh gidrologik postida muz qoplaming qalinligi 90 sm, Qipchoqda 82 sm va Qiziljarda 74 sm ga yetgan.



8.1-rasm. Mikroelektrotermometr.

Yuqorida qayd etilganlarga mos ravishda, O'zbekiston suv omborlarini ham muzlash hodisalariga ko'ra, **barqaror** va **barqaror bo'lman** muzlash hodisalari kuzatiladigan guruhlarga ajaratish mumkin. Masalan, Kosonsoy suv ombori birinchi guruhga mansub bo'lsa, Tuyabo'g'iz, Chimqo'rg'on, Kattaqo'rg'on va Quymozor suv omborlari ikkinchi guruhga kiradi. Birinchi guruhdagi suv omborlarida muzlash hodisalari dekabrning o'rtalaridan boshlanib,

mart oyigacha davom etadi. Ikkinchı guruhdə esa, asosan, yanvar-fevral oylarida kuzatıldı.

Ba'zan daryolarda muz parchalari oqimidan muz tiqinlari hosil bo'lib, ular daryo o'zanida suv sathining keskin ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Natijada, ayrim hollarda, daryo suvi o'zanidan toshib, atrofdagi aholi punktlari, xalq xo'jaligi obyektlariga katta zarar yetkazadi.

Shunga o'xhash hodisalar, ya'ni muz tiqinlari Amudaryoning quyi oqimida, xususan, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida qayd etilgan. Ko'rinish turibdiki, daryolar va boshqa suv havzalarida muzlash hodisalarini o'rganish ana shunday salbiy hodisalarning oldini olishga, prognozlash va, shu maqsadda, tegishli chora-tadbirlarni oldindan belgilashga imkon beradi.

Hozirgi kunda dunyo amaliyotida suv havzalari, jumladan, daryolar, ko'llar va suv omborlarida muzlash hodisalarini kuzatish va o'rganish natijasida ularni turli muddatlar uchun prognozlashning quyidagi turlari ishlab chiqilgan:

1) daryolar, ko'llar va suv omborlarini muz qoplashi va muz qoplami qalinligini qisqa muddatli prognozlash;

2) daryolar, ko'llar va suv omborlarining muz qoplamidan xalos bo'lish muddatlarini qisqa muddatli prognozlash;

3) daryolar, ko'llar va suv omborlarini muz qoplashi va ularning muzdan xalos bo'lish muddatlarini uzoq muddatli prognozlash.

Hozirgi kunda O'zbekistonda O'zgidrometning gidrologik prognozlar bo'limida suv havzalarida kuzatilishi mumkin bo'lgan muzlash hodisalari haqida ogohlantirish ko'rinishidagi prognozlar berildi.

## **8.2. Suvning tiniqligi, rangi va haroratini kuzatish**

Suv havzalari, jumladan, okeanlar, dengizlar, ko'llar, suv omborlari, daryolar suvining tiniqligi, rangi va haroratini kuzatish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu mavzuda shu masalalarga oid fikrlar bayon etiladi.

Suvning tiniqligini aniqlash standart shaklda ishlab chiqilgan **Sekki** diski yordamida amalga oshiriladi. Bu disk oq rangda bo‘ladi. Suvning tiniqligi diskning suv tubida ko‘rinish chuqurligiga bog‘liq holda aniqlanadi.

Suvning rangini o‘rganishda standart shkaladan foydalaniladi. Ushbu standart shkalada suvnig 21 turi maxsus probirkalarda keltirilgan bo‘ladi (8.2-rasm). Rasmda ko‘rinib turganidek, turli rangdagi probirkalar maxsus yashikchaga mahkamlangan. Chap tomondagи 1-11 probirkalardagi suv rangi ko‘k rangdan yashil rangga qarab o‘zgarib boradi. O‘ng tarafda esa 12-21 probirkalardagi suv rangi yashildan sekin-asta jigarrang tomon o‘zgaradi.

Namunaga olingan suvning rangi ma’lum vaqtdan keyin o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun uni ikkiga bo‘lib olish kerak. Namunaning birinchi qismi tahlillar uchun ishlatsa, ikkinchisi esa etalon sifatida, ya’ni namunaga olingan suv rangidagi o‘zgarishlarni taqqoslash uchun xizmat qiladi.

Suvning haroratini kuzatish suv sathini o‘lhash ishlari amalga oshiriladigan barcha gidrologik stansiyalar va postlarda olib boriladi. Bunda o‘lhashlar quyidagi ikki usulda amalga oshirilishi mumkin:

1) suvning haroratini sistematik ravishda, daryoning quyi oqimida, qirg‘oqqa yaqin joylashgan doimiy kuzatish joyida o‘lhash;

2) suv haroratini daryo uzunligi bo‘yicha bir nechta nuqtalar da, sinxron tartibda o‘lhash.

Suvning haroratini o‘lhash uchun suv o‘lhash postlari yaqinida, daryo yoki ko‘lning qirg‘oq qismida, chuqurligi taxminan 0,3-0,5 metrdan kam bo‘lmagan joy tanlanadi. Tanlangan joyga buloq suvlari yoki ishlab chiqarish chiqindilari oqib kelmasligi lozim. O‘lchanadigan joydagi suvning harorati o‘rganilayotgan suv havzasidagi suvning o‘rtacha haroratidan kam farq qilishi lozim. Bunga epizodik, ya’ni vaqt vaqt bilan amalga oshiriladigan sinxron o‘lhashlar natijalarini solishtirish yo‘li bilan erishiladi. Kengligi 10 metrdan kam bo‘lgan daryo suvining harorati uning o‘rtacha chuqurligiga teng bo‘lgan joyda, sayozliklarda esa eng chuqr joylarda o‘lchanadi.

Suvning harorati suv termometri yordamida 0,1 gradusgacha aniqlikda o'chanadi. Mikroelektrotermometr suv haroratini 0,8 dan 1,2 gradus diapazongacha 0,01 gradus aniqlikda o'chanadi (8.1-rasm). Shuning uchun ushbu termometrdan suv tez oqadigan daryolarda kuz va bahorda suvning harorati nolga yaqin bo'lgan vaqtarda foydalaniлади.

Suvning haroratini yuqori turbulentlik kuzatiladigan daryolarda o'chanashda sezuvchanligi nisbatan kichik bo'lgan, o'chanash diapazoni esa -0,2 dan +16,0 gradusgacha bo'lgan mikroelektrotermometrdan foydalaniлади. Bu asbobning o'lchov qismi uzunligi 12 metr bo'lgan 3 ta simli kabel orqali harorat qiymatini ko'rsatuvchi qurulma – datchikka ulanadi. Datchik ikki xil qarshilikdagi mis va magniyli simlardan iborat bo'ladi. Mis termosezuvchan element sifatida, magniy sim esa doimiy qarshiligi bo'lgani uchun ishlatiladi. Asosiy asbob esa ishga tushiruvchi tugma, reoxod ruchkasi, reoxod shkalasi, kabel ulash uchun joy va naushnikli yog'och yashikdan iborat. Uning ichki tarafida asbobning o'lchov qismi joylashtirilgan. O'lchanash vaqtida datchik belgilangan chuqurlikka tushirilib, 4-5 minut ushlab turiladi. Shundan so'ng reoxod ruchkasini burab, naushniklarda ovoz yo'qolishini kutib, shkaladan hisob olinadi. Suvning harorati maxsus tarirovka jadvalidan aniqlanadi.

Suvning haroratini o'chanash natijalarini dastlabki qayta ishlashda quyidagilar bajariladi:

1. Hisoblashlarning aniqligini oshirish uchun instrumental o'zgartirishlar kiritilishi lozim;

2. Har kuni soat 8<sup>00</sup> va 20<sup>00</sup> da amalga oshirilgan o'lchovlar asosida o'rtacha kunlik harorat aniqlanadi;

3. Kunlik natijalar asosida esa suv haroratining o'rtacha 10 kunlik va o'rtacha oylik qiymatlari hisoblanadi.

Yuqoridagi hisoblashlarning natijalari maxsus KG-1 daftarchasiga qayd etib boriladi.

Gidrologik stansiyalarda suvning haroratini kuzatish natijalari har oyda tekshiriladi va ularga qo'shimcha tarzda quyidagi ishlar bajariladi:

1. Kompleks grafikda suvning o‘rtacha kunlik haroratining oylik o‘zgarishi, ya’ni xronologik grafigi chiziladi;
2. Barcha oylik kuzatish ishlari natijalari tahlil qilinadi;
3. Gidrologik yilnomasi uchun suvning o‘rtacha kunlik harorati jadvali chiziladi.

Suvning haroratini o‘lchash natijalari asosida daryoning issiqlik oqimi miqdorini ham hisoblash mumkin. Buning uchun, suvning harorati haqidagi ma’lumotlarga qo’shimcha ravishda, suv sarfi, suvning solishtirma issiqlik sig‘imi kabi ma’lumotlar zarur bo‘ladi.


Daryolar, ko‘llar va suv omborlarining harorat rejimini o‘rganishda ulardagi suv haroratining chuqurlik bo‘yicha o‘zgarishlarini ham kuzatish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, suv havzalarining harorat rejimini o‘rganish, ularda muzlash hodisalarini keng miqyosda tadqiq etish va prognozlashga zamin yaratadi.

### **8.3. Daryolarda muzlash hodisalarini kuzatish**

Daryolar, ko‘llar va suv omborlarida muz qoplaming shakllanish muddatlari va muz qoplami qalinligini kuzatish ma’lumotlari qisqa muddatli prognozlashning quyidagi usullarini ishlab chiqarishga imkon beradi:

- 1) daryoda muz parchalari oqimining paydo bo‘lish muddatlarini prognozlash;
- 2) daryoda dastlabki muz qoplaming shakllanish muddatlarini prognozlash;
- 3) suv omborlari va ko‘llarda muzlashning boshlanish va muz qoplaming shakllanish muddatlarini prognozlash;
- 4) muz qoplaming qalinligini prognozlash.

Daryolar, ko‘llar va boshqa suv havzalarida muzlash hodisalarini kuzatishda, aniqrog‘i muzning qalinligini aniqlashda БЛ-47 hamda ГР-58 tipidagi muz burg‘ulash asboblaridan foydalilanildi. Ularning birinchisini ishlatishda qo‘l kuchidan foydalanilsa, ikkinchisi esa elektr tokida ishlaydigan mehanizm yordamida harakatga keltiriladi.



8.2- rasm. Suvning rangini aniqlash shkalasi.


Qo‘yida har bir prognozlash turi ustida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Daryoda muz parchalari oqimining paydo bo‘lishini prognozlash quyidagi bog‘lanishlarga asoslanadi:

$$\Sigma t_- = f(t_{suv}, h), \quad \Sigma(t_-)_{\min} = f(t_{suv}),$$


bu yerda:  $\Sigma t_-$  – suv yuzasida muz parchalari oqimining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan o‘rtacha kunlik manfiy havo haroratlari yig‘indisi;  $t_{suv}$  – suvning boshlang‘ich harorati;  $(\Sigma t_-)_{\min}$  – suv yuzasida muz parchalarining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan minimal manfiy haroratlar yig‘indisi;  $h$  – daryoning o‘rtacha chuqurligi.

Demak, daryoda muz parchalari oqimining paydo bo‘lishini prognozlash uchun daryoda suvning boshlang‘ich harorati, daryoning chuqurligi, manfiy minimal haroratlar yig‘indisi haqidagi ma‘lumotlar zarur bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan bog‘lanishlar asosida chizilgan va prognozlashga imkon beradigan grafiklar 8.3 va 8.4-rasmlarda keltirilgan.

Yuqorida qayd etilgan rasmlarning birinchisi daryoda muz parchalari oqimining hosil bo‘lishini o‘rtacha kunlik manfiy haroratlar yig‘indisiga bog‘liq holda prognozlashga imkon bersa, ikkinchisi esa minimal manfiy haroratlar yig‘indisiga bog‘liq holda prognozlash imkonini beradi.



8.3-rasm. Daryoda muz parchalari oqimining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan o‘rtacha kunlik manfiy haroratlar yig‘indisi ( $\Sigma t_-$ ) bilan suvning boshlang‘ich harorati ( $t_{suv}$ ) va daryoning o‘rtacha chuqurligi (h) orasidagi bog‘lanish grafigi.



8.4-rasm. Daryoda muz parchalari oqimining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan minimal manfiy haroratlar yig‘indisi ( $\Sigma t_-$ )<sub>min</sub> bilan daryoning o‘rtacha chuqurligi (h) orasidagi bog‘lanish grafigi.

Daryoda dastlabki muz qoplaming shakllanishini prognozlash usulini ishlab chiqish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- daryoda dastlabki muz qoplamlarining shakllanishi kutilayotgan suv sathi ma’lum usullar yordamida aniqlanadi. Bu suv sathi muz qoplami shakllanishi boshlangan muddatdagi sath ( $H_{bss}$ ) sifatida qabul qilinadi.

- suv yuzasida muz parchalarining hosil bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan minimal manfiy haroratlar yig‘indisi ( $\Sigma t_-$ )<sub>min</sub> hisoblanadi;

- hisoblashlar natijasi asosida  $(\Sigma t_-)_{min} = f(H_{bss})$  bog‘lanish grafigi chiziladi;

- shu grafik asosida ( $\Sigma t_-$ )<sub>min</sub> ning qiymati aniqlanadi;

- daryoda dastlabki muz parchalarining hosil bo‘lishi vaqtidan prognoz beriladigan kungacha bo‘lgan vaqt oralig‘idagi havo haroratlarining kuzatilgan hamda keyingi kunlarga prognoz qilingan (5 kundan ortiq bo‘limgan) qiymatlari asosida o‘rtacha kunlik manfiy havo haroratlari yig‘indisi ( $\Sigma t_-$ ) aniqlanadi;

– o‘rtacha kunlik manfiy haroratlar yig‘indisi  $(\Sigma t_-)$  ning hisoblangan qiymati minimal haroratlar yig‘indisi  $(\Sigma t_-)_{\min}$  bilan, bu qiymat esa, o‘z navbatida, manfiy haroratlar yig‘indisining chegara qiymati  $(\Sigma t_-)_u$  bilan taqqoslanadi. Agar  $(\Sigma t_-)_{\min} \leq (\Sigma t_-)_u$  sharti bajarilsa, daryoda muz qoplami shakllana boshlaydi.

Prognоз yuqorida qayd etilgan bog‘lanishdan foydalanib,  $(\Sigma t_-)_{\min}$  ning qiymatlari asosida amalga oshiriladi.

Suv omborlari va ko‘llarda muzlashning boshlanishi va muz qoplaming shakllanishini prognozlash quyidagi fizik-statistik bog‘lanishlar asosida amalga oshiriladi:

$$(\Sigma t_-)_{\min} = f(t_{suv}, h), \quad t_{kr} = f(\vartheta_{sh}),$$

bu yerda:  $t_{suv}$  – havo harorati  $0^{\circ}\text{S}$  gacha pasayish vaqtidagi suvning harorati;  $\vartheta_{sh}$  – muz qoplami shakllana boshlagan kundagi shamolning tezligi, m/s; qolgan kattaliklarning belgilanishlari yuqorida keltirilgan.

Ushbu turdagи bog‘lanish grafiklarini chizish va ulardan suv omborlari hamda ko‘llarda muzlashning boshlanishi va muz qoplaming shakllanishini prognozlashda foydalanish metodikasi yuqorida bayon qilingan prognozlash turlariga o‘xshashdir.

Muz qoplaming qalinligini prognozlash quyidagi umumiy ifoda yordamida amalga oshiriladi:

$$h_M = a(\Sigma t_-)^n,$$

bu yerda:  $\Sigma t_-$  – muz qoplami shakllangan kundan prognoz berilayotgan muddatgacha oraliqdagi o‘rtacha kunlik havo haroratlari yig‘indisi;  $a$  va  $n$  – statistik hisoblashlar natijasida aniqlanadigan parametrlar.

Bulutli, kuchsiz shamolli ob-havoda  $a = 1$ ,  $n = 0,65$ , ochiq joydagи sezilarli shamolda  $a = 1$ ,  $n = 0,69$ , ya’ni 1-holatda  $h_M = (\Sigma t_-)^{0,65}$ ; 2-holatda esa  $h_M = (\Sigma t_-)^{0,69}$  ifodalardan foydalaniadi.

Katta qalinlikdagi muz qoplami kuzatiladigan hududlarda, masalan, respublika shimolida, muz qoplaming qalinligi  $h_M = (\Sigma t_-)^{0,61}$  ifoda yordamida prognoz qilinadi.


Agar suv havzasi, ya’ni suv ombori yoki ko‘l muz bilan

qoplanib, uning ustiga qor yog'sa, muz qoplaming qalinligi quyidagi bog'lanish yordamida prognoz qilinadi:

$$h_{M, n+N} = f\left(\sum_1^n t_-, h_{q,n}\right),$$

bu yerda:  $h_{M, n+N}$  – prognoz berilayotgan n - kundan keyingi N kun oxirida kuzatilishi mumkin bo'lgan, ya'ni prognoz qilingan muz qoplami qalinligi;  $\sum_1^n t_-$  – havo harorati manfiy qiymatga o'tgan kundan prognoz berilayotgan kungacha bo'lgan oraliqdagi o'rtacha kunlik manfiy haroratlar yig'indisi;  $h_{q,n}$  – prognoz berilayotgan n - kunda muz ustidagi yoki reprezentativ meteorologik stansiyadagi qor qoplami qalinligi.

Yuqorida bog'lanishning grafigi 8.5-rasmida keltirilgan.



8.5-rasm. Daryoda muz qoplami qalinligi ( $h_M$ ) ni o'rtacha kunlik manfiy haroratlar yig'indisi ( $\sum_1^n t_-$ ) va muz ustidagi qor qoplami qalinligi ( $h_{q,n}$ ) ga bog'liq holda prognozlash.

Suv havzalari, jumladan daryolar, ko'llar va suv omborlarida muz qoplami qalinligini mazkur grafik yordamida amalga oshirish ancha qulaydir. Ushbu grafikdan ko'rinish turibdiki, u prognozlashda muz ustidagi qor qoplami qalinligini hisobga olish imkonini beradi.

Suv havzalari – daryolar, ko'llar va suv omborlarining muz qoplamidan xalos bo'lishini kuzatish, prognozlash xalq xo'jaligining suv transporti, gidroenergetika, suv ta'minoti sohalarida muhim ahamiyatga ega. Bu turdag'i prognozlar ham qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Suv havzalarining muz qoplamidan xalos bo'lishini qisqa muddatli prognozlashning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Daryolarning muz qoplamidan xalos bo'lishini qisqa muddatli prognozlash;
2. Daryoda muz qoplami parchalarining dastlabki ko'chishi va siljishini prognozlash;
3. Suv omborlari va ko'llarda muz parchalari harakatining boshlanish muddatini prognozlash;
4. Suv omborlari va ko'llarning muzdan to'la xalos bo'lish muddatini prognozlash;
5. Daryoda muz tizinlarini va shu jarayon davomida suv sathining o'zgarishini prognozlash.

Quyida prognozlashning yuqorida keltirilgan har bir ko'rinishi ustida alohida to'xtalib o'tamiz.

Daryolarning muzdan xalos bo'lishi ko'p jihatdan daryo o'zanida suv sathining ko'tarilishiga bog'liq. Shu tufayli, bu turdag'i prognozlar aksariyat hollarda, quyidagi bog'lanishga asoslangan holda amalga oshiriladi:

$$\Delta H = f(\Sigma t_-, \Sigma t_+),$$


bu yerda:  $\Delta H$  - suv sathining daryo uchastkasining muzdan xalos bo'lishi uchun zarur bo'lgan qishki minimal suv sathiga nisbatan ko'tarilish qiymati;  $\Sigma t_-$  – havo haroratining muz qoplami shakllanishi boshlangan muddatdan bahorda  $0^{\circ}\text{S}$  dan musbat

haroratga o'tishigacha bo'lgan oraliqdagi qiymatlari yig'indisi;  $\Sigma t_+$  – muzdan xalos bo'lgunga qadar oraliqdagi musbat haroratlar yig'indisi. Ushbu bog'lanish grafigi 8.6-rasmida keltirilgan.

Daryoning muzdan xalos bo'lish muddati esa quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

$$T_M = f(\varphi_m, h_m, b, l, H, \Delta H, \xi),$$

bu yerda:  $T_M$  – muzdan xalos bo'lish muddati;  $\varphi_m$  – muz qoplaming mustahkamligi;  $h_m$  – muz qoplaming qalinligi;  $b$  – muz qoplaming kengligi;  $l$  – daryo uchastkasining uzunligi;  $H$  – muz erishidan oldingi suv sathi;  $\Delta H$  – suv sathining ko'tarilishi;  $\xi$  – o'zanning egri-bugriligi ko'rsatkichi.



8.6-rasm. Daryoning muzdan xalos bo'lishini undagi suv sathining qishki minimal suv sathiga nisbatan ko'tarilishi ( $\Delta H$ ), qish davomidagi manfiy havo haroratlari yig'indisi ( $\Sigma t_-$ ) va muzdan xalos bo'lish jarayonidagi musbat haroratlar yig'indisi ( $\Sigma t_+$ ) ga bog'liq holda prognozlash.

Prognozlashni amalga oshirishda yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda meteorologik omillarni ham hisobga olish lozim. Mazkur muammolarining kelajakda hal etilishiga shubha yo'q.

Daryoda muz qoplami parchalarining dastlabki ko'chishi va siljishi prognozlarida  $H_c = f(H_{\max})$  hamda  $H_c = f(H_b)$  bog'lanishlaridan foydalilanadi. Ushbu ifodalarda:  $H_s$  – muz qoplaming dastlabki ko'chishi ko'zatiladigan suv sathi;  $H_{\max}$  – qish davridagi maksimal suv sathi;  $H_b$  – muz qoplami shakllangan dastlabki 5 kundagi o'rtacha suv sathi.

Suv omborlari va ko'llarda muz parchalari harakatining boshlanish muddati quyidagi bog'lanishlar asosida prognoz qilinadi:

1) suv omborlarining ochiq qismi uchun:

$$T_{mpk} = 0,96 \cdot T + 1;$$

2) suv omborlarining ma'lum belgilari va sharoitlari bilan ajralib turadigan, masalan, tog' yonbag'irlari soyasida joylashgan qismlari uchun:

$$T_{mpk} = 0,96 \cdot T + 6;$$

bu yerda:  $T_{mpk}$  – muz parchalarining ko'chishi, ya'ni harakatga kelishi kuzatiladigan kun bo'lib, 1-martga nisbatan aniqlanadi;  $T$  – muz qoplaming 15 sm qalinlikda erishiga imkon beradigan kunlar soni, bu ham 1-martga nisbatan aniqlanadi.

Suv ombori va ko'llarning muzdan to'la xalos bo'lishini oldindan aytishga imkon beradigan prognozlarni amalga oshirishda muz qoplaming to'la erishini ta'minlaydigan omillarni hisobga olish lozim. Shu holatni nazarda tutib, prognozlash usulini ishlab chiqish quyidagi bog'lanishga asoslanadi:

$$\Sigma q = L(h_m \cdot \rho_m + h_q \cdot \rho_q),$$

bu yerda:  $\Sigma q$  – birlik maydon ( $sm^2$ ) dagi muz qoplaming erishi uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori;  $L$  – muz erishining yashirin issiqlik sig'imi (80 kal/g);  $h_m$ ,  $\rho_m$ ,  $h_q$ , va  $\rho_q$  – mos ravishda muz, qorning qalinligi hamda zichligi. Agar  $\rho_m = 0,92 \text{ g/sm}^2$ ,  $\rho_q = 0,25 \text{ g/sm}^2$  hamda muz erishining yashirin issiqlik sig'imi ma'lum bo'lsa, yuqoridagi ifoda quyidagi ixchamlashgan ko'rinishni oladi:

$$\Sigma q = 73 \cdot h_m + 20 h_q.$$

Prognozlash usulini ishlab chiqishda  $\Sigma q$  meteostansiya ma'lumotlari asosida hisoblanadi. Prognozlashda ba'zan quyidagi fizik-statistik bog'lanishdan ham foydalaniladi:

$$T_{\max} = T + 5,$$

bu yerda:  $T_{\max}$  – suv yuzasining muzdan xalos bo'lish muddati;  $T$  – shu jarayon uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori to'planadigan muddat. Shu muddatdagi issiqlik miqdorini  $\Sigma q = 73 \cdot h_m$  ifoda bilan hisoblash mumkin. Bu ifodada,  $h_m$  – muz qoplaming turli joylarda aniqlangan qiymatlarining o'rta chasiidir.

Muz tiqinlari va shu jarayon davomida suv sathining o'zgarishini prognozlashda muz tiqini hosil bo'lishi mumkin bo'lgan suv sathining maksimal qiymatiga e'tibor qaratiladi. Bu qiymat, ya'ni  $\Delta H_{\max}$  ni quyidagi bog'lanish yordamida aniqlash mumkin:

$$\Delta H_{\max} = f(h_m, h_q, i, \frac{\Sigma q_H}{\Sigma q_6}, t_-, \phi, \Delta t),$$

bu yerda:  $h_m$  – muzning qalinligi;  $h_q$  – muz ustidagi qor qoplaminning qalinligi;  $i$  – dastlabki muz ko'chishi boshlangunga qadar suv sathining ko'tarilish jadalligi;  $\frac{\Sigma q_H}{\Sigma q_6}$  – muz tiqini hosil

bo'ladigan joydagi hamda toshqin rayonidagi birlik yuzaga tushadigan issiqlik miqdorlarining nisbati;  $t_-$  – muzdan xalos bo'lish vaqtidagi manfiy haroratlar ko'rsatkichi;  $f$  – muz tiqini kuzatiladigan uchastkadagi muz qoplami ko'rsatkichi;  $\Delta t$  – bosh daryo bilan irmoqlarining muzdan xalos bo'lish muddatlari orasidagi farq.

Daryolar, ko'llar va suv omborlarining muzlash va muzdan xalos bo'lish muddatlarini uzoq muddatli prognozlashning quyidagi turlari mavjud:

1. Daryolarda muzlash hodisalarini umumiylPrognozlash;
2. Daryolarning muzdan xalos bo'lish sanalarini uzoq muddatli prognozlash;
3. Suv omborlarining muzlash va muzdan xalos bo'lishini uzoq muddatli prognozlash.

Ushbu turdag'i uzoq muddatli prognozlar ham yuqorida qayd etilgan qisqa muddatli prognozlashlar kabi amalga oshiriladi.

Chunki ularni shakllantiruvchi tabiiy va meteorologik omillar, jumladan, havo harorati, suvning harorati, shamol va boshqalar bir xildir.

### *Sinov savollari va topshiriqlar:*

1. *Muzlash hodisalarini kuzatish xalq xo'jaligining qaysi sohalari uchun muhim hisoblanadi?*
2. *O'zbekiston daryolarida muzlash hodisalarini kuzatiladimi?*
3. *Muzlash hodisalarini kuzatishning qanday turlarini bilasiz?*
4. *Suv havzalarini muz qoplashi va muz qoplaming qalinligini aniqlashning qanday turlarini bilasiz?*
5. *Daryolarda muz parchalari oqimining paydo bo'lishini kuzatishda qanday gidrometeorologik kattaliklar hisobga olinadi?*
6. *Daryolarda muz qoplaming shakllanishini prognozlashga imkon beradigan bog'lanishlarni eslang.*
7. *Suv omborlari va ko'llarda muzlashning boshlanishi va muz qoplaming shakllanishini prognozlashga asos bo'ladigan bog'lanishlarni eslang.*
8. *Muz qoplami qalinligini prognozlashning qanday usullarini bilasiz?*
9. *Daryolar, ko'llar va suv omborlarining muz qoplamidan xalos bo'lishini qisqa muddatli prognozlashning qanday usullarini bilasiz?*
10. *Daryoda muz qoplami parchalarining dastlabki ko'chishi va siljishi sanalarini oldindan aytish mumkinmi?*
11. *Suv omborlari yoki ko'llarda muz parchalari harakating boshlanish muddatini prognozlashga imkon beradigan bog'lanishlarni eslang.*
12. *Suv havzalarining muzdan xalos bo'lish muddatlarini prognozlash qanday amalga oshiriladi?*
13. *Muz tiqinlari va shu jarayon davomida suv sathining o'zgarishini pragnozlashda foydalilanligidan kattaliklarni eslang.*
14. *Daryolar, ko'llar va suv omborlarining muzlash va muzdan xalos bo'lish muddatlarini uzoq muddatli prognozlashning qanday turlarini bilasiz?*

## **9-BOB. DAVLAT SUV KADASTRI, UNING MOHIYATI VA MAZMUNI**

Mazkur bob davlat suv kadastro, uning mohiyati va mazmunini yoritishga qaratilgan. Unda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi: davlat suv kadastro (DSK) va suv resurslarini hisobga olish, maqsad va vazifalari, DSKning tarkibiy qismlari: gidrologik o'r ganilganlik, gidrologik yilnomalar, asosiy gidrologik ko'rsatkichlar, yuza suvlari resurslari, muzliklar katalogi, DSKning tarkibiy qismlarida keltiriladigan ma'lumotlar, ularga yuklatilgan vazifalar va boshqalar.

### **9.1. Davlat suv kadastro, maqsadi, vazifalari**

Ushbu mavzuda Davlat suv kadastro (DSK) va suv resurslarini hisobga olish, DSK ning maqsadi va vazifalari, DSKning tarkibiy qismlari, jumladan, gidrologik o'r ganilganlik, gidrologik yilnomalar, asosiy gidrologik ko'rsatkichlar, yuza suvlari resurslari, muzliklar katalogi, shuningdek, DSKning tarkibiy qismlarida keltiriladigan ma'lumotlar, ularga yuklatilgan vazifalar ko'rib chiqiladi.

**Davlat kadastr tizimi, uning hozirgi holati.** Hozirgi zamonda dunyoning barcha davlatlarida kadastr tizimi olib boriladi. Dunyoda qabul qilgan tushunchalarga muvofiq, *kadastr* – bu ma'lum tabiiy yoki ma'muriy hududdagi tabiiy va sotsial-iqtisodiy boyliklar, hodisa va voqealar hamda narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bir tizimga solishdir. Bu ma'lumotlar iqtisodiy masalalarini, ularning sifat va turlari bo'yicha miqdor ko'rsatkichlarini, ba'zi hollarda, sotsial va ekologik jihatdan baholanishni ham o'z ichiga oladi.

**Kadastr tushunchasi haqida ma'lumotlar.** "Kadastr" so'zi yunoncha "katastichon" so'zidan fransuz tiliga "kadastre" shaklida o'tgan bo'lib, o'zbek tiliga aynan tarjima qilinsa, "varaq", "mulk-mulk daftari" yoki "mulkiy daftar" ma'nosini bildiradi.

Bu so'z, ko'pgina boshqa qadimgi atamalar kabi, vaqt o'tishi bilan o'zining ilk bor ko'zda tutilgan mazmuniga uncha to'g'ri

kelmaydi. Hozirda “kadastr” deganda, yer va boshqa ko‘pgina ko‘chmas mulklar haqida keng qamrovli, nihoyatda teran, ancha murakkab tushuncha nazarda tutiladi. Shu bois “kadastr” so‘zini ta‘riflayotganda, avval unga qo‘yilayotgan talab va vazifalarga, nima maqsadda bajarilayotganiga qarab izoh beriladi. Shunday qilib, kadastrning ta‘riflari quyidagicha bo‘ladi:

- a) kadastr deb, muayyan obyekt yoki voqelikni, ba’zi hollarda, ularni iqtisodiy baholashni ham o‘z ichiga olgan holda, son va sifat jihatdan hisobiy ro‘yxatni tuzishga aytildi;
- b) kadastr - rasmiy tashkilotlar yoki muassasalar tomonidan tuzilgan mulkiy daftardir.

**Davlat kadastr tizimining rivojlanish tarixi.** Ekin yerlari haqida ma’lumotlarni to‘plash, undan asosan soliq solish maqsadida foydalanish tarixi besh ming yillar nariga borib taqaladi. Bu borada geodeziya fanining paydo bo‘lish tarixiga murojaat qilishning o‘zi kifoya.

Dasrliklarda yozilishicha, qadimgi Misr davlatida Nil daryosi toshib ketib, atrofidagi ekin maydonini ishg‘ol etganligi haqida ma’lumot bor. Suv o‘zaniga qaytganda esa toshqindan zarar ko‘rib, deyarli tekis bo‘lib ketgan yerlarni o‘z egalariga ajratib berish muammosi tug‘ilgan. Ular yerdan foydalanganligi uchun soliq to‘lagan. Kimning qancha soliq to‘lashini esa mutaxassislar aniqlagan. Ko‘p hollarda soliq ekin maydonlarining miqdoriga boqliq bo‘lgan.

Qadimda ham, o‘rtta asrlarda ham barcha mamlakatlarda ekin maydonlariga soliq solish odat tusiga kirgan. Zero, davlatning qudrati soliqqa bog‘liq. Ishni bajarish uchun esa foydalilanligigan yerlar o‘lchangan, hisobga olingan. Demak, yer hisobi, undan olingan hosil hisobi bo‘lgan.

Kadastr tarixi eramizdan avvalgi 3000-yillarga to‘g‘ri keladi. Qadimiylar Misrda yer maydonlarining chegarasini aniqlashda kadastr syomkasi o‘tkazilgan. Yer maydonlarini hisobga olishda ularning chegaralari, maydoni va egalari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berilgan. Ko‘chmas mulkdan soliq yig‘ish va yer maydonlarini bo‘lish uchun eramizdan avvalgi 1700-yil Misrda yangi kadastr syomkasi o‘tkazilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor.

Eramizdan avvalgi 584-yilda Gretsiyada, eramizdan avvalgi VI asrda Italiyada, davlat qonunlari asosida kadastr ishlari olib borilgan. Bunda yer maydonlari va ularda joylashgan ko'chmas mulklar o'lchanan, tuproq turi, uning hosildorligi va ishlov berish yo'llari aniqlanib, soliq miqdori belgilangan.

Eramizdan oldingi 1000-yillarda Tigr va Evfrat daryolari oralig'idagi mamlakatlarda yerga ko'chmas mulk sifatida soliq solingani ma'lum. Rim hukmdori Avgust (eramizdan avvalgi 272 yilda) davrida aholini ro'yxatga olish, yer maydonlarini bo'lish, ularning chegaralarini aniq o'lhash, yuridik maqom berish, egasini aniqlash va soliq miqdorini belgilash bo'yicha ishlar olib borilgan.

Feodalizm davrida (900–1200-yillar) suuzerenlar (juda katta yer egalari) va ruhoniyalar yer va ko'chmas mulkka egalik qilishni hujjatlashtirish tarafdori bo'lganlar.

Angliyada yer solig'i 991-yildan boshlab joriy etilgan. 1066-yilda esa kadastr tuzilgan. 1162-yillarda Italiyada davlat xazinasini boyitish maqsadlarida davlat yer kadastro ishlab chiqilgan.

Fransiyada birinchi kadastr "hisob kitobi" 1269-yildan boshlab yozilgan. Yer kadastrining qo'llanilishi, yer maydonlarini o'lhash bilan doimiy ravishda, uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Vaqtning o'tishi bilan yer kadastrining usul va shakllari tarixan o'zgarib kelgan. Har bir davrning kadastro hukmron sinfning manfaatini ifodalagan. Qadimda ham, o'rta asrlarda ham barcha mamlakatlarda ekin maydonlariga soliq solish odat tusiga kirgan. Chunki, har bir davlatning qudrati soliqqa bog'liq bo'lib, foydalanadigan yerlar o'lchanan va hisobga olingan.

Yer kadastro Qadimiy Rimda mavjud bo'lib, erdan olinadigan soliqlar belgilanib borilgan. Qadimiy Misr va Vizantiya mamlakatlarda yer resurslarini hisobga olish va yerkarning haqiqiy bahosini belgilash uchun kadastr ma'lumotlaridan foydalanilgan.

XVIII asr o'rtalarigacha kadastr syomkalari va yer kadastrini olib borish usullari unchalik o'zgargan emas. Asosan, o'lchov ishlari arqon, temir va yog'och o'lchagichlarda olib borilgan.

1718-yil Djavanni Djakomo Marionni tomonidan ilmiy asoslangan kadastr syomkalari va tizimi yaratilgan. Yer maydonlarining chegaralari triangulyatsiya va poligonometriya usulida

o‘lchangan. Qishloq «obshinalari», parsellalar planlari 1:2000 mashtabda menzula yordamida syomka qilingan. Planda parsellalar, ya’ni yer uchastkalari, ularning maydoni, grunt turlari, ekin turlari, asosiy daromad miqdori (foyda) soliq uchun ko‘rsatilgan.

O‘zining aniqligi, pishiqligi va qulayligi uchun bu kadastr tizimi **«Milan»** kadastro degan nom olgan. XIX asrda bu kadastr tizimi Fransiya, Belgiya, Avstriya, Gollandiya va boshqa davlatlar kadastr tizimiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Xorijiy mamlakatlarda kadastr tizimini yuritish, asosan, milliy va hududiy xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Unda foydalilaniladigan ma’lumotlar kadastr maqsadlariga qarab o‘zgarishi mumkin.

Yevropa mamlakatlarida namuna sifatida **“Milan kadastro”** deb nomlangan dastur qabul qilingan. Ushbu dasturda kadastrning quyidagi vazifalari ko‘rsatilgan: har bir yer uchastkasining rejasи tuzilib, yer maydonlarining chegaralari, yerlarning sifati, yerdan olinadigan o‘rtacha hosildorlik va olinadigan sof foyda miqdori aniqlanib borilgan va kadastr kitobiga kiritilgan.

Yer uchastkalari to‘liq suratga tushirilib, rejalarini tuzilgandan keyin, hujjatlar baholash-ekspert komissiyasiga berilgan. Baholash ekspertlari arning haqiqiy holatini ko‘zdan kechirib, arning sifatini, qaysi ekin turi ekilishini va qaysi sinfga mansubligini aniqlab, o‘rtacha sof foyda miqdorini belgilab bergen. Bunda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bahosi ularning keyingi 15 yildagi o‘rtacha miqdoriga qarab olingan. Kadastr xizmatiga Moliya vazirligi rahbarlik qilgan. Kadastr bilan shug‘ullanuvchilar ikki guruhga bo‘lingan: birinchi guruhga yerni o‘lchab beruvchi geometrlar, ikkinchisiga soliq nazoratchilari va yerlarni sinflarga bo‘lувчи shaxslar kirgan.

Avstriyada yer kadastr XIX asrning birinchi yarmida ilk bor o‘tkazilgan. U paytlarda bu mamlakatda qonuniy ravishda yerlarni chegaralash kadastr bilan bog‘liq emas edi. Kadastr tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida soliqlar bo‘linar va har bir shaxsga yetkazilar edi.

Fransuzlar va avstriyaliklarning eng katta va asosiy kamchiliklari shundan iborat ediki, ular har bir yer uchastkasi uchun maxsus murakkab ishlab chiqilgan ta’riflar asosida yerlarni

baholagan. Shuning uchun kadastrni kiritish ishlari bu davlatlarda uzoq muddatga cho'zilgan.

Rossiya davlatida yerlarga kadastr ishlarini tatbiq etish 1842-yildan boshlanib, 20 yil davom etgan. Kadastr ishlarini o'sha davrda Rossiyaning Davlat Mulki vazirligining kadastr guruhlari amalga oshirgan. Ular yer maydonlarini toifalarga bo'lishda qishloq xo'jalik mahsulotlarining hosildorligi haqidagi ma'lumot-larga tayangan holda ish olib borganlar. Rossiyada yerlarni baholashda o'rtacha hosildorlik so'rab-surishtirish yo'li bilan yoki to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish orqali aniqlanib, umumiy daromad miqdori belgilangan. Bundan ishlov uchun qilingan xarajatlar hisoblanib, har bir turdag'i yer maydonidan olinadigan sof foyda aniqlangan. 1899-yilda Rossiyaning Davlat Mulki vazirligi yerni baholashning yangi qoidalarini kiritdi. Unga asosan, shartli ravishda, ishlov beriladigan erlar beshta guruhg'a bo'lingan, ya'ni eng yaxshi yerlardan, to eng yomon turdag'i yerlargacha bo'lingan.

Amerika Qo'shma Shtatlarida kadastrni joriy etish 1785-yildan boshlangan. Kadastr ishlarini boshqarish davlat tomonidan nazorat qilinib, ikki guruhg'a bo'lingan. Geodeziya xizmatidagi guruh vakillari, ular yerlarning chegaralarini, maydonlarini, qurilgan binolarning o'lchamlarini, hajmini aniqlash bilan shug'ullangan. Ikkinci guruh xizmatchilari huquqshunoslardan iborat bo'lib, ular yer va ko'chmas mulk egalarining mulkka bo'lgan egalik huquqini aniqlagan. Ular maxsus kadastr kitoblariga kiritilib, sud idoralarida saqlangan.

Amur Temurning "Temur tuzuklari" kitobida keltirilishicha, yer maydonining miqdori, undan olinadigan hosil, soliq miqdorini belgilagan. Unda "Hisobga olingan ekin yerlari birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib (bir jarib ( $958\text{ m}^2$ ) ga teng) ekin yer qilib ajratilsin. Birinchi jaribdan olingan hosilning uch xarvori (1 xarvor – 300 kg) ga yaqini, ikkinchi jaribdan olinganning ikki xarvori, uchinchi jaribdan olinganning bir xarvori yig'ib olinsin. Buning yarmini bug'doy, yarmini arpa hisoblab, ularni bo'lib, ikkisini dehqonga qoldirib, birini olsinlar. Agar raiyat bu yo'sinda soliq to'lashga rozi bo'lmasa, u holda bir xarvor bug'doyga besh misqol (bir misqol 4,8 grammga teng) kumush, bir xarvor arpasiga ikki yarim misqol

kumush miqdorida narx qo‘ysinlar. Shulardan boshqa, qo‘shimcha tarzda, ulardan hech qanday soliq talab qilmasinlar” deb yozilgan.

Yuqorida keltirilgan ishlarni aniq va to‘g‘ri bajarish uchun, albatta, ekin yerlari o‘lchangan va hosil hisobga olingan. Agarda noto‘g‘ri ma’lumotlar yig‘ilgan bo‘lsa, xizmatchilar jazolangan. O‘lhash natijalarini maxsus davlat daromadlari va yerlari bilan shug‘ullanuvchi oliy mansabdorlardan iborat, xolisa deb ataluvchilay ‘at tekshirgan. Xolisa egasiz qolgan yerlarni obod qilishga yordam bergen.

**Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlarda davlat kadastrining yuritilishi.** Ko‘pgina mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillaridan biri ularda mavjud tabiiy manbalardan oqilona foydalanishdir. Yer - ana shunday manbalarining asosiysisidir. Yer haqidagi ma’lumotlardan foydalanish, uning hosildorligini oshirish rejasini tuzishga, so‘ngra, yer sifati pasayib ketishining oldini olishga yordam beradi.

Yer manbalaridan foydalanishning samarasini oshirish uchun u haqda quyidagi ma’lumotlarni yig‘ish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, yerga egalik huquqi, undan foydalanish huquqining mavjudligi, yer va boshqa ko‘chmas mulkning bahosi, ulardan olinadigan soliq miqdori, hatto, yer va ko‘chmas mulk joylashgan mintaqaning rivojlanish rejasini tuzish shular jumlasidandir.

Yer va boshqa ko‘chmas mulklar haqida ko‘plab ma’lumotlarni bir joyga yig‘ish, ularni qayta ishslash, saqlash va zarur bo‘lganda ulardan foydalanish muammolarini yechish maqsadida yer yoki ko‘chmas mulk kadastri tizimi tuziladi. Hozirgi zamон kadastr tizimi har bir mamlakatda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Masalan, Fransiyani olib ko‘raylik. Mamlakatda hammasi bo‘lib 97 mln. yer uchastkalari (parsellalar) va 37 ming xususiy uyular, xonadonlar, do‘kon, sanoat korxonalarining binolari bor. Shuning uchun Fransiyada dastlab soliq miqdorini aniqlash maqsadida soliq (fiskal) kadastri tuzilgan.

Kadastr faoliyati Tuluza shahrida joylashgan milliy kadastr xizmati, Parijdagi Davlat kadastr hujjalari xizmati idorasi va

davlat departamentlarida joylashgan mintaqaviy soliq boshqarmalari tomonidan yuritiladi.

Davlat kadastr hujjatlari xizmati idorasining faoliyati esa kadastr planlarini tuzish va ularni saqlashdir.

Mintaqaviy soliq boshqarmasining vazifasi esa mavjud ma'lumotlarni yangilab turish, zamon talablariga javob beradigan darajada saqlash va shu asnoda ko'chmas mulkni baholash hamda ularni soliqqa tortishdan iboratdir.

Hozirda Fransiyada yer kadastrining avtomatlashtirilgan tizimi ishlab turibdi. Tizimga 5 mintaqaviy hisoblash markazi va 306 mahalliy kadastr byurosi kiradi.

Bular soliq boshqarmalarini o'zlarining ma'lumotlar bankidagi kadastrga doir so'nggi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Umuman olganda, avtomatlashtirilgan tizimning asosiy vazifasi, barcha yer uchastkalari, ko'chmas mulk obyektlari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, uni qayta ishlashdan iboratdir.

Karitalarni chizish, ularni yangilab turish ishlariga xususiy firmalarni jalb etish yaxshi natija berdi. Agar kadastr tuzishga 6 yil davomida davlat 1 mlrd. AQSh dollarari sarflagan bo'lsa, keyingi 3 yil davomida kadastrdan kelgan daromad 2,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Hozirda Ispaniyada 23 mln. ko'chmas mulk birligi bo'lsa, shundan 20 millioni qishloq xo'jaligi uchastkalaridir. Uning 70 foizga yaqini yangilangan.

Mamlakatda shaharsozlik kadastro ham tuzilgan. Har bir ko'chmas mulkka alohida hujjatlar joriy qilingan.

Unda binoning fotosurati, maydoni, necha qavatliligi, har bir qavatning chizmasi, xonardonning tavsifi, foydalanimaydigan maydon, qachon qurilgani va shunga o'xshash boshqa iqtisodiy ma'lumotlar keltirilgan bo'ladi.

Yer kadastrida esa, yer uchastkasining amaldagi chegarasi, maydoni, ekin turi, hosildorligi ko'rsatilgan. Bir yer uchastkasining kadastrini tuzish, shahar sharoitida 20 AQSh dollarini, ekin maydoni uchun 9 dollarni tashkil etadi. Shundan xaritani qayta tuzishga 1,5 dollar sarflanadi.

Germaniyada kadastr ishlari yer kadastr boshqarmalari tomonidan bajariladi. Bunday boshqarmalar, odatda, Ichki ishlar vazirligi yoki Moliya vazirligi tarkibida bo‘ladi.

Kadastr xaritalari 1:5000–1:200000 masshtablarda tuziladi.

Mahalliy kadastr boshqarmalari o‘zlariga ajratilgan hududlardagi mavjud yer va boshqa ko‘chmas mulklarni hisobga oladi, ularni ta’riflaydi. Kadastr ma’lumotlari uzlusiz ravishda yangilanib turadi.

Yer uchastkalari, ekin maydonlari, va boshqa yerlarning tasviri yer tasvirlovi bo‘limlari tomonidan bajariladi. Tasvirlov baholari yer va mulk egalaridan, jamoat tashkilotlaridan olinadi. Hozirda, Germaniyada bajarilayotgan kadastr tizimini yanada mukammallashtirish masalasi ma’lumot banklaridagi barcha axborotlarni birlashtirishdan iboratdir.

Yer va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagи ko‘chmas mulklarning hozirgi holati "Yer kitobi" da qayd qilinadi, mulk egalarining faoliyatni sir tutiladi.

Ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida bo‘lganidek, Shvetsiyada ham kadastr ko‘p maqsadlidir. Kadastr ma’lumotlari yer va boshqa ko‘chmas mulk egalarining yerga va mulkka egalik huquqini maxsus mulkiy kitoblarda qayd qiladi, soliq miqdorini belgilaydi, undan tashqari davlatga qarashli yer manbalarining samarasini oshirish borasidagi siyosatiga xizmat qiladi.

Yer kadastro masalalari qamroviga kadastr ma’lumotlarini to‘plash, ularni qayta ishlash, saqlash, mulkiy huquq, yer va mulknini soliqqa tortish vazifalaridan tashqari, yer uchastkalarini shakllantirish, ularning tasvirlovini tayyorlash kabi ishlar ham kiradi.

Daniya davlat kadastro quydagi to‘rt bo‘limdan iborat:

1. Yer uchastkalarining ro‘yxati. Unda, yer uchastkasining tartib raqami, maydoni, egalik guvohnomasining raqami, ularning holati, o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar, yer uchastkalarini bo‘lish yoki ularni bir-biriga qo‘sib olish kabilar keltiriladi;

2. Kadastr xaritalari;

3. Yer uchastkalarini o‘lchash hujjatlari, ularning chegaralari haqidagi ma’lumotlar;

4. Kadastr tasvirlovlari tarmoqlarini bog'lovchi nazorat nuqtalarining ro'yxati.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq barcha o'zgarishlar kadastrda o'z aksini topadi. Bu ishlarga geodezik ishlarni bajarishga ruxsatnomasi (litsenziya) si bor xususiy yer tuzuvchilar ham jalb qilinadi. Ko'chmas mulk egasi o'z mulkining tarkibida biror o'zgarish ro'y bersa, u haqda kadastr bo'limiga o'zgarishlar haqida hujjat olib keladi va kadastr idorasi hujjatning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilsa, u holda mulk egasining huquqi muhofaza qilinib, hisobiy kitoblarga o'zgartirishlar kiritiladi. Aks holda, hujjatlarni kadastr xizmati xodimlarining o'zlari tayyorlab, mulk egasiga tezda yordam beradi.

Bulardan tashqari, hisobiy kitobda shaxsning xususiy mulkka nisbatan cheklangan huquqi, shu jumladan, birovning ko'chmas mulkidan foydalanishning cheklangan huquqi (servitut), uni garovga qo'yish kabi amaliyotlar ham ko'rsatiladi. Kadastr xizmati mamlakat markazidan uzoq bo'lган mintaqalarda joylashgan 85 okrug sudlarida joylashgan bo'lib, ular Adliya vazirligi tarkibiga kiradi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, tijorat maqsadlarida barpo etilgan bino va inshootlar kadastr hujjatlarida ko'rsatilgan yer uchastkalarining hisob raqami bilan belgilanadi. Ular haqidagi boshqa ma'lumotlar odatdagidek yoziladi.

**O'zbekiston Respublikasi davlat kadastrlari tizimi.** Mustaqillik sharofati bilan, bozor iqtisodiga o'tishda tabiiy va iqtisodiy boyliklarning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish, ularning hozirgi holatini o'rganish maqsadida 1996-yil O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining №255-sonli qaroriga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi bir butun davlat kadastro tizimi» barpo qilindi.

Qabul qilingan dasturga binoan quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Kadastr tizimini yuritish qonun-qoidalarining asosini yaratish;

2. Ma'lum yo'nalish va tarmoqlar bo'yicha (aholi, qishloq xo'jaligi, tuproq, yer va h.k.) kadastr ma'lumotlarini yig'ish, o'rganish, tahlil qilish va tartibga solish;

3. Kartografik asosni tuzish va yangilash, kadastr xaritalarining yangi turlarini yaratish;

4. Kadastr tizimi uchun mutaxassislarni tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi davlat kadastr tizimining asosiy maqsadi butun respublika hududi uchun avtomatlashtirilgan kadastr ma'lumotlari tizimini yaratish va «*Davlat kadastrlari yagona tizimi*»ni (DKYaT) barpo qilishdir. Ko'p maqsadlarda boshqarish, rejalashtirish, baholash, bashoratlash, muhofaza qilish va boshqa maqsadlarda xizmat qiluvchi ma'lumotlar markazini yaratish ham zarur. Bu maqsadlar uchun aniq, ishonchli, har tomonlama to'la zamonaviy ma'lumotlar kerak. Zamon va makon, ulardagi voqeja va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni eski, an'anaviy usullarda yig'ish, saqlash, tahlil qilish va qayta ishlash xalq xo'jaligini hududiy boshqarish va rejalashtirishda hozirgi kunda uncha samarali emas.

Bu maqsadlarda zamonaviy GIS texnologiyasini qo'llash o'rinnlidir. Chunki bu texnologiyaning imkoniyatlari juda katta. O'zbekistonda 1997 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va respublikamiz shaharlarida ko'chmas mulk kadstri tizimi tashkil qilindi. Oradan bir yil o'tib, 1998 yil avgustida «O'zbekiston Yer kadastro» to'g'risida qonun qabul qilindi.

2000 yil, 15-dekabrda esa «Davlat kadastrlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Shu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasida quyidagi kadastrlar tizimi joriy qilindi:

Davlat yer kadastro;

Foydali qazilma konlari, belgilari, texnogen hosilalar davlat kadastro;

Davlat suv kadastro;

Davlat o'rmon kadastro;

O'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastro;

Hayvonot dunyosi davlat kadastro;

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastri;

Binolar va inshootlar davlat kadastro;

Davlat shaharsozlik kadastro;

Gidrotexnika inshootlari davlat kadastro;

Tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastro;

Avtomobil yo'llari davlat kadastro;

Temir yo'llar davlat kadastro;

Transport truboprovodlari davlat kadastro;

Aloqa obyektlari davlat kadastro;

Energetika obyektlari davlat kadastro;

Ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini ko'mib tashlash va utillashtirish joylari davlat kadastro;

Tabiiy xavfi yuqori bo'lgan chegaralar davlat kadastro;

Texnogen xavfi yuqori bo'lgan chegaralar davlat kadastro;

Kartografiya - geodeziya davlat kadastro;

Hududlar davlat kadastro.

Davlat kadastrlari yagona tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi «O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, Geodeziya, Kartografiya va Davlat kadastro qo'mitasi» («O'zervegeodezkadastr») tomonidan bajariladi. Bu korxona davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

«O'zervegeodezkadastr» davlat qo'mitasi davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiga kiruvchi har bir kadastr turi uchun vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, jumladan:

– DKYaT ni yuritadi;

– Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarni tegishli davlat kadastrlarini yuritish uchun zarur bo'lgan kartografiya materiallari bilan belgilangan tartibda ta'minlaydi;

– Davlat kadastrlari yuritilishiga doir me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

– Mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi va boshqalar.

Qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi va uning alohida hududlari tabiiy va iqtisodiy potensialini aniqlash, ularni har tomonlama hisobga olish va baholash maqsadida barcha turdag'i boyliklardan foydalanish, ularni ishlab chiqarishni boshqarish, rivojlanishini bashorat qilish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va soliq undirish uchun kadastr ma'lumotlarining ahamiyati beqiyosdir.

DKYaT davlat boshqaruv tizimi korxonalarini, ilmiy tekshirish institutlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni, o'z faoliyatlarini yuritishda tezkor kadastr ma'lumotlari bilan ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtida «O'zergeodezkadastr» qoshidagi «Geoinformatika va kadastr milliy markazi» Davlat kadastr kartalarini yaratishda «INTERGRAF» va boshqa takomillashgan kompyuter uskunalarini bilan ta'minlangan. Bu uskunalardan keng foydalanilgan holda, raqamli elektron kadastr karta va planlari ishlab chiqilgan. Bu ishlar yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bunday ishlarda asosiy kartografik ma'lumot sifatida aerofoto ma'lumotlardan keng foydalanilmoqda. Shu tufayli raqamli kadastr kartalari va boshqa ma'lumotlarning aniqlik darajasi ancha yuqoridir.

**Davlat kadastr yagona tizimini yuritish haqida.** Bu ishlar Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida yuritiladi. Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun hujjatlari shu sohaga tegishli qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomalar qoidalari qo'llaniladi.

Davlat kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u davlat kadastr yuritiladigan tabiiy, xo'jalik obyekti yoki boshqa muayyan turning geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tafsilotlari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo'ladi.

Davlat kadastr yagona tizimini yuritishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Butun respublika hududini qamrab olish;
2. Faoliyatni markazlashtirilgan holda boshqarish;
3. Kadastr ma'lumotlarini bir xil usulda yig'ish va ularga ishlov berish;
4. Kadastr planlari va xaritalari uchun bir xil tizimdagi fazoviy koordinatalar va umumiy topografik asosni qo'llash;
5. Barcha turdag'i kadastr tizimlarini Yer kadastro asosida tuzish;
6. Avtomatlashtirilgan geoinformatsion texnologiyani qo'llash;
7. Axborot va ma'lumotlarning to'g'riliqi, zamonaviyliqi, to'laligi va aniqligini ta'minlash;
8. Ma'lumotlarni doimo to'ldirib borish va yangilash;
9. Ma'lum doiradagi foydalanuvchilarga tegishli ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash va boshqalar.

**Davlat kadastro turlari haqida ma'lumot.** Yuqorida qayd etilganidek, kadastr turlari ko'p. Masalan, davlat yer kadastro, davlat suv kadastro, o'rmon kadastro, arxitektura obidalari va davlat kadastrlarining yuzdan ortiq boshqa turlari bor.

**Yer kadastro.** Yer uchastkalari haqidagi ma'lumotlar yig'indisi kitob tarzida, kartoteka yoki ma'lumotlar tizimi tarzida tuziladi. Unda yer kadastro, yer uchastkalarining tartib raqamlari, tavsifi, yer egalari haqida ma'lumotlar to'plangan bo'ladi.

Davlat yer kadastrida, asosan, yerlarning tabiiy-xo'jalik, huquqiy holatlari haqida ishonchli ma'lumotlar to'planadi. Davlat yer kadastrida yer egalaring ro'yxati, erving miqdori, uning sifati, tuproq bonitirovkasi, yerning iqtisodiy bahosi ko'rsatiladi.

**Davlat suv kadastro.** Davlat suv kadastro suvning miqdori va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish, suvdan foydalanishni qayd qilish va hisobga olish ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

**Ko'chmas mulk kadastro.** Barcha yuridik idoralar va jismoniy shaxslarga mansub bo'lgan binolar va inshootlar davlat hisobiga olinib, kadastr ro'yxatiga kiritiladi. Ko'chmas mulk kadastro yuridik kuchga ega bo'lgan hujjatdir.

**Shahar kadastro.** Shahar hududida mavjud bo'lgan obyektlarning huquqiy, xo'jalik, tabiiy va iqtisodiy holati haqidagi ma'lumotlar to'plamidir. U shaharning rivojlanishini va kunlik


faoliyatini ta'minlaydi va shahar muhitida vaqt o'tishi bilan yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga oladi.

**Yuridik kadastr.** Ko'chmas mulkka bo'lган huquq haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lган va bu huquqlarni ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlaydigan axborot tizimiga yuridik kadastr deyiladi.

## 9.2. Davlat suv kadastrining tarkibiy qismlari

Ushbu mavzuda Davlat suv kadastro (DSK)ning gidrologik o'r ganilganlik, gidrologik yilnomalar, asosiy gidrologik ko'rsatkichlar, yuza suvlar resurslari, muzliklar katalogi va DSKning boshqa tarkibiy qismlari va ularda keltiriladigan gidrometrik ma'lumotlar, ularga yuklatilgan vazifalar haqidagi fikrlar keltiriladi.

Shuningdek, muzliklar katalogi, qor ko'chkilari kadastro haqida ma'lumotlar beriladi.



### 9.2.1. Gidrologik o'r ganilganlik

«Gidrologik o'r ganilganlik», unda keltirilishi zarur bo'lган ma'lumotlar:

- a) daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar va boshqa suv obyektlarining alifbo tartibidagi ro'yxati, uni tuzish usullari;
- b) suv obyektlari haqidagi asosiy ma'lumotlar, ularni yoritish usullari;
- v) suv obyektlaridagi hidrologik stansiya va postlar haqida ma'lumotlar;
- g) ko'llar va suv omborlari haqida asosiy ma'lumotlar;

- d) suv yuzasidan bo‘ladigan bug‘lanishni kuzatish punktlari;
  - e) suv obyektlarini ekspeditsiya sharoitida gidrologik va gidrografik tadqiq etish;
  - j) suv obyektlari haqida e’lon qilingan ilmiy ishlar, hisobotlar;
  - z) suv obyektlarining gidrografik sxemasi va boshqalar

### **9.2.2. Gidrologik yilnomalar**

«Gidrologik yilnomalar» va unda keltiriladigan ma'lumotlar:


- a) DSKning hududiy bo‘linishi va hududiy nomenklaturasi;
  - b) yilnomalarning tomlarga, qismrlarga bo‘linish sxemasi;
  - v) suv obyektlarining alifbo tartibidagi ro‘yxati;
  - g) hidrologik stansiya va postlarning joylashish sxemasi.

**Daryolar, kanallar:** a) daryolar, kanallardagi stansiya va postlar ro'yxati, tavsifi, daryolarning gidrologik rejimi obzori;

- b) suv sathi ma'lumotlari;
  - v) suv sarfi ma'lumotlari;
  - g) suvning loyqaligi haqidagi ma'lumotlar;
  - d) muallaq va o'zan tubi oqiziqlari sarfi;
  - e) oqiziqlarning granulometrik tarkibi va zichligi;
  - j) suvning harorati;
  - z) muzlash va muz ustidagi qor qalinligi;
  - i) muzlash hodisalar.


**Ko'llar va suv omborlari:** a) ko'llar va suv omborlaridagi stansiva va postlar ro'yxati, o'rni, sxemasi;

- b) ko‘llar va suv omborlari hidrologik rejimining obzori;
  - v) suv sathi;
  - g) suvning harorati;
  - d) suv balansi va boshqalar.




### *9.2.3. Asosiy gidrologik ko'rsatkichlar*


«Asosiy hidrologik ko'rsatkichlar» va unda keltiriladigan ma'lumotlar: «Asosiy hidrologik ko'rsatkichlar»ning tomilar va qismlarga bo'linishi; shartli belgilari; suv obyektlari va hidrologik stansiyalar ro'yxati, joylashish sxemasi; kanallar va boshqa hidroteknik inshootlar ro'yxati, joylashish sxemasi; daryolarning asosiy hidrologik ko'rsatkichlari; ko'llar va suv omborlarining asosiy hidrologik ko'rsatkichlari va boshqalar.



### *9.2.4. Yuza suvlar resurslari*

«Yuza suvlar resurslari», unda keltiriladigan ma'lumotlar: suv obyektlarining ro'yxati; kuzatish punktlarining ro'yxati; havzaning tabiiy sharoiti va hidrografik tarmoqlari; daryolar suv rejimi va hududni hidrologik rayonlashtirish; daryolar suv sathi rejimi; yillik oqim me'yori va o'zgaruvchanligi; oqimning yil davomida taqsimlanishi; to'linsuv va maksimal suv sarflari; kam suvli davr; daryolarning muzlash va harorat rejimi; muallaq oqiziqlar oqimi; sel oqimlari; hidrokimyoiy rejim va boshqalar.






## 9.2.5. Muzliklar katalogi

«Muzliklar katalogi», unda keltiriladigan ma'lumotlar: katalogning tom va qismlarga bo'linishi; muzliklarning geografik joylashishi, morfologiyasi, gidrologik rejimi; muzliklar haqida asosiy ma'lumotlar; muzliklar yaqinidagi gidrometeorologik stansiyalar va postlar ro'yxati; muzliklar yaqinidagi summar osadkomerlar va qor o'lhash punktlari ro'yxati; muzliklarda o'tkazilgan ekspeditsiya va statsionar tadqiqotlar; muzliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan ishlar ro'yxati; qo'shimcha ma'lumotlar va boshqalar

## 9.2.6. Qor ko'chkilari kadastro

«Qor ko'chkilari kadastro», "Qor ko'chkilari" ma'lumotnomasi va unda keltiriladigan suv kadastro axborotlari: Qor ko'chkilari haqida ma'lumotlar. Havzalar bo'yicha qor ko'chkilar kuzatiladigan rayonlarning karta – sxemalari. Qor ko'chkilarining ekspozitsiyalar bo'yicha taqimlanish jadvallari. qor ko'chkilarini kuzatish ma'lumotlari. Qor ko'chkilari xavfi mavjud bo'lgan rayonlarning tafsifi va boshqalar



#### **9.2.7. Suv – energetika kadastro**

«Suv – energetika kadastro», suv energetika kadastro ma'lumotnomasi va unda keltirilgan suv kadastro axborotlari: havzaning orografiyasi va gidrografiyasi haqida ma'lumotlar; suv energetika kadastro bo'yicha ma'lumotlar tarkibi va tadqiqot uslublari; tadqiqotlar hajmi; kartometrik ishlar elementlari; gidrostvorlardagi suv sarflarini hisoblash.

Shuningdek, mazkur tur kadastrda hududdagi daryolarning suv – energetik resurslari haqidagi jadvallar hamda energetika maqsadlari uchun suv energiyasining zaxirasi ma'lumotlari keltiriladi.

## TEST SAVOLLARI

### 1. «Gidrometriya» so‘zining ma’nosи –

A) lotincha so‘z bo‘lib, «gidro» – suv, «metriya» – aniqlash, ya’ni suvni aniqlash ma’nosini bildiradi;

B) grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, «gidro» – suv, «metriya» – o‘lchash, ya’ni suvni o‘lchash ma’nosini bildiradi;

C) inglizcha so‘z bo‘lib, «gidro» – suv, «metriya» – aniqlash, ya’ni suvni aniqlash ma’nosini bildiradi;

D) fransuzcha so‘z bo‘lib, «gidro» – suv, «metriya» – aniqlash, ya’ni suvni aniqlash ma’nosini bildiradi.

### 2. Gidrometriyaning tadqiqot usullari:

A) statsionar, ekspeditsiya, tajriba-laboratoriya;

B) eksperimental, statsionar va modellash;

C) laboratoriya, statistik usul va statsionar usul;

D) statsionar, ekspeditsiya va nazariy tahlil.

### 3. Gidrometriya o‘rganadigan suv obyektlariga bog‘liq holda qanday qismlarga bo‘linadi?

A) okeanlar, quruqlik gidrometriyasi, yer osti suvlari gidrometriyasi, dengiz gidrometriyasi;

B) atmosfera suvlari gidrometriyasi, yer usti suvlari gidrometriyasi, yer osti suv lari gidrometriyasi;

C) quruqlik gidrometriyasi, yer osti suvlari gidrometriyasi, dengiz gidrometriyasi;

D) dengizlar, quruqlik gidrometriyasi, yer osti suvlari gidrometriyasi, ko‘llar gidrometriyasi.

### 4. Gidrologik stansiya:

A) daryolarda kuzatilgan suv sarfi ma’lumotlarini to‘playdigan va qayta ishlaydigan davlat tashkiloti;

B) suv obyektlarida suv o‘lchash va kuzatish ishlarini amalga oshiradigan, shu jarayonda to‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlaydigan, ma’lum xodimlar shtatiga ega bo‘lgan davlat tashkiloti;

C) daryolarda kuzatilgan ma’lumotlarni to‘playdigan va qayta ishlaydigan davlat tashkiloti;

D) daryolarda kuzatilgan suv sathi, suv sarfi haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlaydigan davlat tashkiloti.

**5. Suv o'lhash postlarida nimalar bo'lishi kerak?**

- A) orttirmasi va "0" grafik tekisligi qurilmasi;
- B) reyka, shtanga, qoziq, o'zi yozar qurilmasi;
- C) ko'prik, parom, reyka, qoziq qurilmalari;
- D) balandlik belgisi (reper) va suv o'lhash (reyka, qoziq, o'zi yozar) qurilmalari.

**6. Gidrometeorologiya xizmati tomonidan tashkil etilgan stansiya va postlarni guruhlarga ajratishda asosiy tamoyillar to'g'ri keltirilgan javobni toping.**

- A) bajariladigan ish hajmi va suv obyektlaridagi suv miqdori;
- B) kuzatiladigan ishlari hajmi va suv obyekti turi;
- C) bajariladigan ish hajmi va turi;
- D) kuzatish va o'lhash ishlari, qo'llaniladigan asbob-uskunalar.

**7. Stansiya va postlarda bajariladigan ishlarga qarab, ular qanday turlarga ajratiladi?**

- A) meteorologik, agrometeorologik, ko'llardagi, qor ko'ch-kilari, botqoqliklardagi;
- B) aerologik, gidrologik hamda dengiz va ko'llar, suv omborlari;
- C) meteorologik, aerologik, gidrometeorologik, dengiz gidrometeorologik kemalardagi gidrometeorologik, ixtisoslashgan gidrometeorologik;
- D) gidrometeorologik, agrometeorologik, meteorologik, hidrologik.

**8. Yuqori va quyi nishablik postlari orasidagi masofa qanday belgilanadi?**

- A. ular orasida suv sathining pasayish balandligi  $\Delta h$  ga bog'liq holda belgilanadi;
- B) ular orasida maksimal suv sathining ko'tarilish balandligi  $\Delta H$  ga bog'liq holda belgilanadi;
- C) ular orasida suv sarfining o'zgarish kattaligi  $\Delta Q$  ga bog'liq holda belgilanadi;
- D) ular orasida chuqurlikning ortishi  $\Delta h$  ga bog'liq holda belgilanadi.

### **9. Suv yuzasi nishabligini aniqlash ifodasi:**

- A)  $I = \frac{\Delta h}{L}$ ;      B)  $I = \frac{h}{l}$ ;
- C)  $I = \frac{\Delta H}{h}$ ;      D)  $I = \frac{\Delta Q}{q}$ .

### **10. Gidrologik post:**

- A) ma'lum talablarni hisobga olib, daryo yoki boshqa suv obyektining tegishli qismida o'lchash va kuzatish ishlari amalga oshiriladigan joy;
- B) daryolarning suv sathini kuzatish uchun maxsus tanlangan joy;
- C) suv obyektlarining suv rejimini kuzatib borish uchun tanlangan gidrologik stansiya;
- D) daryoning suv sarfi va suv sathini kuzatish uchun qurilgan maxsus ko'pri.

### **11. Suv sathining tebranish turlari:**

- A) yillararo tebranish, ko'p yillik tebranish, yillik tebranish, fasliy tebranish;
- B) kunlik, oylik tebranish, yil ichida fasliy tebranish;
- C) fasliy tebranish, sutkali tebranish, oylik tebranish, yillararo tebranish;
- D) ko'p yillik va yillik tebranish, fasliy tebranish, oylik va kunlik tebranish.

### **12. Daryolar suv rejimining asosiy elementlarini aytib bering.**

- A) chuqurligi, nishabligi, oqish tezligi, harorati, minerallashuv darajasi;
- B) suv sathi, suv sarfi, oqish tezligi, harorati, kengligi;
- C) suv sathi, suv sarfi, oqish tezligi, nishabligi, minerallashuvi;
- D) suv sathi, suv sarfi, oqish tezligi, harorati, minerallashuv darajasi.

### **13. «0» grafik tekisligi deganda nimani tushunasiz?**

- A) suv sarfini o'lchash uchun shartli ravishda qabul qilingan aniq tekislik;

- B) suv tezligini o'lhash uchun shartli ravishda qabul qilingan tekislik;
- C) suv sathini o'lhash uchun shartli ravishda qabul qilingan faraziy tekislik;
- D) loyqa oqiziqlarni o'lhash uchun shartli ravishda qabul qilingan tekislik.

**14. «0» grafik tekisligi qanday tanlanadi?**

- A) daryoning tarixiy minimal suv sathidan kamida 0,5- 1,5 m pastda;
- B) daryoning tarixiy minimal suv sathidan kamida 0,5- 1 m pastda;
- C) daryoning tarixiy minimal suv sathidan kamida 0,8-1 m pastda;
- D) daryoning tarixiy minimal suv sathidan kamida 0,5- 0,8 m pastda.

15. Kuzatishlarni «0» grafik tekisligiga nisbatan olib borishdan asosiy maqsad:

- A) kuzatishlarni musbat qiymatlarda bo'lishini, ularni taqqoslashni ta'minlash;
- B) kuzatishlarning bir xilligini hamda ularni bir-biri bilan solishtirishni ta'minlash;
- C) kuzatishlarning bir xilligini va musbat qiymatlarda bo'lishini ta'minlash;
- D) kuzatishlarning davomiyligini, bir xilligini ta'minlash.

**16. "0" kuzatish tekisligi qanday topiladi?**

- A) reykaga nisbatan nivelirlash yordamida;
- B) suv sathiga nisbatan nivelirlash yordamida;
- C) reperga nisbatan nivelirlash yordamida;
- D) suv sarfiga nisbatan nivelirlash yordamida.

**17. Orttirma deb namaga aytildi?**

- A) "0" kuzatish tekisligi balandligi bilan "0" grafik tekisligi orasidagi balandliklar yig'indisiga aytildi;
- B) "0" kuzatish tekisligi balandligi bilan "0" grafik tekisligi balandligi orasidagi farqqa aytildi;
- C) "0" kuzatish tekisligi balandligi bilan "0" grafik tekisligi balandligining ko'paytmasiga aytildi;

D) "0" kuzatish tekisligi balandligi bilan mutlaq balandlik orasidagi farqqa aytildi.

**18. Birinchi razryadli suv o'lhash postlarida bajariladigan ishlar tarkibi nimalardan iborat?**

A) suv sarfini o'lhash, suv tezligini aniqlash va suv sathini kuzatish;

B) suvning loyqaligidan namuna olish, chuqurlik o'lhash ishlarini bajarish;

C) suv sathi, suv va oqiziqlar sarfi, suvning harorati, muz qoplami qalinligi, muz ustidagi qor qoplami qalinligi, havo harorati o'lchanadi, loyqalik va kimyoviy tahlillar uchun namunalar olinadi;

D) suv sathi balandligi, suv va muallaq oqiziqlar sarfi o'lchanadi, suvning loyqaligidan namuna olinadi.

**19. Suv o'lhash postlarining qanday turlarini bilasiz?**

A) murakkab, oddiy, uzatma, o'zi yozib boruvchi suv o'lhash postlari;

B) uzoq masofaga uzatib beruvchi, reykali, qoziqli suv o'lhash postlari;

C) oddiy, uzatma, o'zi yozib boruvchi, reykali, qoziqli suv o'lhash postlari;

D) oddiy, uzatma, o'zi yozib boruvchi, uzoq masofaga uzatib beruvchi suv o'lhash postlari.

**20. Eng ko'p tarqalgan suv o'lhash postlari:**

A) trostli suv o'lhash postlari;

B) oddiy suv o'lhash postlari;

C) uzatma suv o'lhash postlarining;

D) o'zi yozar suv o'lhash potlari.

**21. Oddiy suv o'lhash postlari qachon quriladi?**

A) daryoning suv sarfi juda kichik miqdorda o'zgarganda;

B) suv sathining tebranishi keskin va katta bo'limgan hollarda;

C) suv sathining tebranishi 2 metrdan katta bo'limganda;

D) suv sathining tebranishi 5 metrdan katta bo'limganda.

**22. Daryo kengligi 10 m va undan kichik bo‘lsa, suvning harorati daryoning qaysi qismida o‘lchanadi?**

- A) o‘rtasida;
- B) chap qirg‘og‘ida;
- C) o‘ng qirg‘og‘ida;
- D) 1 m chuqurlikda;

**23. Oddiy suv o‘lhash postlarida o‘lhash asboblari nimalardan iborat?**

- A) aralash, ko‘prikli, trostli;
- B) trostli, kuprikli, reykali;
- C) qoziqli, gidrometrik ko‘prikli;
- D) reykali, qoziqli, aralash.

**24. Suv o‘lhash asboblari asosan reykali, qoziqli yoki aralash bo‘lsa, u qanday post hisoblanadi?**

- A) oddiy suv o‘lhash posti;
- B) uzoq masofaga uzatib beruvchi;
- C) uzatma suv o‘lhash posti;
- D) o‘zi yozar suv o‘lhash posti.

**25. Suv sathining yillik tebranish amplitudasi 8-10 metr bo‘lsa, qanday suv o‘lhash postini qurish tavsiya etiladi?**

- A) qoziqli suv o‘lhash posti;
- B) o‘zi yozar suv o‘lhash poti;
- C) trostli suv o‘lhash posti;
- D) uzoq masofaga uzatib beruvchi suv o‘lhash posti.

**26. Trostli suv o‘lhash postlari qanday holatlarda quriladi?**

- A) daryoning qirg‘og‘i  $30^{\circ}$  li burchak ostida bo‘lgan hollarda;
- B) daryoning qirg‘og‘i  $45^{\circ}$  li burchak ostida bo‘lgan hollarda;
- C) daryoning qirg‘og‘i juda tik bo‘lgan hollarda;
- D) daryoning qirg‘og‘i  $60^{\circ}$  burchak ostida bo‘lgan hollarda.

**27. Uzatma suv o‘lhash postlarining qanday tiplarini bilasiz?**

- A) ko‘prikli, trostli postlar;
- B) lyulkali, qoziqli, o‘zi yozar postlar;
- C) ko‘prikli, o‘zi yozar postlar;
- D) ko‘prikli, reykali, qoziqli va lyulkali postlar.

**28. Nishabli suv o'lhash postlaridan qanday maqsadlarda foydalaniladi?**

- A) dimlanish borligini o'lhash uchun;
- B) suv o'lhash postlarini joylashishini aniqlash uchun;
- C) oqim chuqurligini aniqlash uchun, gidropostni ko'chirish uchun;
- D) daryoda suv yuzasi nishabligini o'lhash uchun.

**29. Dimlanishning tarqalish masofasini hisoblash ifodasi:**

- A)  $L = a \cdot \left( \frac{h_0 + z}{i} \right);$
- B)  $H = a \cdot \left( \frac{q_0 + z}{i} \right);$
- C)  $B = a \cdot \left( \frac{h_0 + H}{i} \right);$
- D.  $F = a \cdot \left( \frac{h_0 + Q}{h} \right).$

**30. O'rtacha kunlik suv sathi qanday aniqlanadi?**

- A) kuzatishlarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi;
- B) kuzatishlarning yig'indi qiymati olinadi;
- C) kuzatishlarda olingan sanoqlar ko'paytiriladi;
- D) kuzatishlarda olingan sanoqlarning farqi olinadi.

**31. O'zi yozar suv o'lhash postini qanday usulda o'rnatish mumkin?**

- A) ko'priq tipida, qirg'oq tipida;
- B) orol tipida, qirg'oq tipida;
- C) trossga mahkamlangan qirg'oq tipida;
- D) orol tipida, ko'priq tipida.

**32. O'zi yozar suv o'lhash asbobi yozuv qurilmasining asosiy qismlari to'g'ri keltirilgan javobni toping.**

- A) baraban, shtanga, yo'naltiruvchi sterjen, reyka, harakatdagi markaz, yukcha;
- B) baraban, sekundomer, yo'naltiruvchi sterjen, peroli karetka, namyotka, yukcha;
- C) baraban, soat mexanizmi, yo'naltiruvchi sterjen, peroli karetka, harakatdagi markaz, yukcha;
- D) reyka, soat mexanizmi, vertushka, mexanik lot, harakatdagi markaz, yukcha.

**33. Moslashgan suv sathlari qanday holatlarda o‘rganiladi?**

- A) bir daryoda bitta post bo‘lganda;
- B) daryolarning suv sathlari bir xil qiymatlarda bo‘lganda;
- C) bir daryoda bir necha post bo‘lsa yoki bir xil tabiiy geografik sharoitda o‘zaro yaqin masofada bo‘lgan daryolardagi postlar ma’lumotlariga ko‘ra;
- D) tabiiy geografik sharoiti o‘zaro yaqin masofada bo‘lgan daryolarda kuzatilgan suv sathlari ma’lumotlari asosida.

**34. Xarakterli suv sathlari deb nimaga aytildi?**

- A) maksimal va minimal suv sathi, daryoda kema qatnovini yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘lgan suv sathlari;
- B) maksimal, minimal, o‘rtacha yillik, o‘rtacha oylik, o‘rtacha o‘n kunlik, o‘rtacha sutkalik suv sathlari;
- C) minimal suv sarfi, daryoning muzlashi yoki daryo muzlardan xalos bo‘ladigan suv sarfi, kema qatnovini yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘lgan suv sarflari;
- D) suv rejimi elementlarining maksimal va minimal qiymatlari.

**35. Suv sathining takrorlanishi va ta’minlanishi nima maqsadda o‘rganiladi?**

- A) daryodan samarali foydalanish va gidrotexnik inshiootlarni loyihalashda;
- B) suv sarfidan to‘liq foydalanish va kema qatnovini yo‘lga qo‘yishda;
- C) suv sathidan to‘liq foydalanish va kema qatnovini yo‘lga qo‘yishda;
- D) davryoda suv sathining tebranishini o‘rganishda.

**36. Chuqurlik deganda nimani tushunasiz?**

- A) reykaning «0» kursatkichidan ma’lum songacha bo‘lgan chuqurlik;
- B) ma’lum nuqtada suv betidan o‘zan tubigacha bo‘lgan vertikal masofa;
- C) o‘zan tubida reykaning «0» ko‘rsatkichigacha bo‘lgan vertikal masofa;
- D) istalgan no‘qtadan o‘zan tagigacha bo‘lgan gorizontal masofa;

## GLOSSARIY

**Aralash postlar** - ham reykali, ham qoziqli postlardir.

**Artezian quduqlar** - yer ostidan bosim kuchi bilan otilib chiqadigan va suv olish uchun kovlangan quduqlar.

**Barqaror bo'lmagan qor qoplami** - kuz va qishning boshlarida, erta bahorda yog'ib, erib ketadi.

**Barqaror qor qoplami** - kuz va qishda yog'ib, bahorgacha saqlanadi.

**Bug'lanish** - suyuq yoki qattiq holatdagi suvning gaz (bug') holatiga o'tishi.

**Vadoz yer osti suvlari** - yerning ustki qatlami – po'stidagi suvlar.

**Vozgonka** - qor va muzliklar yuzasidan bug'lanish jarayonida qattiq holatdagi suv molekulalarining to'g'ridan-to'g'ri gaz holatiga o'tish jarayoni.

**Gidrometriya** – fan nomi, «Gidrometriya» grek so'zidan olingan bo'lib, «gidro» - suv, «metriya»- o'lchash, ya'ni “suvni o'lchash” ma'nosini bildiradi.

**Gidrometrik kattaliklar** – suv sathi, suv sarfi, oqim tezligi, suv harorati, oqim hajmi va boshqalar.

**Gidrometrik stvor** - daryoda suv sarfi doimiy ravishda o'lchab turiladigan ko'ndalang kesma.

**Gidravlik radius** - jonli kesma maydonining namlangan perimetrga bo'lgan nisbati.

**Gidravlik yiriklik** - turg'un holatdagi suvda ma'lum diametrغا ega bo'lgan oqiziqlarning cho'kish tezligi.

**Gidrometrik parrak (vertushka)** - suv obyektlarida suvning oqish tezligini o'lchaydigan asbob.

**Gidrometrik parrakni darajalash (vertushkalarni tarirovkalash)** - tajriba asosida parrakni 1-sekundagi aylanishlar soni (n) va tezlik (V) orasidagi bog'lanishlarni topish.

**Gidrologik stansiya** - ma'lum xodimlar shtatiga ega bo'lgan, gidrometeorologiya sohasiga qarashli davlat tashkiloti.

**Gidrologik postlar** - ma'lum talablarni hisobga olib, daryo yoki boshqa bir suv obyektining tegishli qismida o'lchash ishlarini amalga oshirish uchun tanlangan joy.

**Gidrometeorologiya xizmati** - bu xizmat umum davlat xizmati hisoblanib, uning vazifasi xalq xo'jaligini gidrometeorologik ma'lumotlar bilan ta'minlashdir.

**Gidrometeorologiya Bosh Boshqarmasi** - xalq xo'jaligi tarmoqlari va mamlakat mudofaasini meteorologik, klimatologik, aerologik, agrome-

teorologik, gidrologik va dengiz gidrometeorologik ma'lumotlari bilan ta'minlashdir.

**Gidrografik to'r** - ma'lum bir hududdagi daryolar, ularning irmoqlari, buлоqlar, ko'llar, botqoqliklar, muzliklar, doimiy qorliklar.

**Gidrografiya** - ma'lum hududdagi suv obyektlarining o'ziga xos xususiyatlarini joyning tabiiy geografik sharoiti bilan bog'liq holda o'rganib, ularga gidrologik va xalq xo'jaligidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan yondashgan holda, yozma tavsif beradigan fan.

**Gidrol** - boshqa molekulalar bilan birlashmagan H<sub>2</sub>O molekula.

**Gidrologik yil** - daryo havzasida namlikning to'planish va sarf bo'lish davrlarini to'la o'z ichiga olgan yillik oraliq.

**Gidrologik prognozlar** – daryolar va boshqa suv obyektlari suv rejimi elementlari o'zgarishlarini oldindan aytish usullarini o'rganadigan fan.

**Gidrologik hisoblashlar** - daryolar va boshqa suv obyektlarining turli gidrologik ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan.

**Gidrologiya** - yunoncha so'z bo'lib, "gidro" – suv va "logos" – "bilim" yoki "fan" ma'nosini beradi.

**Gidrometriya** – gidrologiyaning o'lchov qismi bo'lib, suv obyektlarining gidrologik rejimi elementlarini o'lchash, kuzatish uslublarini ishlab chiqish va ularni bevosita amalga oshirish ishlari bilan shug'ullanadigan fan.

**Gidrosfera** - Yer kurrasining suv qobig'i.

**Glyatsiologiya** – muzliklarni o'rganadigan fan.

**Grunt suvlari** - tuproq suvlardan pastda, suv o'tkazmaydigan qatlarning ustidagi suvlar.

**Daryo** - havzaga yoqqan yog'inlardan hosil bo'lgan yer usti va yer osti suvlari hisobiga to'yinib, tabiiy o'zanda oquvchi suv massalari.

**Daryo boshi** - o'zan aniq ko'rinishga ega bo'lgan va doimiy suv oqimi kuzatila boshlanadigan joy.

**Daryoning quyilishi** - daryo ko'lga, dengizga yoki ikkinchi bir daryoga qo'shiladigan joy.

**Daryo sistemasi** - bosh daryo va uning irmoqlari.

**Daryo suvayirg'ichlari** - daryolar suv to'playdigan havzalarni bir-biridan ajralib turishini ta'minlaydi.

**Daryo havzasi** - yer sirtining daryo sistemasi joylashgan va suvayirg'ich chiziqlari bilan chegaralangan qismi.

**Daryo kengligi** - chap qirg‘oq bilan o‘ng qirg‘oq orasidagi oqim yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘lgan masofa.

**Daryo o‘zanining namlangan perimetri** - o‘zanning suv bilan qoplangan qismining ko‘ndalang kesimi uzunligi.

**Daryo oqimi (oqim hajmi)** - daryoning ko‘ndalang qirqimidan ma’lum vaqt oralig‘ida oqib o‘tadigan suv miqdori.

**Digidrol** – ikki oddiy  $(H_2O)_2$  molekula.

**Diffuzion bug‘lanish** - suv molekulalari atmosferaga o‘tgach, gravitatsion kuchlar ta’sirida yuqoriga ko‘tarila boshlaydi. Ularning o‘rnini esa suv yuzasidan yangi ajralgan molekulalar egallaydi.

**Dunyo okeani** - yer sirtining okeanlar va dengizlar suvlarini bilan qoplangan yuzasi.

**Yer osti suvleri** - yer po‘sti – litosferani tashkil qilgan tog‘ jinslari, tuproq-grunt qatlamlari ichidagi bo‘shliqlarda suyuq, qattiq (muz) va bug‘ holatda uchraydigan barcha suvlar.

**Yog‘in gradiyenti** - yog‘in miqdorining balandlikka bog‘liq holda o‘zgarishini ifodalaydi.

**Yog‘in me’yori** - ma’lum meteorologik stansiyada uzoq yillar davomida olib borilgan kuzatishlar asosida o‘rtacha arifmetik qiymat sifatida aniqlanadi.

**Yog‘in miqdori** - joyning geografik o‘rni, atmosfera sirkulyatsiyasi, yer sirti relyefi kabi omillar bilan aniqlanadi, yog‘in qatlami yoki hajmi ko‘rinishida ifodalanadi.

**Yog‘ish jadalligi** - yomg‘ir miqdori (X)ning uning davom etish vaqtini(T)ga nisbati.

**Jala yomg‘irlar** - nisbatan qisqa vaqt davomida, lekin katta jadallikda yog‘adi. Yomg‘ir tomchilari – kondensatsiya jarayonida to‘yinish nuqtasiga yetib, o‘zaro birlashadi va og‘irlik kuchi ta’sirida yer sirtiga tushadi.

**Jonli kesma maydoni** - oqim yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘lib, o‘zan tubi va suv yuzasi chiziqlari bilan chegaralangan maydon.

**Izobat** - suv ostidagi bir xil chuqurliklarni tutashtiradigan chiziq.

**Irmoqlar** - bosh daryoga quyiladigan kichik daryolar.

**Ichki oqimli hududlar yoki berk hududlar** - daryolar suvi bevosita okeanga kelib tushmaydigan hududlar.

**Ichki suvayirg‘ichlar** - materiklarga yoqqan yog‘inlardan hosil bo‘lgan suvni okeanga tutash (chekka hudud) va berk (ichki oqimli) havzalar bo‘yicha taqsimlaydi.

**Kadastr** - yunoncha “katastichon” so‘zidan fransuz tiliga “kadastre”

shaklida o'tgan bo'lib, o'zbek tiliga aynan tarjima qilinsa, "varaq", "molk-mulk daftari" yoki "mulkiy daftar" ma'nosini bildiradi.

**Konveksion bug'lanish** - bug'lanuvchi yuzaga yaqin balandlikda ma'lum omillar (shamol, harorat farqi) ta'sirida yuzaga kelgan ko'tariluvchi yoki pasayuvchi havo oqimlari ta'sirida bug'lanishning jadallahishi.

**Kondensatsiya** - bug'langan suv molekulalarining bir qismi balandlikka ko'tarilib, to'yinish jarayoni.

**Kontinent daryolari** - berk havzalardagi dengiz yoki ko'llarga quyiladi yoki ulargacha yetib bormasligi mumkin.

**Kichik suv aylanishi** - okeanlar va dengizlar yuzasidan bo'ladigan bug'lanishning bevosita yana okeanlar va dengizlar yuzasiga atmosfera yog'ini ko'rinishida qaytib tushishi.

**Kuzatish daftarchasi (KG-1M(n))** - kuzatuvchi suv sathini, havo haroratini, muzlash hodisalarini yozib boradi, u bir oyga mo'ljallangan bo'ladi.

**Ko'p yillik va doimiy qor qoplamlari** - qutbiy o'lkalarda va baland tog'larda uchraydi.

**Ko'lining uzunligi** - suv yuzasi bo'y lab qirg'oq chizig'idagi bir-biridan eng uzoq masofada joylashgan ikki nuqta orasidagi eng qisqa masofa.

**Ko'lining o'rtacha kengligi** - ko'l suv yuzasi maydonining uning uzunligiga bo'lgan nisbati.

**Qatlamlar orasidagi suvlar** - suv o'tkazmaydigan tog' jinslaridan tashkil topgan ikki qatlam orasidagi bo'shilqlarda mavjud bo'lgan suvlar.

**Qoziqli suv o'lhash posti** - suv sathining yillik tebranish amplitudasi katta (8 -10 m) bo'lgan holda quriladi. Bunday postlar nishabligi kam bo'lgan daryolarda, ko'llarda va suv omborlarida keng tarqalgan. Har bir postdag'i qoziqlar soni shunday tanlanadiki, ular orasidagi balandlik farqi 80 sm dan oshmasligi kerak. Ular orasidagi masofa esa kuzatish olib borish qulayligini hisobga olib belgilanadi.

**Qor qoplami** - havo harorati 0-5 °S dan boshlab yog'inlarning qor ko'rinishida yog'ishi va yer sirtida to'planishidan hosil bo'ladi.

**Qo'l loti** - daryo va suv havzalarida oqim tezligi sust bo'lgan hollarda chuqurlik o'lhashda qo'llaniladi.

**Limnologiya** - ko'llar va suv omborlari gidrologiyasi va gidrometeorologiyasini o'rganadigan fan.

**Mavsumiy qor qoplami** - kuz, qish va erta bahorda yog'ib, shu yilning issiq mavsumida erib ketadi.

**Mexanik lot** - daryolarda oqim tezligi juda katta yoki chuqurliklar 25 m dan ortiq bo'lsa qo'llaniladi.

**Moslashgan suv sathlari** - bir daryoda bir necha post bo'lsa yoki bir xil tabiiy geografik sharoitda o'zaro yaqin masofada bo'lган daryolarda postlar bo'lsa, shu daryolardagi suv sathining tebranishi bir - biriga o'xshash va moslashgan bo'ladi.

**Mutlaq (absolyut) namlik** - 1 m<sup>3</sup> havoda mavjud bo'lган gramm hisobidagi suv bug'larini ifodalaydi.

**Muhandislik gidrologiyasi** – gidrologik hisoblashlar va gidrologik proqnozlar fanlari birgalikda shu nom bilan ataladi.

**Namyotka** - yog'ochdan ishlangan, uzunligi 5-7 m, diametri 4-5 sm ga teng bo'lган, chuqurliklarni o'lchaydigan asbob.

**Oddiy suv o'lhash postlari** - eng ko'p tarqalgan postlardan hisoblanadi. Bu tipdag'i postlar qulay va arzondir. Suv sathining tebranishi keskin bo'lмаган hollarda qurish mumkin. Oddiy suv o'lhash postlari - reykali, qoziqli, aralash bo'lishi mumkin.

**Orttirma** - "0" kuzatish tekisligi balandligi bilan "0" grafik tekisligi orasidagi balandlik farqi.

**Okean va dengiz suvayirg'ichlari** - suvni okeanlar va dengizlar havzalari bo'yicha taqsimlaydi.

**Okean daryolari** - okean yoki okean bilan tutash bo'lган dengizlarga quyiladi.

**Okeanga tutash yoki chekka oqimli hududlar** - Dunyo okeaniga tomon qiya bo'lib, u yerda hosil bo'lган daryo oqimi okeanlarga kelib tushadi.

**Oqiziqlar oqimi** - ma'lum vaqt ichida daryolar suvi bilan oqib o'tadigan qattiq jinslar va erigan moddalar miqdori.

**Og'ir suv** - murakkab tajribalar natijasida, laboratoriya sharoitida yaratilgan, tarkibida vodorod va kislorod izotoplari bo'lган suv.

**Potamologiya** - daryolar gidrologiyasi, fan.

**Suv sathining ko'p yillik tebranishi** – bu jarayon iqlimning atmosfera sirkulyatsiyasi ta'sirida ko'p yillik tsiklli tebranishiga bog'liq bo'ladi. Bunda ko'p yog'in yoqqan yillarda suv sathining tebranishi ham katta bo'ladi yoki aksincha. Bundan tashqari suv sathining ko'p yillik tebranishi geologik, tektonik jarayonlarga ham bog'liq bo'ladi.

**Suv sathining yillik tebranishi** - shu yilning meteorologik sharoitiga bog'liq bo'ladi. Agar shu yilda yog'in - sochin miqdori ko'p bo'lib, namlik katta bo'lsa, bu yilda suv sathining tebranish amplitudasi ham katta bo'ladi.

**Suv sathining fasliy tebranishi** - daryo havzasining tabiiy - geografik sharoitiga bog'liq bo'ladi. Bunda daryoning joylashish o'mni, balandligi muhim rol o'ynaydi. Fasliy tebranish yoz oylarida suv o'simliklari, qish oylarida esa muzlash hodisalari ta'sirida kuzatilishi mumkin.

**Suv sathining sutkalik tebranishi** - daryolarning dengizga quyilish yerlarida (shamol ta'sirida) va muzliklarga yaqin joylashgan kichik soylda kuzatilishi mumkin.

**Suv toplash maydoni** - daryo sistemasining suv yig'adigan maydoni.

**Suvning oqish tezligi** - daryo o'zanidagi suv massasining vaqt birligi ichida bosib o'tgan masofasi.

**Suv sarfi** - daryoning ma'lum jonli kesmasidan vaqt birligi ichida oqib o'tadigan suv miqdori.

**Suv sarfi egri chizig'i** - o'lchangan suv sathi bilan suv sarfi, jonli kesma maydoni va o'rtacha tezlik orasidagi bog'lanish grafigi.

**Suv kadastro** - suv obyektlarini tizimli ro'yxatga olish.

**Sublimatsiya** - suv bug'larining qor qoplamasi va muzliklar yuzasida kondensatsiyalanishi.

**Suvayirg'ich chizig'i** - yer sirtiga yoqqan yog'inlardan hosil bo'lgan suvni ikki qarama-qarshi yo'nalishdagi yonbag'irlar bo'yicha taqsimlaydigan eng baland nuqtalar o'mni.

**Suvning zichligi** - hajm birligidagi suv massasi.

**Suvning katta aylanishi** - ham materiklardagi, ham okeanlardagi suvning barcha turdag'i aylanishini o'z ichiga oladi. Quruqlikdan daryo oqimi ko'rinishida okeanlarga yoki ular bilan tutash bo'lgan dengizlarga qaytib tushgan suv katta suv aylanishi jarayonini tugallaydi.

**Suvning solishtirma issiqlik sig'imi** - 1 gramm massali suvni 1 gradus isitish uchun talab qilinadigan issiqlik miqdori.

**Talmatologiya** - botqoqliklar gidrologiyasi, fan.

**Trigidrol** - uchta molekula birlashgan birikma  $(H_2O)_3$ , suv.

**Tuproq suvlari** - yer yuzasiga yaqin bo'lgan tuproq qatlamida joylashgan va odatda, mavsumiy ravishda bo'ladi suvlari.

**To'yingan suv bug'larining elastikligi ( $e_0$ )** - meteorologik stansiyada qayd etilgan havo harorati bo'yicha maxsus jadvaldan aniqlanadi.

**Uzatma suv o'lchash postlari** - daryo qirg'og'i murakkab relyefli bo'lib, oddiy post o'rnatish mumkin bo'limgan hollarda tashkil etiladi.

**O'rtacha chuqurlik** - jonli kesma maydonining daryo kengligiga bo'lgan nisbati.

**Xarakterli suv sathlari** - maksimal suv sathi va minimal suv sathi, daryoda muzlash hodisalari paydo bo'ladigan yoki daryo muzlardan xalos bo'ladigan suv sathi, daryoda kema qatnovini yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan suv sathlari va hokazolar.

**Chuqurliklarni o'lhash** - ma'lum nuqtada suv betidan o'zan tubigacha bo'lgan vertikal masofani o'lhash tushuniladi.

**Exolotlar** - ultratovush usuli bilan suv havzalaridagi chuqurliklarni o'lchaydigan asboblar.

**"0" grafik tekisligi** - suv sathini o'lhash uchun shartli ravishda qabul qilingan mavhum tekishik. Bu tekislik daryoning tarixiy minimal suv sathidan kamida 0,5-1 m pastda tanlab olinadi.

**"0" kuzatish tekisligi** - haqiqiy tekislik bo'lib, u qoziqli postlarda qoziqning yuzasidan, reykali postlarda esa reykanering "0" - belgisidan o'tadi. "0" – kuzatish tekisligining balandligi reperga nisbatan nivelirlash yordamida topiladi.

## Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Akbarov A., Nazaraliyev D., Hikmatov F. Gidrometriya. -Toshkent, ТИМ, 2008.
2. Быков В.Д. Гидрометрия. -Л.: Гидрометеоиздат, 1949.
3. Барышников Н.Б. К определению максимальных расходов воды на реках с поймой. – Труды ЛГМИ, 1969, Вып.36
4. Барышников Н.Б., Галактионов И.И., Скородумов Д.Е. Методические указания по курсу «Гидрометрия». -Л.: Гидрометеоиздат, 1975.
5. Белкова Е.Н. Инструкция по гидрометрическим исследованиям. – М.: Сельхозгиз, 1930.
6. Биригер Г.И. Элементы общей теории ультразвуковых расходомеров. – Измерительная техника, 1961, №4.
7. Биссас А.К Человек и вода. -Л.: Гидрометеоиздат, 1975.
8. Босков Н.И. Гидрометрическая вертушка. – М.: Водгео, 1934.
9. Бражников Н.И. Ультразвуковые методы. М.-Л., Энергия, 1965.
10. Быков В.Д., Васильев А.В. Гидрометрия. -Л.: Гидрометеоиздат, 1965.
11. Быков В.Д., Васильев А.В. Гидрометрия. -Л.: Гидрометеоиздат, 1977.
12. Владычанский В.Н. Гидрометрия. – Ташкент, 1924.
13. Воскресенский С.В., Гозе Н.П. Приборы для измерения скоростей течения воды. – Л.: Речиздад ЦУЕГМС, 1935.
14. Гаврилов А.М. Основы учета стока на гироэлектростанциях. – Л.: Гидрометеоиздат, 1965.
15. Гириллович Н.А. Гидрометрия. -Л.-М.: ОНТИ НКТП, 1937.
16. Гириллович Н.А. Интеграционные методы определения расхода воды вертушкой в открытых руслах // Метеорология и гидрология, 1941, №5.
17. Голягин В.К. Составление гидрологических ежегодников. -Л.: Гидрометеоиздат, 1951.
18. Димаксян А.М. Гидрологические приборы. -Л.: Гидрометеоиздат, 1972.
19. Железняков Г.В. Теория гидрометрии. -Л.: Гидрометеоиздат, 1976.
20. Железняков Г.В. Гидрология и гидрометрия. -М.: Высп. шк., 1981.
21. Железняков Г.В. Пропускная способность русел каналов и рек. -Л.: Гидрометеоиздат, 1981.
22. Иогансон Е.Г., Иогансон В.Е. Основы гидрологии и

- гидрометрии. -М.-Л. Госэнергоиздат, 1947.
23. Карасев И.Ф., Васильев А.В., Субботин Е.С. Гидрометрия. -Л.: Гидрометеоиздат, 1991.
24. Карасев И.Ф., Шумков И.Г. Гидрометрия. -Л.: Гидрометеоиздат, 1985.
25. Карасев И.Ф Речная гидрометрия и учет водный ресурсов. -Л.: Гидрометеоиздат, 1980.
26. Колупайло С.И. Гидрометрия. - М.: 1918.
27. Константинов Н.М., Петров Н.А., Высоцкий Л.И. Гидравлика, гидрология, гидрометрия. - М.: Высш. шк., 1987.
28. Коровин В.П., Чверткин Е.И. Морская гидрометрия. -Л.: Гидрометеоиздат, 1988.
29. Крылов А.Н. Гидрометрия. - Казань, 1918.
30. Лебедев В.В. Гидрология и гидрометрия в задачах. - Л.: Гидрометеоиздат, 1955.
31. Лейников М.Л. Метеорология, гидрология и гидрометрия. - М.: Гос. издательство с.-х. литературы, 1949.
32. Лучшева А.А. Практическая гидрометрия. - Л.: Гидрометеоиздат, 1975.
33. Лучшева А.А. Практическая гидрометрия. - Л.: Гидрометеоиздат, 1983.
34. Огневский А.В. Гидрометрия и производство гидрометрических работ. - М.: ОНТИ, 1937.
35. Орлова В.В. Гидрометрия. - Л.: Гидрометеоиздат, 1974.
36. Соломенцев Н.А. Гидрометрия. - Л.: Гидрометеоиздат, 1957.
37. Субботин А.С. Гидрометрические сооружения. -Л.: Гидрометеоиздат, 1989.
38. Тяпкин Н.Д. Приборы для определения скоростей и расходов воды в открытых руслах. - М. 1901.
39. Шапов Н.М. Гидрометрия гидротехнических сооружений и гидромашин. - М.: Госэнергоиздат, 1957.
40. Yunusov G‘.X. Gidrometriyadan amaliy mashg‘ulotlar. -Toshkent: Universitet, 2002.
41. Hikmatov F.H., Yunusov G‘.X. Gidrometriya. Ma‘ruzalar matni // - Tooshkent, Universitet, 2000.
42. Hikmatov F.H., Aytbayev D.P., Yunusov G‘.X. Gidrologiya va gidrometriya. - Toshkent, Cho‘lpon, 2007.
43. Эспре Т.Ф. Анализ способов вычисления ежедневных расходов воды рек. - Л.: Гидрометеоиздат, 1961.
44. Kolupailo S. Hidrometrija. Bd. 1-2 Kaunas, 1939-1940.

# MUNDARIJA

So‘z boshi .....	3
Kirish .....	5

## 1-BOB. GIDROMETRIYA FANI, UNING VAZIFALARI VA XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI

1.1. Gidrometriya fani predmeti, maqsadi, vazifalari .....	8
1.2. Gidrometriyaning shakllanish va rivojlanish tarixi .....	10
1.3. Gidrometriyaning tadqiqot usullari .....	20
1.4. Gidrometriyaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati .....	22

## 2-BOB. SUV O‘LCHASH POSTLARINI TASHKIL ETISH, ULARDA KUZATISHLARNI AMALGA OSHIRISH

2.1. Suv o‘lhash postlarining turlari .....	27
2.1.1. Oddiy suv o‘lhash postlari .....	29
2.1.2. Uzatma suv o‘lhash postlari .....	31
2.1.3. O‘ziyozar suv o‘lhash postlari .....	33
2.1.4. Nishablik suv o‘lhash postlari .....	36
2.2. Suv sathini aniq o‘lchaydigan asboblar va qurilmalar .....	37
2.3. Suv o‘lhash postlarini tashkil etish, ularda kuzatishlarni amalga oshirish .....	38
2.3.1. Stansiya va post tarmoqlari, ularning turlari .....	38
2.3.2. Daryolarning suv sathi rejimi va uni kuzatish .....	42
2.4. Suv o‘lhash postlarini tashkil etish tamoyillari, ulardagi balandlik va hisob sistemasi .....	43
2.5. Suv o‘lhash postlarini qurish uchun joy tanlash va unda bajariladigan ishlar .....	46
2.6. Suv o‘lhash postini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish .....	48
2.7. O‘ziyozar suv o‘lhash qurilmasi lentasini qayta ishslash .....	50
2.8. Suv sathini kuzatish ma'lumotlarini maxsus qayta ishslash .....	52
2.9. Moslashgan suv sathlarining bog‘lanish grafigi .....	53

## **3-BOB. CHUQURLIKLARNI O'LCHASH VA CHUQURLIK O'LCHASH MA'LUMOTLARINI QAYTA ISHLASH**

3.1. Chuqurlik o'lhash ishlarining maqsadi, vazifalari .....	59
3.2. Chuqurliklarni o'lhashda bajariladigan ishlar tarkibi .....	60
3.3. Chuqurlik o'lhash qurilmalari, asbob-uskunalarini va jihozlarini .....	61
3.4. Chuqurlik o'lhash ishlarini bajarish usullari .....	66
3.5. Ko'llar va suv omborlarida chuqurlik o'lhashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
3.6. Chuqurlik o'lhash ma'lumotlarini qayta ishlash .....	68
3.7. Daryo o'zani ko'ndalang qirqimi chizmasini chizish, o'zanning morfometrik ko'rsatkichlarini hisoblash .....	69
3.8. Daryo o'zanining bo'ylama qirqimi planini tuzish .....	71
3.9. Ko'llar va suv omborlarida o'lchanganchi chuqurliklarni qayta ishlash, ularning planini tuzish .....	78

## **4-BOB. DARYO O'ZANIDA SUVNING OQISH TEZLIGINI O'LCHASH**

4.1. Ochiq o'zanlarda suvning harakati haqida umumiy ma'lumotlar .....	84
4.2. Daryo o'zanida tezlikning taqsimlanishi .....	86
4.3. Daryoda suvning oqish tezligini o'lhash usullari .....	87
4.4. Gidrometrik parrak nazariyasi asoslari .....	91
4.5. Gidrometrik parrakni darajalash .....	93
4.6. Qalqimalar yordamida tezlikni aniqlash .....	96
4.7. Suvning oqish tezligini hisoblash usullari .....	102

## **5-BOB. DARYO VA KANALLARDA SUV SARFINI ANIQLASH**

5.1. Suv sarfini aniqlashning ilmiy va amaliy ahamiyati .....	110
5.2. Gidrometrik stvorni qurish va uni jihozlash .....	111
5.3. Suv sarfini o'lhash usullari .....	117

5.4. Suv sarfini gidrometrik parraklarlar yordamida aniqlash .....	119
5.5. Suv sarfini hisoblash usullari .....	120

## 6-BOB. SUV SARFI EGRI CHIZIG‘I GRAFIGI VA UNDAN AMALDA FOYDALANISH

6.1. Suv sarfi bilan suv sathi orasidagi bog‘lanishni aniqlash .....	128
6.2. Suv sarfi egri chizig‘i grafigi va uni ekstrapolyatsiya qilish usullari .....	129
6.3. Suv sarfi egri chizig‘i grafigini bir ma'noli bo‘lмаган bog‘lanishlar uchun tuzish .....	130
6.4. Suv sarfi egri chizig‘i grafigi yordamida hidrologik yilnomani tuzish .....	134
6.5. Xarakterli suv sarflarini aniqlash va daryo oqimini hisoblash ..	135

## 7-BOB. DARYOLARNING LOYQA OQIZIQLARI VA ERIGAN MODDALARI OQIMINI O‘RGANISH

7.1. Daryolarning loyqa oqiziqlari haqida umumiylar ma'lumotlar	138
7.2. Daryolar oqiziqlari oqimini aniqlashda qo‘llaniladigan asboblar .....	141
7.3. Muallaq oqiziqlar sarfini o‘lchash va oqimini hisoblash .....	145
7.4. O‘zan tubi oqiziqlarini o‘lchash va hisoblash .....	148
7.5. Oqiziqlar va o‘zan tubi yotqiziqlari namunalarini laboratoriya sharoitida qayta ishlash .....	149
7.6. Daryo suvining minerallashuvi va erigan moddalar oqimini hisoblash .....	150

## 8-BOB. SUV OBYEKTLARIDA MAXSUS KUZATISHLAR

8.1. Suv obyektlarida bajariladigan maxsus kuzatishlarning mohiyati va vazifalari .....	154
8.2. Suvning tiniqligi, rangi va haroratini kuzatish .....	156
8.3. Daryolarda muzlash hodisalarini kuzatish .....	159

## **9-BOB. DAVLAT SUV KADASTRI, UNING MOHIYATI VA MAZMUNI**

9.1. Davlat suv kadastro, maqsadi, vazifalari .....	169
9.2. Davlat suv kadastrining tarkibiy qismlari .....	182
9.2.1. Gidrologik o‘rganilganlik .....	182
9.2.2. Gidrologik yilnomalar .....	183
9.2.3. Asosiy gidrologik ko‘rsatkichlar .....	184
9.2.4. Yuza suvlar resurslari .....	184
9.2.5. Muzliklar katalogi .....	185
9.2.6. Qor ko‘chkilari kadastro .....	185
9.2.7. Suv – energetika kadastro .....	186
Test savollari .....	187
Glossariy .....	195
Foydalanolgan adabiyotlar .....	202

**«Sano-standart»**  
*nashriyoti*

ISBN 978-9943-4365-5-8

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-4365-5-8.

9 789943 436558